

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 2

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 2

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Rashid Zohidov	
Adabiy manbashunoslik muammolari	4
Ma'rifat Rajabova	
Matn va nashr muammoari	17
Mabruk Djurayev	
“Devoni Foniyy”ning Nuriusmoniya nusxasi tavsifi	35

ADABIYOTSHUNOSLIK

Usmon Qobilov	
Mavlono Atoiy she'riyatida obraz-timsollar badiiy talqini	49
Farida Karimova	
Xusrav Dehlaviy debochalari: an'ana va o'ziga xoslik	68

LINGVISTIKA

G'aybulla Boboyorov	
Tilimiz “o'zbekcha” nomini o'tmishining qay bosqichida ola boshlagan edi?	89
Elyor Alimardanov	
Xorazm dialektal zonasida o'zbek shevalari leksik xususiyatlarining turkman tili (shevasi)ga ta'siri	103

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOTOLOGY	
Rashid Zohidov	
Problems of Literary Source Studies	4
Ma'rfat Rajabova	
Textual and Publication Issues (On the Example of Nodira's "Divan")	17
Mabruk Djurayev	
Description of the Nuruosmoniya copy of "Devoni Foni"	35
LITERATURE	
Usmon Qobilov	
Artistic Interpretations of Imagery and Symbolism in Mavlono Atoiy's Poetry	49
Farida Karimova	
Khusraw Dehlavi's Prefaces: Tradition and Originality	68
LINGUISTICS	
Gaybulla Babayarov	
At which stage in its History did our Language Begin to be Called "Uzbek"?	89
Elyor Alimardanov	
The Influence of Lexical Features of Uzbek Dialects on the Turkmen Language (dialect) in the Khorezm Dialectal Zone	103

MATNSHUNOSLIK
TEXTOTOLOGY

Adabiy manbashunoslik muammolari

Rashid Zohidov¹

Abstrakt

Sharq manbashunosligi diniy manbalarni sharhlash, tafsir qilish jarayonida shakllanib borgan. Qur'oni karim, hadisi shariflardan oziqlangan mumtoz adabiyot ham manbalar asosida ishlagan. Mazkur tafsirlar, sharhlar badiiy asar mazmuniga ko'chib o'tib, asar matnining chuqur va tagma'noli bo'lishiga sabab bo'lgan. Natijada o'sha badiiy asarni kitobxonga tushuntirish uchun ham manbalarga murojaat qilish zarurati yuzaga kelgan. Tagmazmuni chuqur badiiy matnlarga ham sharhlar yozila boshlangan, turli talqinlar yaratilgan. Bugun adabiyotshunoslik metodologiyasida faol qo'llanuvchi germeneytikaning ilk ko'rinishlari ham Sharq adabiyotida sharh ilmi bilan birga rivojlangan. Shu ma'noda adabiy manbashunoslikni diniy manbashunoslik bilan bog'lab o'rganish mantiqan to'g'ri hisoblanadi.

Mazkur maqolada adabiy manbashunoslikning diniy tushunchalar, e'tiqod, sharh va tafsir ilmi bilan bog'liqligi masalasi yoritildi.

Kalit so'z: *Sharq manbashunosligi, tafsir ilmi, sharh yozish an'anasi, renessans, estetik unsur, shakl, konstruksiya.*

Kirish

Adabiy manbashunoslikning mustaqil fan sifatidagi tadrijiga to'xtalishdan oldin umumiy manbashunoslikning tarixi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishimiz lozim. Sharq manbashunosligining fundamental qonuniyatlari Qur'oni karim tafsiri jarayonida shakllangani tarixiy haqiqat. Chunki dastlabki tafsirlarda Qur'on Qur'on bilan sharhlangan, Payg'ambar alayhissalom Qur'on oyatlarini lozim o'rinlarda sahobalarga izohlab tushuntirgan, keyinroq, Rasuli akram dunyodan o'tgach, sahobalar ba'zi oyatlar tafsirini Qur'ondan ham, hadislardan ham topolmaganlarida o'z

¹ Zohidov Rashid Fozilovich – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: rzohid1@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6521-5219

Iqtibos uchun: Rashidov, Z. F. 2025. "Adabiy manbashunoslik muammolari". *Oltin bitiglar* 2: 4 – 16.

ijtihadlari, qarashlaridan kelib chiqib tafsir qilishgan. Natijada tafsir ilmi kengayib, manbalarga tizimli yondashuv paydo bo'ldi va bu yondashuv qaysidir darajada manbashunoslik asoslari shakllanishiga zamin tayyorladi.

Asosiy qism

Hijratning ikkinchi yuz yilligi (IX asr) boshidan musulmonlar o'z ilmlarini yozib, qayd qilib borishga kirishishdi. Avvalida tafsirlar hadislarining bir bobi sifatida kitoblarga kirdi. Keyinchalik ular hadislardan ajratilib, tafsirlar alohida ta'lif qilina boshladi. Keyinchalik ilmlar turlarga bo'lina boshlagach, turli xil qarashlar, farqli aqidalar yuzaga keldi. Har ilm sohasi tafsirga o'z mavqifidan yondashar ekan, natijada Qur'oni karim iboralari bo'yicha ilmiy istilohlar, mazhabiy aqidalar, tafsir madaniyati va falsafasi paydo bo'ldi. Muayyan fanning mohir ustalari fan mohiyati va mahoratidan kelib chiqib, Qur'on tafsiriga mashg'ul bo'lishdi. Pirovardida, tafsir yo'llari yo'nalishiga ko'ra bir necha navlarga ajraldi: a) lug'aviy tafsirlar; b) aqliy tafsirlar; c) fiqhiy tafsirlar; d) tarixiy tafsirlar; e) firqalar tafsiri; f) mutasavviflar tafsirlari.

Bu juda katta manbashunoslik zaxirasi bilan bog'liq jarayon edi. Vaqt o'tishi bilan ilohiy Kalomni tushunish yo'lida orttirilgan boy tajriba inson aqliy mehnati mahsuli bo'lgan manbalarga nisbatan ham qo'llana bordi. Ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, aniq fanlarga oid ayrim asarlarga sharhlar yozila boshladi. Tez ommalashib, an'anaga aylangan bu jarayon Sharq manbashunosligida yangi davrni boshlab berdi va soha rivoji uchun chinakam renessans bo'ldi. Sharh ilmi shu darajada taraqqiy topdiki, bitta kitob matniga o'nlab jildli sharhlar bitildi, sharhlarga sharhlar yozildi. Masalan, mo'tabarlikda Qur'ondan keyin turuvchi manba – الجامع الصحيح (Sahih hadislar to'plami) asariga عمدة القارى (Qur'on tayanchi) va فتح البارى (Yaratuvchi kashfi), شرح صحيح البخارى (Buxoriyning "Sahih"i sharhi) nomli mashhur sharhlar dunyoga keldi. صحيح المسلم (Muslim sahihi), سنن نسائى (Nasoiy sunanlari), سنن ابن ماجه (Ibn Moja sunanlari) kabi hadislar to'plamlariga ham ishonchli sharhlar bitildi. Alouddin Samarqandiyning uch juzli تحفة الفقهاء (Faqihlarga tuhfa) asariga Alouddin Abu Bakr ibn Mas'ud ibn Ahmad al-Kosoniyning o'n juzdan iborat بدائع الصنائع فى ترتيب الشرائع (Shariat qonunini tartiblashda go'zal san'atlar) sharhi, Hafizuddin Nasafiyning البحر الرائق شرح كنز الدقائق ("Inja xazinalar" sharhining tiniq dengizi) asari, Imom Burhoniddin Marg'inoniyning الهداية ("To'g'ri yo'lga yo'llanma") kitobiga Mahmud ibn Ubaydullohning وقاية الرواية فى مسائل الهداية ("Hidoya" masalalaridagi

qarashlar muhofazasi) sharhi va ayni sharhga sharh Ubaydulloh ibn Mas'udning وقاية الرواية (Qarashlar muhofazasi) asari ham hanafiy mazhabi bo'yicha yozilgan mashhur sharhlar jumlasiga kiradi. وقاية الرواية sharhi diyorimizda مختصر الوقاية ("Qarashlar muhofazasi"ning qisqa bayoni) nomi bilan tanilgan bo'lib, madrasalarda asosiy fiqhiy darsliklardan biri sifatida o'qitilgan. Najmuddin Umar ibn Ali Qazviniyning الشمسية (Shamsiya) asariga Qutbiddin Roziy Tahtoniyning شرح القواعد المنتقاة في شرح الشمسية ("Shamsiya" sharhidagi mantiqiy qoidalar tahriri) sharhi, Sa'duddin Taftazoniyning السعدية (Sa'diya) sharhi, مزان المنطق (Mantiq o'lchovi) asariga Abdulloh ibn Haddod Usmoniyning بديع المزان (Go'zal mezon) kitoblari VIII-XIV asrlarda mantiq ilmi bo'yicha qilingan sharhlarga misol bo'ladi.

Tilshunoslik sohasida Ibn Hojibning الكافية (Kifoya qilguvchi) asariga Abdurahmon Jomiyning فوائد الضيائية (Ziyovuddinning foydalari), Roziyuddin Astrobodyning شرح الراضى على الكافية ("Kofiya" kitobiga Roziy sharhi) sharhlari, Ibn Hishomning شذور الذهب ("Sochilgan zar" kitobiga sharh), Hasan Hifziyning شرح الاجرومية ("Ujrumiyya" sharhi) Bahouddin Abdulloh ibn Uqayliyning شرح ابن عقيل (Ibn Uqayl sharhi) asarlari, fasohat va balog'at ilmi bo'yicha Sakkokiyning معاهد التنصيص على شواهد Ilmlar kaliti) asariga تلخيص الشواهد ("Talxis" dalillariga iqtibos o'rinlari), Jaloliddin Qazviniyning Ilmlar kaliti) تلخيص المفتاح (Balog'at ilmlariga izoh), مختصر المعانى (Ma'nolarning muxtasar bayoni) nomli sharhlar ham mustaqil asar sifatidagi manbalardan hisoblanadi. Shuningdek, Jaloliddin Rumiyning mashhur "Masnaviyi ma'naviy" kitobi Sulton Valad, Ahmad Aflokiy, Faridun Sipahsolor, Sham'iy, Sarvari, Shibliy No'moniylar tomonidan sharhlangan. Hofiz Sheroziy devoniga ham bir necha sharhlar yozilgan. Bular ichida eng e'tiborli sharh XVI asrda yashab o'tgan turk olimi Sudiy Basnaviy qalamiga mansubdir. Adabiyotshunos olim NKomilovning xabar berishicha, Sudiy Hofiz devonidan tashqari, Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy-ma'naviy" sini turk tilida sharhlagan. Sudiy sharhlari butun Sharq mamlakatlariga tarqalgan. O'zbek ziyolilari ham lug'atlar tuzish, tarjima jarayonida Sudiy sharhlaridan foydalanganlar. Chunonchi, Sa'diy asarini "Shavqi Guliston" nomi bilan o'zbek tiliga o'g'irgan Murodho'ja ibn Solihxo'ja hoshiya sharhida Sudiyga suyanadi va unga havolalar qiladi [Komilov 1987, 182]. Sharqda manbashunoslik mana shunday tadrijiylikda tarmoqlanib shakllangan.

Har tarmoq o'zi o'rganayotgan matnga spesifik yondashgan

bo'lsa-da, barcha turdagi sharhlar uchun umumiy, tarmoqlararo barqaror qonuniyatlar mavjud edi. Ularni shunday tasnif qilish mumkin:

1) matn qismlarga ajratilgan (masalan, tafsirda – bitta oyat yoki bir nechta oyatlar; hadis sharhida – farqlanuvchi rivoyatlar; nazmda – baytlar, misralar; nasriy asarlarda – umumiy mazmun silsilasidagi kichik mavzular; ilmiy manbalarda – tushunchalarning tizimli tasnifi);

2) qismning butunga munosabati aniqlangan (turli suralarga sochilgan, bitta voqelikka aloqador oyatlarni yolg'iz oyat tafsirida jamlash; hadisning har xil rivoyatlarini bitta hukmda markazlash-tirish; baytlar aro bog'lanishlarni umumiy yaxlitlikda tadqiq etish);

3) matnga til tizimidagi hodisa sifatida qaralgan (matndagi ayrim so'zlarning fonetik tuzilishidan tortib, gapdagi morfologik, sintaktik majoziy ma'nolari-yu, vazifalarigacha, etimologiyasi, psixolingvistik xususiyatlarigacha izohlangan).

Yevropada manbashunoslik (istochnikovedeniya)ning fan sifatida shakllanishi XVIII asrning ikkinchi choragiga to'g'ri kelib, V.N. Tatishev, M. V. Lomonosov, G. F. Miller, A. L. Shletser nomlari bilan bog'liq. Lekin bu olimlarning aksari manbashunoslikni tarix fanining bir sohasi sifatida o'rganishgan, manbashunoslikka tarixiy ma'lumotlarni tanqidiy tekshiradigan yordamchi soha sifatida qarashgan. Hatto bu qarash adabiy manbashunoslik bo'yicha tuzilgan mahalliy qo'llanmalarimizda ham aks etgan: "Manbashunoslik yozma manbalarni yig'ish, qidirib topish, tartibga solish va ulardan ilmiy foydalanish yo'llarini o'rgatuvchi fandir. Manbashunoslik fanlar sohasi bo'yicha quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: *Adabiy manbashunoslik, tarixiy manbashunoslik, ilmiy manbashunoslik, folklor manbashunoslik*. Umuman olganda, manbashunoslik ilmda tarix fanining bir sohasi sifatida qabul qilingan" [Habibullayev 2000, 7].

Balki bu qarash "o'tgan har bir soniya tarixdir" degan mezonga ko'ra o'zini oqlar. Ya'ni har qanday obyektни muayyan tarixning bir bo'lagi sifatida qabul qilish mumkin. Lekin bu mazkur obyekt mustaqil holda mavjud emas, faqat tarixning bir bo'lagi sifatida mavjuddir, degani emas. Shunday ekan, manbashunoslik tadqiq obyektini tarixiy manbalar doirasida chegaralab qo'yish yoki har qanday manbaga faqat tarixiylik prinsipiga ko'ra yondashish manbashunoslik, xususan, Sharq manbashunosligi uchun bir tomonlama yondashuv bo'lib qoladi.

Manbashunos olim Q.Sodiqov "manbashunoslik" atamasiga

ta'rif beraturib, aytadi: "Adabiyot, tarix va boshqa ilmlarning yordamchi sohasi. Uning *adabiy manbashunoslik, tarix manbashunosligi, ilmiy asarlar manbashunosligi* yo'nalishlari bor.

Adabiy manbashunoslik deganda adabiyot tarixining hamma davrlarida yaratilgan yozma manbalarni, shoir va ijodkorlarning yoxud muallifi noma'lum bo'lgan asarlarning yaratilgan davridan boshlab, to hozirgacha ko'chirilgan qo'lyozmalarini, bosma nashrlarini tanqidiy o'rganib chiqish tushuniladi" [Sodiqov 2017, 192]. Olimning manbashunoslikni ilmlarning yordamchi sohasi degan fikriga qo'shilmasak-da, ammo o'zbek manbashunosligi kontekstida ushbu ta'rif fanning maqsadlarini imkon qadar to'la qamragan mukammal ta'rifdir.

Darhaqiqat, adabiyot tarixining turli davrlarida bitilgan yozma manbalarni, shoir va ijodkorlarning yoxud muallifi noma'lum bo'lgan asarlarning yozilgan davridan boshlab, to hozirgacha ko'chirilgan qo'lyozmalarini, bosma nashrlarini tanqidiy o'rganish manbashunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu o'rinda, badiiy niyatning asarga aylanish jarayonini o'rganish, asarning genezisini tiklash masalasi ham adabiy manbashunoslikning asosiy vazifalaridan biri ekanini unutmashimiz kerak. Chunki har qanday estetik unsur, shakl va konstruksiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va so'nggi holati to'liq o'rganilsagina, mazkur estetik unsur, shakl, konstruksiya haqida eng aniq ilmiy xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

"Manba" so'zining istilohga aylanish jarayoni

Har qanday atamaning yasashida so'zning lug'aviy ma'nolari negiz vazifasini o'taydi. Shu negiz atrofida muayyan tushuncha barqarorlashadi va yangi nom bilan atala boshlaydi. Endi "manbashunoslik" tushunchasining o'zagini tashkil qilgan "manba" so'zining istilohga aylanguncha davom etgan tadrijiga bir nazar solaylik. Arabcha "oqib chiqmoq", "boshlanmoq", "otilib chiqmoq", "kelib chiqmoq" ma'nolarini anglatuvchi *naba'a* (نَبَعَ) fe'lidan "oqib chiqish joyi", "boshlanish nuqtasi" "buloq" ma'nosidagi *manba* (مَنْبَع) so'zi yasalgan. Jumladan, "sharh" so'zi mashhur lug'atlarda – ochmoq; bayon qilmoq, tushuntirmoq, yoritmoq, izohlamok; bo'laklab kesmoq ma'nolarida qo'llanishi aytilgan. Har qanday harakat, voqea-hodisaning boshlang'ich nuqtasi, avvali, boshiga nisbatan qo'llangan bu so'z ma'lum soha kishilarining ixtiyoriga binoan, "ijod mahsuli" tushunchasida qarorlashdi va "manba" deyilganida muayyan *asar* (kitob) tushunila boshladi.

Mutolaa qilingan kitob o'z o'quvchilarida turli xil o'xshash va farqli fikrlarni uyg'otadi. Fikrlarning o'xshashligi *qarashlarni*, farqliligi *yondashuvlarni* yuzaga keltiradi. Bu jarayon bamisoli kitobdan kitoblar otilib chiqayotgan, asardan asarlar tarmoqlanib, toshib oqayotgan oqimga o'xshaydi. Fikr, qarash, yondashuvlarning o'zaro kelishuvi, shartlashuvi ostida sodir bo'ladigan bu jarayon ixtiyoriy tarzda kechadi.

Ma'lum adabiy asar bo'yicha tadqiqot olib borayotgan manbahunos o'zi o'rganayotgan obyektning yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelishiga sabab bo'lgan *ta'sirlar zanjirini* tiklaydi, tadqiq etilayotgan asarning bu silsiladagi o'rnini belgilaydi, xalqalar orasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlaydi. Manbahunoslik tadqiqi mana shu uzluksiz jarayon ichida kechadi. Mumtoz adabiyotimiz manbalarini "ta'sirlar zanjiri" hodisasi asosida o'rganish metodikasini muayyan asar genezisini tadqiq etishdan farqlash zarur. Adabiy asarning *genezisini* o'rganish, ta'bir joiz bo'lsa, "qon-qardoshlik rishtalarini aniqlash, ya'ni bir necha avlodning go'yo bitta otadan tarqalganini dalillar bilan asoslashga o'xshaydi. Muayyan manbaning yuzaga kelishidagi "ta'sirlar zanjiri"ni o'rganishda masala boshqacharoq qo'yiladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari misolida "ta'sirlar zanjiri" hodisasini kuzataylik. Avvalgi bosqichda "Nazm ul-javohir"da tilga olingan manbalarni aniqlashtiramiz:

- a) Qur'oni karim oyatlari;
- b) hadisi shariflar;
- v) "Nasrul laoliy".

Keyingi bosqichda mazkur manbalarining asar matnida tutgan maqomini ko'rib chiqamiz. Asar matni shunday boshlanadi:

هر لعالیء منصوره کیم فکره غواصی صفا زجابه سینی باشیگه ترتیب ریشته
سینی قولیغه توتوب حمد ثنا عمّانی دین حاصل قیلغای اول تینگری نینگ شانی ده دورکیم: هل
اتی علی الانسان حین من دهر لم یکن شیء مذکورا انینگ کلام فرخنده فارجامی دین ایه
دورور.

Laoliyi mansura – "sochilgan qimmatbaho la'l toshlar" birikmasi bilan boshlangan matn "Nasrul laoliy" asariga ishora qilyapti. Sochilib yotgan bu qimmatbaho la'l toshlarni teradigan kishi tafakkur ahlidan bo'lishi lozimligi, boz ustiga, dengizning tubiga sho'ng'iy oladigan g'avvoslardan bo'lishi, buning uchun uning boshida sof, tiniq shishadan bo'lgan uskuna (shlyom) bo'lishi (toki la'lni oddiy toshdan ajratib tiniq ko'ra olsin), qo'li har tomonga tartibsiz harakatlanmasligi uchun tartib arqonini mahkam ushlab, ma'rifat dengizi tubida mavjud *hamdu sanoni* qo'lga kiritadi. Jumla

avvalida nazarda tutilgan “la’l toshlar” jumla oxirida “hamd-u sano”ga aylandi. Nega? Chunki matnda kelgan *laoliyi mansuradan* maqsad – hikmat. Hikmatning eng ulug’i esa Yaratuvchi Zotga aytilgan hamdu sanodir. Shuning uchun dinimizda hamd tushunchasining maqomi baland. Shuning uchun haqiqiy maqtovga munosib Zotni tanib, bu haqni ado qilishga kirishgan insonning o’zi va so’zi sharaftga loyiq. Bejizga Qur’oni karimdagi avvalgi kalima “Alhamdulillah” deb boshlanmagan. Bu haqda Ibn Jarir Tabariy rahimahulloh “Fotiha” surasi tafsirida aytadi: “Alhamdulillah, ya’ni Ollohgga hamd bo’lsin, degani sano bo’lib, bu bilan Olloh o’z Zotiga sano aytyapti. Buning zimnida Olloh taolo bandalarini O’ziga sano aytishga buyuryapti”.

Matnda hamd aytishning lozimligiga ushbu oyat dalil sifatida keltiriladi: “*Aniqki, insonning ustiga zamondan u tilga olgulik bir narsa bo’lmagan vaqt – muddat kelgandir*” [Qur’oni azim muxtasar tafsiri 2011, 899]. Ushbu oyati karimani muafasssirlar ikki xil tafsir qilganlar. Birinchi tafsir: Olloh taolo yer yuzidagi barcha mavjudotni va undagi hayot kechirishga qulay, muvofiq iqlimni Inson uchun yaratgandir. Lekin Olloh taolo mana shu olamni yaratganidan to Odam alayhissalomni yaratib, unga jon ato etgunicha oradan o’tgan uzun bir muddatda inson ismi, yer yuzida Yaratganning xalifasi bo’lguvchi jonzot dunyoga kelishi zikr qilinmagan – tilga olinmagan edi. Ikkinchi tafsir: Odamzot ona qornida paydo bo’lganidan tortib to inson shakliga kirib, unga jon ato etilguncha o’tadigan muddatda uni avval nutfa, so’ng laxta qon, keyin bir tishlam go’sht deb nomlanadi-yu, ammo uni hali inson deyilmaydi. Aniqki, har bir inson to onadan tavallud topgunicha mana shu savdolarni o’z boshidan o’tkazgandir [Qur’oni azim muxtasar tafsiri 2011, 899]. Demak har ikki holatda insonning Yaratuvchi tomonidan yo’qdan bor qilingani haqiqiy maqtovga munosib ne’mat bo’lib, banda buni unutgan soati halokatga yuz burishi aniq.

Keyingi jumla shunday boshlanadi:

و جواهر منظومة كيم خرد صيرفي سی بصارة اينه کی نی کوزيغه قويوب اخلاص
نقودين آليغه توكوب نعت و دعاء باز اريدين ايليک که كيورگای اول رسول بابينه بوله آلورکيم
أنا مدينة العلم و علی بابها انينگ حديث معجز نظامی دين روايتء بوله آلور.

Javohiri manzuma – “tizilgan gavharlar” birikmasi “Nazm ul-javohir” asariga ishora. Matnda kelgan “soyrafiiy” so’zi pul ayir-boshlovchisiga nisbatan qo’llanadi. “Xirad soyrofiysi” birikmasi “aql ayirboshlovchisi” ma’nosida bo’lib, majozan, mashg’uloti go’yo aqlar bilan shug’ullanish bo’lgan kasb egasi nazarda tutilyapti. Mana shunday aql egasi bashorat oynagini taqib, ixlos nuqadini oldiga to’kar ekan, na’t va duo bozoridagi boyliklarni qo’lga kiritadi. Bu

jumlada “basorat oynagi” va “ixlos nuqudi” birikmalariga e’tibor qaratamiz. Basorat – qalb nazari, qalb ko’zi; nuqud – naqd pullar (oltin-kumush). Moddiy ko’zlar to’siqdan u yog’ini ko’ra olmaydi, qalb ko’zi uchun esa to’siq yo’q, shuning uchun uning qadri baland. Qalb ko’zi ochiq inson bugun bor, ertaga yo’q oltin-kumushlarni emas, balki bebaho ne’mat – ixlosni boylik deb biladi. Bunday bebaho boylikka ega inson *na’t* va *duo* kabi bebaho mulkka xaridor bo’ladi. Na’t – Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalomning vasfi bo’lib, bu vasfda u zotning Olloh taolo tarafidan elchi ekaniga iqrar va guvohlik bor. Duo insonning bandaligining e’tirofidir. Bu darajani qozongan qalb egasi sharafiga noil. Keyin Payg’ambar alayhissalomdan: “Men ilm shahriman, Aliy uning eshigidir...” degan hadis keltiriladi.

“Nazm ul-javohir”ning manbalari

Alisher Navoiyning barcha asarlari kabi “Nazm ul-javohir”da ham bosh manba sifatida Qur’on oyatlari fikrni ifodalashda suyanch vazifasini o’taydi. Navbatdagi jumlalarda muallif Shams, Layl, Tavba, ar-Rohman suralaridan to’rtta oyat keltirib, kutilmaganda “Nazm ul-javohir”ning ma’naviy qiymatiga jununvash bir mastonalik bilan baho beradi, lekin shu ondayoq hushyor tortib, o’ziga keladi va bandaligining iqrori sifatida o’z shaxsini shunday tasdiqlaydi:

أما بعد. بو صحیفه که "و الشمس و ضحاها" کافوری صفحه سیدن یاروقراق کیلدی،
واللیل اذا یغشی" مشکى بیله نکته طراز قیلغوچی بو حدیقه کیم "جنات تجرى من تحتها
الانهار" دین آچوغراق کوروندی و "فاکهة و نخل و رمان" بیله سحرپردازلیق کورگوزوچی،
یوق یوقکیم، اول صحیفه نکته آرای لرینک گدایی و بو حدیقه چمن پرای لرینک دریوزه نمای
فقیر حقیر یعنی نوایی ستر الله عیوبه.

Matndagi arabcha “أما بعد” ifodasi – *bundan so’ng aytadigan so’zim...* ma’nosidadir. Keyingi “بو صحیفه” – *bu sahifa* so’zlari orqali muallif “Nazm ul-javohir”ni nazarda tutyapti. Demak, “Nazm ul-javohir” “Quyosh va uning yog’dusiga qasam” deb boshlanuvchi Ash-Shams surasining oppoq sahifasidan ham yorug’roq, bu asar “(Borliqni o’z zulmati bilan) o’rab kelayotgan kechaga qasam” deb boshlanuvchi Al-Layl surasining mushkin ifori bilan hikmatlar sochuvchi shunday bog’chaki, u Tavba surasining “ostlaridan daryolar oqib turuvchi jannatlari bor” oyatidan ochug’roq, Rahmon surasining “meva, xurmo va anorlari bordir” oyati bilan sehrlovchidir, deb Navoiy shu o’rinda o’z asariga baho berish orqali o’ziga e’tibor qaratishdan taqa-taq to’xtaydi va “yo’q-yo’q...” deya go’yo yuqorida aytganlaridan tonadi, balki diqqatni muhimroq nuqtaga buradi: *ul sahifa nuktaoroylarining gadoyi*, ya’ni “Nazm ul-

javohir”dagi ma’noga oro beruvchi manbalar – Qur’oni karim oyatlari va Payg’ambar alayhissalom hadislarining gadoyi, bu bog’cha chamaniga zeb beruvchilarning eshigidagi tilanchisi bo’lmish faqiri haqir Navoiydir, Olloh uning gunohlarini yopsin – kechirsin”.

Navbatdagi matn bo’lagida inson zotining barcha mavjudotdan mukarram yaratilgani Al-Isro surasining 70-oyati va At-Tin surasining 4-oyati bilan dalillanib, buning sababi sifatida insonning nutq bilan sharaflangani ta’kidlanadi va shunday ruboiy keltiriladi:

*So’zdurki nishon berur o’lukka jondin,
So’zdurki berur jong’a xabar jonondin.
Insonni so’z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhare sharifroq yo’q andin.*

Navoiyning mumtoz adib ekanini tasdiqlovchi dalillardan biri u zotning asarlari mutolaasiga sho’ng’igan muxlis kitobdan kitobga, mavzudan mavzuga o’tar ekan, hayrati oshib boradi, so’z qudratidan quvvati toshadi. Insonga ato etilgan so’z ne’matidan hayratlanish, so’z qudratidan ta’sirlanish chegaralarining bu qadar kengayishining siri nimada?! Balki buning siri yana o’sha bosh manbalarga borib taqalar... Navoiy so’zlari o’sha buloqdan suv ichgani uchun ham ilhombaxshdir, balki.

“Nazm ul-javohir”da so’zning darajalari bo’yicha daqiq bir ilmiy kuzatish taqdim qilingan. Tabiiyki, bu o’rinda ham muhim mavzuga kirish uchun ulug’ manbalardan rivoyat qilingan hikmatli so’zlar kalit vazifasini o’tagan: *كَلَّمَ النَّاسَ عَلَى قَدْرِ عَقُولِهِمْ* ya’ni: “Odamlarga aqlari ko’taradigan darajada gapiringlar”. Aliy roziyallohu anhudan rivoyat qilingan bu hikmat asosida Navoiy so’zlarni uch martabaga ajratadi:

1. A’lo – oliy. 2. Avsat – o’rta. 3. Adno – past.

Bu martabalar ham o’z navbatida bir necha qismlarni o’z ichiga olishi aytiladi: *“A’lo so’z bobida so’z ko’ptur va so’z yo’q degonning ham so’zi xo’bdurkim, vahiy kotiblari lavhayi vahiy osori uzra qalami mo’jiza nigor bila: فأتوا بسورة من مثله* (“Bas, shu Qur’onga o’xshash birgina sura keltiringlar-chi!” Yunus, 10-oyat) *salosi urupturlar va balog’at bobida yakqalamliq sadosin sipehr munshisidin oshurubturlar. Mundin so’ngra nubuvvat tilining osorikim: وما ينطق عن الهوى* (“Va u (Payg’ambar alayhissalom) o’z havoyi-xohishi bilan so’zlamas”, An-Najm, 3-oyat) *oning sha’nidadur. Risolat lisonining guftorikim: ان هو الا وحى يوحى* (“U (Qur’on) faqat (Olloh tomonida Payg’ambarga) tushirilayotgan bir vahiydir”, An-Najm, 4-oyat) *oning bayonidakim, nazmda balog’at va nasrda fasohat*

ta'rifida: ... انّ من الشّعر لحكمة و انّ من البيان لسيحراً ("Albatta, she'rda hikmat, bayonda sehr bor", hadis, Ibn Abbos rivoyat qilgan) *taronasin buyuruptur va sehr demaykim, mo'jiza ko'rguzuptur...* [Navoiy kulliyoti 1-jild, 36].

So'z martabalari shu tarzda so'z egasining so'zga munosabati orqali bayon etiladi. Agar muxtasar aytilsa, ular shunday tarkiblangan:

Oliy so'z – Ollohning Kalomi; Payg'ambar alayhissalomning so'zlari; sahobalarning so'zlari.

Avsat so'z – balog'at va fasohat egalarining so'zlari. Ularning gapida darajalariga ko'ra san'at va badiiylik voqe bo'ladi.

Adno so'z – avomning gaplari. Ularning ba'zi so'zlarida ma'no bo'ladi, ba'zilarida bo'lmaydi. Ular yetuk ma'noli so'zlarni anglamaydilar, hatto o'zlarining ma'nisiz gapirayotganini ham bilmaydilar.

So'z haqidagi fikrlarini Navoiy shunday nihoyalaydi: *"So'z bog'i ajab gulistonedurkim, anda jonbaxsh atrliq ashjori mavzun va ruhparvar royihalik rayohini gunogun ko'p durur va lek foydasiz xasu xoshoki, balki zararliq xori haloki ham bordur"*.

Navbatdagi parchada bevosita "Nazm ul-javohir"ning yaratilishi bilan bog'liq tarix bayon etiladi:

كوپرک اوقاتيم كلام الله اشتغالى و انينگ تفاسر و قيل و قالى بيله اوتر ايردى تا احادث درياسىغه غوص قىلور ايردم و اندين گرانمايه گوهرلر قولغه كيورور ايردم تا حضرت امير سوزلرى روضه لارى تاماشه سيغه قدم قويار ايردم و هر روضه ده حور عين گامثال اللؤلؤ المكنون وصال لاريدين بهره تاپار ايردم بتخصيص نثر اللعالى كيم اول حضرت نك ولايت درياسيدىن چيقتان ثمين لؤلؤلردر...

Bu parchada Alisher Navoiy ko'p vaqti oyat va hadis tafakkuri bilan mashg'ul kunlardan birida Hazrati amir, ya'ni Aliy roziyallohu anhu hikmatlari bog'chasiga kirib qolgani (*Hazrati amir so'zlari ravzalari tamoshosig'a qadam qo'yar erdim...*), bu hikmatlarning Qur'oni karimdan quvvat olganini Voqea surasining 23-oyati bilan dalillab, o'zi ham undan bahra topganini aytadi. Shuningdek, valiy va karomatli zot hazrati Aliy roziyallohu anhunging bu hikmatlari "Nasrul laoliy" deb nomlanishidan ham xabar beradi.

Endi "Nazm ul-javohir"ning yuzaga kelishidagi manbalar silsilasini shunday bog'liqlikda tartiblashimiz mumkin:

Qur'oni karim *oyatlari* → hadisi shariflar → amirul mo'minin Aliy roziyallohu anhu so'zlari (كلام امير المؤمنين على رضى الله عنه) → Amr ibn Bahrul Johiz (vafoti 868 milodiy) hikmatlardan tanlagan saylanmasi → Sharif ar-Roziy (X asr) hikmatlarni to'plab, "Nahjul balog'a" nomi bilan yaxlit holga keltirgan (498 hikmat) → Rashiddin

Vatvot al-Johiz hikmatlarni fors tilidagi sharhi bilan “Nasrul laoliy” yoki “Sad kalima” nomi ostida yangi to‘plam yaratgan → Alisher Navoiy “Nasrul laoliy” tarkibidagi 268 hikmatni turkiy tilda ruboiy shakliga solib, nazmiy sharhlagan va unga “Nazm ul-javohir” deb nom bergan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Sharq adiblari tomonidan yaratilgan ko‘plab asarlar diniy manbalar ta’sirida yuzaga kelgan. Bu holat adabiy manbashunoslikni albatta ulkan Sharq adabiyoti kontekstida, islom adabiyoti negizida o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi. Jumladan, Alisher Navoiyning ruboiy janridagi hikmatlar shodasi – “Nazm ul-javohir”ning yaratilishida manba birlamchi ahamiyat kasb etgan. bu haqida buyuk adibning o‘zlari qayd etganlar. Yuqorida asarning yaratilish tarixi haqida atroflicha ma’lumot berildi. “Nazm ul-javohir” asarining yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan manbalar yuqorida qoraytirib ko‘rsatildi va muayyan darajada manbalarining ta’sirlar zanjiri tiklandi. “Nazm ul-javohir”ning bu silsiladagi maqomini belgilash va manbalar orasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlash alohida tadqiqot mavzusidir.

Adabiyotlar

- Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад Насафий. 2006. *Ақоидун насафий*. Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси.
- Алоуддин ас-Самарқандий. *Шарҳ таъвилот ал-Қуръон*. ЎЗР ФА ШИ. №3249. Қўлёзма.
- Алишер Навоий. 2011. *Назм ул-жавоҳир*. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 10 ж. 31 – 88. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo‘lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.
- Жалолиддин Хоразмий. *Ал Кифоя фи шарҳи л Ҳидоя*. ЎЗР ФА ШИ Асосий фонди. Қўлёзма. №5246.
- Жалолиддин Хоразмий. *Ал Кифоя фи шарҳи л Ҳидоя*. ЎЗР ФА ШИ Асосий фонди. Қўлёзма. №9408.
- Комилов, Н. 1987. *Бу қадимий санъат*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Мадраимов, А., Фузаилова, Г. 2007. *Манбашунослик*. Тошкент: Фан.
- Лихачев, Д. С. 1964. *Текстология. Краткий очерк*. М.-Л.: Наука.
- Шайх Алоуддин Мансур. 2011. *Қуръони Азим тафсири*. 1-жилд. Ўш.
- Ҳабибуллаев, А. 2000. *Адабий манбашунослик ва матншунослик*. Тошкент: Тошкент Давлат Шарқшунослик институти.

Problems of literary source studies

Rashid Zohidov¹

Abstract

Eastern source studies developed primarily through the processes of interpreting and commenting on religious texts. Classical literature, nourished by the Qur'an and the Hadith, likewise relied heavily on authoritative sources. These interpretations and commentaries were gradually transferred into the content of literary works, contributing to the depth and layered meanings of literary texts. As a result, the need arose to consult original sources in order to adequately explain and interpret such works for readers. Consequently, commentaries began to be written on literary texts with profound implicit meanings, and diverse interpretations emerged.

The earliest manifestations of hermeneutics, which is widely employed in contemporary literary methodology, also developed within Eastern literature in close connection with the tradition of commentary (sharh) as a scholarly discipline. In this sense, examining literary source studies in relation to religious source studies is logically and methodologically justified.

This article explores the relationship between literary source studies and religious concepts, belief systems, as well as the sciences of commentary and exegesis.

Key words: *Eastern source studies, exegesis, commentary tradition, Renaissance, aesthetic element, form, construction.*

References

- Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. 2006. *Aqoidun nasafiy*. Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.
- Alouddin as-Samarqandiy. *Sharh ta'vilot al-Qur'on*. O'zR FA ShI. №3249. Qo'lyozma.
- Alisher Navoiy. 2011. *Nazm ul-javohir*. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10 j. 31 – 88. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.

¹Rashid F. Zohidov – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent state university of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: rzohid1@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6521-5219

For citation: Rashidov, Z. F. 2025. "Problems of literary source studies". *Golden Scripts* 2: 4 – 16.

- Alisher Navoiy. *Kulliyot*. Qo'lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.
- Jaloliddin Xorazmiy. *Al Kifoya fi sharhi l Hidoya*. O'zR FA ShI Asosiy fondi. Qo'lyozma. №5246.
- Jaloliddin Xorazmiy. *Al Kifoya fi sharhi l Hidoya*. O'zR FA ShI Asosiy fondi. Qo'lyozma. №9408.
- Komilov, N. 1987. *Bu qadimiy san'at*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Madraimov, A., Fuzailova, G. 2007. *Manbashunoslik*. Toshkent: Fan.
- Lixachev, D. S. 1964. *Tekstologiya*. Kratkiy ocherk. M.-L.: Nauka.
- Shayx Alouddin Mansur. 2011. *Qur'oni Azim tafsiri*. 1-jild. O'sh.
- Habibullaev, A. 2000. *Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik*. Toshkent: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti.

Matn va nashr muammolari (Nodira “Devon”i misolida)

Ma’rifat Rajabova¹

Abstrakt

Maqolada o‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Qo‘qon adabiy muhitida muhim o‘rin tutgan shoira Nodira devonining nashr etilishi jarayoni, nashrdagi muammolar va tahririy tafovutlar o‘rganilgan. Nodira devonining 1958, 1963, 1979 va 2001-yillardagi nashrlari o‘rtasidagi matniy tafovutlar aniqlanib, ularning she’riy obraz, lirik holat hamda mazmun-mohiyatga ta’siri masalalari tahliliy o‘rganilgan. Ayniqsa, “so‘z almashishi”, “bayt tushib qolishi” yoki “bir harf o‘zgarishi” kabi kichik ko‘rinadigan o‘zgarishlar g‘azal badiiy kuchini zaiflashtirishi, mazmunni buzishi va matn mazmun-mohiyatining o‘zgarishiga olib kelishi mumkinligi tahlillar jarayonida ochib berilgan.

Maqolada amalga oshirilgan har bir nashrning tarixiy-ilmiy ahamiyati e’tirof etilgan holda matn asliyati saqlash va adabiy merosni asl holida kelajak avlodga yetkazish zarurligiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *devon, an’ana, g‘azal, nashr, matn, matnshunoslik, so‘z, harf, ma’no.*

Kirish

Mumtoz adabiy merosimiz ajdodlar aql-zakovati, ijodiy tafakkuri va madaniy salohiyatining mahsuli sifatida yuksak tarixiy-estetik qimmatga ega. Mumtoz asarlarni nafaqat asrab-avaylash, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini bugungi yosh avlodlarga yetkazish muhim vazifalardan hisoblanadi. Biroq mumtoz adabiyot namunalarini ilmiy asosda nashr etish amaliyotida bugun bir qancha jiddiy muammolar mavjud va ular soha oldida to‘xtovsiz ilmiy-amaliy yechimlarini qo‘ymoqda.

Mumtoz adabiyotni nashr qilish borasida so‘nggi yillari ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, bu sohadagi muammolar hamon dolzarb masalalar qatorida turibdi. Fikrimizni

¹ Rajabova Ma’rifat Baqoyevna – filologiya fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti.

E-mail: marifat.bakaeva@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-40025424

Iqtibos uchun: Rajabova, M. B. 2025. “Matn va nashr muammolari (Nodira “Devon”i misolida)”. *Oltin bitiglar* 2: 17 – 34.

Nodira devoniga oid nashrlar xususidagi kuzatuvlarimiz orqali asoslamochimiz. Shoiradan bizgacha boy ma'naviy meros qoldi. Mutaxassislarning etiroficha, bugungi kunda Nodiraning o'zbek va fors-tojik tillarida bitilgan o'n ming misraga yaqin lirik merosiga egamiz.

Nodira lirik merosi nashrlari

Nodiraning lirik merosiga doir turli yo'nalishlarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, shoira devonlarining nashr etilishi mustaqillik yillariga qadar va undan keyin ham davom etdi. Xususan, 1958-yili A. Qayumov tomonidan "Nodira. She'rlar" nomli to'plami nashr etildi. Bu to'plam shoira ijodiy merosini to'liq ilmiy to'plashga yo'naltirilgan ilk qadamlardan biri bo'lgan edi. 1968-yili Mahbuba Qodirova tomonidan "Nodira. Asarlar"ining I-II jildlik nashrlari amalga oshirildi. Mazkur nashrlar shoira ijodiy merosini keng qamrovda o'rganish va uning lirik merosini zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qayta baholash imkonini berdi. Shuningdek, 1979-yili "Sharq klassik merosidan" rukni ostida "Nodira she'riyatidan", 2001 va 2004-yillarda "Nodira – Komila" nomli nashrlari tayyorlanib, shoiraning faqat o'zbekcha emas, forsiy tildagi merosi ham keng jamoatchilikka tanishtirildi. Albatta, bu nashrlarning dunyo yuzini ko'rishi katta mehnat natijasi bo'lib, matnshunos olimlarimizdan fidoyilikni talab qiladi.

Ta'kidlash joizki, mumtoz adabiyot namunalarining qayta-qayta nashr etilishi milliy-ma'naviy merosimizning yanada keng ommaga tarqalishi va yangi avlodga yetkazilishi nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Nodira devonlariga oid mavjud nashrlarning deyarli barchasida juz'iy tafovutlar ko'zga tashlanadi. Nodira devonlari ustida olib borilgan kuzatuvlarimiz shunday xulosaga kelishga asos bo'ldi. Albatta, matnshunoslarning bu boradagi mehnatlarini e'tirof etgan holda, nashrlardagi ba'zi tafovutli o'rinlarni tahlilga tortmoqchimiz. Bu tafovutli o'zgarishlar harf va so'z almashini kabi ko'rinishlarda ko'zga tashlanadiki, ular matn mazmuniga ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatadi. *"Bizningcha, matnshunoslikda "kichik xatolarni izlash" mayda ishga kirmaydi, aksincha, kuchimiz, tajribamiz ana shu "kichik xatolar"ni topishda ko'rinadi. Matn haqiqatini tiklashda, mumtoz adabiyotimiz namunalarini nashr etishda har bir belgi, harf, so'z mutaxassisning ziyrak nazaridan o'tsagina "ulkan ish"ning muvaffaqiyatini ta'minlash imkoni tug'iladi"*

[Nodira she'riyatidan, 1979].

Nodira devonining har bir nashrida ma'lum bir tahririy o'zgarishlar va matniy tafovutlar kuzatiladi. Jumladan, 1958, 1963, 1979 va 2001-yillardagi nashrlar o'rtasidagi ayrim matniy tafovutlar tahlil qilinganda, ularda nafaqat imlo, balki baytlarning tushib qoldirilishi kabi holatlar kuzatiladi. Mazkur nashrlardagi eng ko'p ko'zga tashlanadigan tafovut "so'zlar o'zgarishi"da kuzatiladi. Jumladan, 1963-yildagi nashrda 21-raqam ostida berilgan "Gulg'a desam yo'q kafi poyingga tob" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal shoira devonining 1979-yildagi nashri bilan qiyoslanganda, ular o'rtasidagi matniy tafovut so'z almashinishi oqibatida sodir bo'lgan.

1963-yildagi nashrda g'azalning to'rtinchi bayti:

*Turfa savole labidin so'rdi **yor**,*

Jon berayin bo'lmasa shirin javob [Nodira 1963, 77].

1958-yildagi nashrda:

*Turfa savole labidin so'rdi **yod**,*

Jon berayin bo'lmasa shirin javob – tarzida berilgan [Nodira 1958, 10].

Bu ikki nashrda farq *yor* va *yod* so'zlari o'rtasida. Lekin bunday farq mazmun va badiiy ta'sir nuqtani nazaridan jiddiy ahamiyat kasb etadi. Tahlil etilayotgan baytda lirik qahramon – oshiq mahbuba (*yor*) tomonidan berilayotgan "turfa savol"ga javob umidida uning shirin lablariga "jon berish"ga tayyor ekani badiiy ifodada aks ettirilgan. Baytning ikkinchi misrasida esa, agar bu savolga shirin javob bo'lmasa, oshiq o'z jonini fido etishga tayyorligi qayd etiladi. Shunday mazmuniy uzviylikda "*yor*" so'zining qo'llanilishi tabiiy va maqsadli. U she'rning markaziy obrazi bo'lgan seviklini aniq belgilaydi, baytdagi dramatik holatni, hissiy kuchni va tuyg'ularning murakkab tabiatiga xizmat qiladi. Aksincha, "*yod*" so'zi bilan misra badiiy kuchini yo'qotadi. "Xotira", "eslash" kabi ma'nolar lirik personajning iztirobini ko'rsata olmaydi, aksincha, ta'sirni xiralashtiradi.

Mazkur g'azalning yettinchi bayti shoira devoning 1958-yilda nashr qilingan "Nodira. She'rlar" to'plamida:

*Moyili zulm etma ko'zing **tarkini**,*

Yo'qsa qilur mardum uyini xarob [Nodira 1958, 24].

Mazkur bayt 1979-yildagi nashrda "turkini" tarzida berilgan.

*Moyili zulm etma ko'zing **turkini**,*

Yo'qsa qilur mardum uyini xarob [Nodira she'riyatidan

1979, 16].

Mumtoz g'azaliyotda ma'shuqa ko'zi turli tashbehlar bilan tasvirlanadi. Oshiq ma'shuqa ko'zlarining zulmkorligidan zorlanadi, undan muruvvat kutadi. Bu a'anaviy tasvirdan foydalanmagan ijodkorlar bo'lmasa kerak. Yuqorida keltirilgan baytda ham ma'shuqa ko'ziga oid tasvir keltirilgan.

Ko'rsatilgan ikki nashrdagi matnda *tark* va *turk* so'zlari farqlangan. "Navoiy asarlari lug'ati"da **"tark"** so'zi "tashlash, voz kechish"; "qaramay qo'yish, tashlab yuborish" [Navoiy asarlar lug'ati 1972, 596], **"turk"** so'zi esa "sho'x go'zal, o'ynoqi sevgili" [Navoiy asarlar lug'ati 1972, 617] ma'nolarida kelishi ta'kidlangan. Bir qaraganda, ikkala so'z anglatgan ma'no ham baytning umumiy g'oyasiga "begona" emasdek taassurot uyg'otadi.

Ushbu baytda lirik qahramon sevgilisiga murojaat qilgan holda, uning "zulm"ni cheklashni so'raydi. Uning ta'biricha, mahbubaning ko'zi hamon insonlarni iztirobga solmoqda. Agar bu maftunkor va qahrli nazarlar to'xtatilmasa, bu ko'zlar "mardum uyini xarob" etishi mumkin. Bu nafaqat muhabbat tuyg'usining kuchini, balki uning halokatli oqibatlarini ham ko'rsatadi.

"Ko'zing tarki" birikmasi leksik jihatdan ko'zning *qarash yo'nalishini*, poetik jihatdan esa *sevgili nazarining ta'siri tushadigan hudud, nazari bilan yetgan joy* ma'nolarini anglatadi. Albatta, bunga birinchi misraning o'zida ishora bor. Baytdagi "moyil etma" birikmasi ma'shuqaning zulmkor ko'zlariga ishora qiladi. Bu ibora nafaqat tasviriy, balki simbolik mazmunga ham ega bo'lib, muhabbat va iztirobning yuksak badiiy ifodasi hisoblanadi. Shoiraning uning bu nazarini "zulm" deb atab, u orqali keladigan ta'sirdan ogohlantiradi.

"Sayd etti meni ul ikki qullob" deb boshlanuvchi g'azalining to'rtinchi bayti 1958-yilgi nashrida:

***Tirdoba** erur ko'zimning yoshi,
Oshiqni halok etar bu girdob* [Nodira 1958, 29].

Birinchi misradagi **"tirdoba"** so'zi 1979-yilgi nashrida **"girdob"** shaklida uchraydi [Nodira she'riyatidan 1979, 19].

***Girdob** erur ko'zimning yoshi,
Oshiqni halok etar bu girdob.*

Baytning nasriy bayoni: "Ko'zimning yoshi girdobdir, bu girdob oshiqni halok etadi". So'z tarkibidagi bir harfning almashishi so'zni "ma'nosiz" shaklga solib qo'ygan.

"Girdob" so'zi "suvdagi chuqurlik, quyun" [Navoiy asarlari

uchun qisqacha lugʻat 1993, 135] degan maʼnoni anglatadi. "Tirdoba" soʻzining izohini esa mavjud lugʻatlarda uratmadik.

Nashrlardagi tafovut **"tirdoba"** va **"girdob"** soʻzlari oʻrtasidadir. Ushbu oʻzgarish "kichik" boʻlishiga qaramay, badiiy vositalarining mazmuniga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatadi.

Lirik qahramon (oshiq)ning koʻz yoshi shunchalik koʻp va shiddatliki, u oddiy suv emas, balki halokatga yetaklovchi bir **girdob**dir. Bu girdobda oshiq qalb azobi, ishq iztirobi bilan halok boʻlmoqda. Baytdagi kuchli metafora – koʻz yoshining "girdob" sifatida tasvirlanishi ishq iztirobining kuchliligi va ogʻirligiga ishora qiladi.

Eʼtibor bersak, baytdagi birgina harf bilan bogʻliq oʻzgarish shoir baytda qoʻllagan takror bilan bogʻliq sanʼatning ham yoʻqqa chiqishiga sabab boʻlmoqda. "Girdob" soʻzi baytda ikki oʻrinda qoʻllangan boʻlib, takrorga asoslangan radd ul-sadr ilal-ajuz (sadrning ajuzda takrorlanishi)ni hosil qilgan.

Nodira gʻazallari matnidagi bunday tafovutni "Ey, xusho, shisha aro" mirasi bilan boshlanuvchi gʻazalida ham kuzatish mumkin.

Gʻazalning birinchi bayti 1958-yilgi nashrda shunday berilgan:

Ey, xusho shisha aro obi hayoti hukamo,

*Kim aning har kishi **aytsa** boʻlur Xizrnamo* [Nodira 1958, 16.].

Mazkur bayt 1979-yilgi nashrda "aytsa" jumlasini oʻrnida "noʻsh etsa" tarzida berilgan.

Ey, xusho shisha aro obi hayoti hukamo,

*Kim aning har kishi **noʻsh etsa** boʻlur Xizrnamo* [Nodira sheʼriyatidan 1979, 10].

"Noʻsh etmoq" soʻzining maʼnosi "ichmoq"dir [Alisher Navoiy asarlarining izohli lugʻati (II) 1983, 644]. Baytning nasriy bayoni: "Ey xush (yaxshi) insonlar, shisha qadahda hakimlarning obi hayoti (hikmat) bor, kim uni ichsa (noʻsh etsa) Xizr kabi boʻladi".

Baytda Xizr (a.s) hamda "obi hayot" bilan bogʻliq voqealarga ishora qilingan. Demak, mazmundan anglashiladiki, bayt "aytmoq" jumlasini emas balki, "noʻsh etmoq" birikmasining maʼnosini koʻtaradi. Shunday qilinganda, gʻazal vaznida ham saktalik boʻlmaydi.

Nodiraning "Yor laʼlin yod etarmen" deb boshlanuvchi gʻazali nashrida ham tavvofutli oʻrinlar kuzatiladi. Gʻazalning toʻrtinchi bayti 1958-yilgi nashrda:

*Sovrulurman hajr vodiysi aro, Majnun **kibi**,*

Xizr qilg'ondek vatan sarchashmayi hayvon ko'rub

[Nodira 1958, 26].

Mazkur bayt 1963-yilgi nashrda:

*Sovrulurman hajr vodiysi aro, Majnun **meni**,*

Xizr qilg'ondek vatan sarchashmayi hayvon ko'rub, – tarzida berilgan [Nodira 1963, 79]. Ushbu baytning nasriy bayoniga e'tibor qaratsak: "Xizr o'ziga tiriklikni abadiy vatan qilgani kabi men ham ayriliq vodiysida Majnundek sovrulaman". Nashrda "kabi" o'xshatish vositasi "meni" so'zi bilan almashgan, bu esa bayt ma'nosiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Mumtoz matnlardagi nafaqat so'z, hatto bir harfning almashinishi ham uni ma'nodan uzoqlashtiradi, muallif aytmoqchi bo'lgan fikrdan kitobxonni chalg'itadi. Bunday "juz'iy" nuqsonlar Nodira devonlari nashrida anchagina.

Jumladan, shoiraning "Bahor keldi" deya boshlanuvchi g'azalning yettinchi bayti 1958-yilgi nashrda:

*Yuzing nazorasi **o'shshoql**arni firdavsi,*

Harimi dargohing ahboba jannat-ul-ma'vo, – tarzida berilgan [Nodira 1958, 11]. Mazkur bayt 1963-yilgi nashrda quyidagicha berilgan:

*Yuzing nazorasi **ushshoql**arni firdavsi,*

Harimi dargohing ahboba jannat-ul-ma'vo [Nodira 1963, 57].

"Ushshoq" – arabcha "oshiq" so'zining ko'pligi bo'lib, "**oshiqlar**" – ya'ni "ishqqa berilganlar" ma'nosini anglatadi. "O'shshoq"ning esa lug'atlardagi izohi mavjud emas.

Dastlabki baytda mahbubaning yuzi oshiqlar uchun firdavs, ikkinchi misrada esa uning dargohi – ya'ni huzuri ishq ahli (ahbob) uchun jannat-ul-ma'vo sifatida talqin etilgan.

Nodiraning "Beray jon visol ichra" degan misralar bilan boshlanuvchi g'azalida ham so'z tarkibidagi harf (**x-j**) almashinini sodir bo'lgan.

Mazkur g'azal 1958-yildagi nashrda:

*Qading misrayi sho'x-u **barxastadur**,*

Bo'lib husn devonidin muntaxab, [Nodira 1958, 27] – tarzda berilgan bo'lsa, 1963-yilgi nashrda g'azalning to'rtinchi bayti quyidagi shaklda berilgan:

*Qading misrayi sho'x-u **barjastadur**,*

Bo'lib husn devonidin muntaxab [Nodira 1963, 30].

Baytdagi **"barjasta"** soʻziga "Navoiy asarlari lugʻat"ida "boʻrtib turgan, koʻzga koʻrinarli" deb izohlanadi. Baytda maʼshuqa qaddi shoir devonidagi "koʻzga koʻringan va ajratib olingan" misraga oʻxshatilyapti. Bu oʻrinda "barjasta" maʼnosini ifodalovchi soʻzni tanlagan maʼqul.

Eʼtibor bersak, baytda shoira goʻzallikni tasvirlashda klassik adabiyotda keng qoʻllaniladigan "husn devoni" tushunchasidan foydalangan. Bu goʻzallikning ramziy majmuasidir. Mahbubning qad-qomati aynan shu majmua ichidagi eng sara namuna – "muntaxab" (saylab, tanlab olingan) misradir.

"May ichsang, ey koʻngul, eldin nihon ich" misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalda ham shunday nuqson koʻzga tashlanadi.

1963-yilgi nashrda:

Budur mazmuni mavji bodayi nob

*Ki sahbo pirni aylar **juvon**, ich* [Nodira 1963, 123].

1979-yilgi nashrda:

Budur mazmuni mavji bodayi nob

*Ki sahbo pirni aylar **javon**, ich*

[Nodira sheʼriyatidan 1979, 42].

Ushbu baytlarni matniy tadqiq etish uchun har ikki nashrdagi **"juvon"** va **"javon"** soʻzlarining maʼnosiga eʼtibor qaratamiz. "Javon" soʻzi "yosh, yangi, zoʻr" maʼnolarini anglatadi [Alisher Navoiy asarlarining izohli lugʻati (I)1983, 552]. **"Juvon"** – "yosh yigit, yigitcha" maʼnosini anglatadi [Navoiy asarlar lugʻati 1972, 234]. Ikkala soʻzning ham lugʻaviy maʼnosi bayt maʼnosiga uygʻun. Biroq ularni qay birini qoʻllash maʼqul? Bu savolga faqat vaznni aniqlash orqali javob berish mumkin. Gʻazal hazaji murabbayi mahzuf (V – – –/ V – – –/ V – –) vaznida bitilgan. Bu esa baytda "juvon" soʻzini emas, "javon" soʻzini talab qiladi.

Baytdagi "bodayi nob" – maʼrifiy nur yoki ilohiy ishqning ramzidir. U qalbni poklaydi, ruhni yashartirdi, hatto pirni ham "javon" qiladi. Baytda "pirni javon qilish" ham ramziy maʼnoda – maʼrifiy ilhom (yaʼni, "bodai nob") insonni ruhan yangilaydi, qalban yashartiradi, hatto ruhan qarimasligini bildiradi.

Nodiraning mashhur "Nigori gulbadanimni tushumda koʻrsam edim" misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalining oltinchi bayti 1963-yilgi nashrda:

*Jafoyi hajr bila koʻksumi **nigor** qilay,*

Nigohi sehr fanima tushumda koʻrsam edim [Nodira 1963,

173].

1979-yilgi nashrda:

*Jafoyi hajr bila ko'ksumi **figor** qilay,
Nigohi sehrfanima tushumda ko'rsam edim* [Nodira 1968, 63].

“Nigor” – klassik adabiyotda *mahbub, dilbar, sevikli* ma'nosini anglatadi. Bu so'z ko'pincha lirik qahramonning ma'shuqasini ifodalash uchun qo'llaniladi. “**Figor**” – “jarohatli, yarali”, “nigor” so'zi esa “ma'shuqa” ma'nosini ifodalaydi [Navoiy asarlar lug'ati 1972, 638]. Birinchi misrada lirik qahramon – oshiqning ko'ksi jafoyi hajr bilan jarohatli ekanligi tasvirlangan. Ko'rinadiki, “nigor” so'zi shoir muddaosiga bo'ysunmaydi.

“Figor” – dard va azob bilan faryod chekuvchi shaxsni ifodalab, hajr azobidan iztirob chekish holatini mukammal tasvirlaydi. Shu bois, “figor” so'zi mazmun va badiiy yo'nalishi jihatidan to'g'riroq, lirik qahramonning ruhiy holatini teran ifoda etadi.

Nodirabegimning “Gar ahli vafo istasa koshona salomat” deb boshlanuvchi g'azalining ikkinchi bayti 1958-yilgi nashrda:

*Ul husn **shifoyida** ko'ngul kuysa ajabmas,
Qolg'aymu charog' o'tida parvona salomat* [Nodira 1958, 37].

1963-yilgi nashrda:

*Ul husn **shuoiyda** ko'ngul kuysa ajabmas,
Qolg'aymu charog' o'tida parvona salomat* [Nodira 1963, 90].

Mazkur baytlardagi “**shuoiy**” va “**shifoyi**” so'zlarining nashrlarda farqlanganligini ko'rish mumkin. “Shifo” so'zi “*shifo topmoq, tuzalmoq*” ma'nosini bildirsa, “shuoiy” [Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati (III) 1983, 528] so'zi esa “*shu'la, nurlar*” ma'nosini ifoda etadi.

Baytning nasriy bayoni: “Ul husn shu'lasida ko'ngul kuysa ajabmas, axir parvona chirog' o'tidan sog' qoladimi? Ko'rinib turibdiki, ikkinchi misradagi “charog'”, “parvona”, “o't” kabi so'zlar ham shuoiy (“*shu'la, nur*”) so'zning mantig'i uchun xizmat qilgan.

Mohlaroyimning “Hajrdan mamurmen” deb boshlanuvchi g'azalining matla'si 1958-yilgi nashrda:

*Hajrdin maxmurmen soqiy labo-lab jom tut,
Men kabi har kimki bo'lsa rindi **dard** oshom tut*

[Nodira 1958, 42].

1963-yilgi nashrda:

*Hajrdin mamurmen soqiy labo-lab jom tut,
Men kabi har kimki bo'lsa rindi **durd** oshom tut*

[Nodira 1963, 92].

Mazkur baytlardagi "dard va durd" so'zlari o'zaro farqlanadi. "Dard" so'zi "kasallik, xastalik, og'riq"ni bildirsa "durd" so'zi esa "biror narsaning quyqasi, mayning qoldig'i" degan ma'noni bildiradi.

Dastlabki misrada seviklisidan ayrilgan lirik qahramonning ruhiy mastlik holati tasvirlangan. Bu "maxmurlik" oddiy mastlik emas, balki ishqning qalbga singib, aqlni mahv etuvchi shaklidir. Shu sababdan, u soqiydan ma'naviy tasalli manbayi sifatida to'lib-toshgan jom so'raydi. Bu jom – shunchaki lazzat vositasi emas, balki qalbni tetiklashtiruvchi ma'rifiy bir ramz sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi misrada lirik qahramon o'zini rind deb tan oladi. "Rind", bu – qalban ozod, zohiriy qoidalardan ustun, ma'rifat va ishq yo'lini tutgan betashvish va ruhiy jasur inson timsolidir. Lirik qahramon rindlikni – botinan ozodlik sifatida qabul qiladi. Bunday oshiqqlar sharobning tubida qolgan durdini ham mamnuniyat bilan ichadilar. Tasavvuf adabiyotida durd – dunyoviy qiyinchiliklar, ishq azobi va sinovlarining ramzi sifatida talqin qilinadi. Demak, haqiqiy rind – hayotning faqat lazzatli va go'zal tomonlarini emas, og'riqli, achchiq sinovlarini ham qabul qiladi. Chunki ular uchun hayotning achchiq haqiqatlari ham ma'naviy kamolotga yo'ldir.

"Ey jamoling" deya boshlanuvchi g'azalida ham tahlilga tortiluvchi o'rinlar mavjud. 1958-yilgi nashrning ikkinchi bayti:

*Bo'lma mag'rur muddayi so'zina,
Ani qavli **sahimdur**, na sahih* [Nodira 1958, 64].

1963-yilgi nashrda esa:

*Bo'lma mag'rur muddayi so'zina,
Ani qavli **saqimdur**, na sahih* [Nodira 1963, 124].

Bu o'rindagi asosiy farq "sahim" va "saqim" so'zlari o'rtasida ko'rinadi. Ushbu so'zlar arab tili qatlamiga tegishli bo'lib, har ikkisida turli ma'nolar mujassam. Saqim – arabchada "kasal", "nuqsonli", "aybli" ma'nolarini bildiradi.

Baytda pand-nasihat ruhi ustivor. Shoir baytda insonlarni asossiz da'vo qilishdan qaytarmoqda. Baytda o'zini haq deb ko'rsatadigan, lekin aslida gapi yolg'on va dalilsiz (muddayi) bo'lgan shaxs timsoli keltirilgan. Shoiraning ta'kidiga ko'ra, bunday shaxsning so'zlari dalilsiz va zaif ("saqim"), ya'ni ilm yo ma'rifatga

emas, nafsga asoslangan. Unda sahiliik – haqiqatga moslik yo'q. Shu orqali muallif haqiqiy ma'naviyat va ilmni da'vo bilan emas, fe'l-atvor va amal orqali namoyon etish kerakligini uqtiradi.

Nodiraning o'zbek va tojik tillaridagi she'rlari nashrlari

Nodira devoni 2001-yili ham nashr qilindi. Mazkur nashr ham Mahbuba Qodirova tomonidan tayyorlangan. Mazkur nashrga Nodiraning o'zbek va tojik tillaridagi she'rlari kiritilgan. Bu nashrda ham muayyan matniy tafovutlarni kuzatish mumkin. Jumladan, shoiraning "Chaman riyozida gulgashni margzor qilib" misrali g'azalining to'rtinchi bayti 2001-yilgi nashrda:

Qilurman ishq-u junun karvonig'a imdod,

*Sirishk **nofalarin** ashki shashqator qilib*, – tarzida berilgan [Nodira she'riyatidan 1979, 67].

Baytdagi "nafa" so'zi "mushk, mushkdon" ma'nosini ifoda etadi. Mazkur bayt 1968-yildagi nashrda esa quyidagicha berilgan:

Qilurman ishq-u junun karvonig'a imdod,

*Sirishk **noqalarin** ashki shashqator qilib* [Nodira 1958, 86].

Nafa – arab va fors manbalarida "mushkdon", ya'ni xushbo'ylik saqlanadigan kichik idish, deb izohlanadi. Ba'zan "mushk"ning o'zi ham "nafa" deb ataladi.

Noqa – tuya. Ramziy ma'noda ishq karvonidagi tuyalar. Shoir ishq va telbalik karvoniga ko'maklashgan oshiq ko'z yoshlarini noqaga qiyos qilgan. Ramziy ma'noda oshiqning ko'z yoshlari ishq karvonini birlashtiradi, ruhiy safardagi barcha oshiqlar ko'z yosh bilan bir-biriga bog'lanishadi. Bundan tashqari, baytdagi "karvon" so'zi matnda "noqa" so'zining qo'llanishini talab qiladi. Shunday qilinsa, shoir qo'llagan badiiy tasviriy vosita "ozor" topmaydi.

Mazkur baytda Nodira ishq va junun yo'lidagi fidoiylilik, ruhiy izzitirob hamda qalb tuyg'ularining ulug'vorligini tasvirlamoqda. Oshiq o'zini "ishq-u junun karvoni"ga yordam beruvchi sifatida ko'rsatadi. Bu yerda "karvon" so'zi ramziy ma'noda keltirilgan va u ishq yo'lidagi ruhiy safarni, dard va muhabbat yo'lidagi yurishni anglatadi. "Imdod qilurman" degan ibora lirik qahramonning bu yo'ldagilarga hamdard ekani, hatto ularning yukini yengillashtirishga tayyor ekanini anglatadi.

Ko'rinib turibdiki, Nodira ishqni ruhiy yetuklik, ma'rifiy poklanish yo'li deb tushuntirgan. Keltirilgan baytda ham ishq va junun bu yo'ldagi ma'naviy sayohat, "karvon" timsoli esa ana shu

ishq yo'lidagi safardoshlik, irshod va ma'naviy intilish ramzi sifatida keltirilgan.

Mohlaroyimning "Chaman riyozida gulgash marg'zor" deya boshlanuvchi g'azalining matla'si 1958-yilgi nashrda:

*Chaman riyozida gulgash **murg'zor** qilib,
Ko'ngulni sayd etar sarv qad shikor qilib* [Nodira 1958, 31],

1963-yildagi nashrda:

*Chaman riyozida gulgash **marg'zor** qilib,
Ko'ngulni sayd etar sarvqad shikor qilib*
[Nodira 1963, 87], tarzida berilgan.

Nodira ushbu baytda tabiat va ishq motivlarini uyg'unlikda badiiy ifoda qilgan. U tabiat go'zalligi orqali ishqning qalbdagi ta'sirini badiiy talqin etar ekan, inson tuyg'ularining noyob va nozik holatlarini ifodalaydi. Bayt nafaqat lirik tuyg'u, balki estetik taassurotlar va ishqning ruhoniyl qudratini ham aks ettiradi.

Dastlabki misrada shoir bog'ni nafaqat go'zal manzara, balki yuraklarning halovat topadigan maskani sifatida tasvirlaydi. Baytda "gulgash" va "marg'zor" tabiatning go'zalligi va gullar bilan bezatilgan chaman (bog') – ishq muhiti, tuyg'ular avj olgan, qalb uyg'oq bo'lgan joyning ramzi sifatida tasvirlanadi. Ikkinchi misrada esa ma'shuqa shikorchiga qiyos qilingan. U nafaqat ko'rinishi bilan go'zal, balki qalbni zabt etadigan kuchga ega shaxs sifatida ifodalanmoqda.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, bayt mazmuni "marg'zor" so'zi anglatgan ma'no bilan bog'liq. "Murg'zor" [Navoiy asarlar lug'ati 1972, 366] so'zi "qushzor, qushlar qo'nadigan joy" ma'nosini bildiradi. "Marg'zor" [Navoiy asarlar lug'ati 1972, 419] so'zi esa "o'tloq, ko'kalamzor, maysazor" ma'nosini anglatadi. Baytning nasriy bayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bayt mazmuniga ta'sir ko'rsatayotgan so'zni aniqlay olamiz: "Chaman bog'larida maysazorlarni bog' etib, sarvqadli jononim ko'nglimni ovlaydi."

Bu misrada "qushzor, qushlar to'planadigan joy" ma'nosi mazmunga to'g'ri kelmaydi. Ya'nikim, "murg'zor" so'zi bayt mazmunini aniqlashtirishga mone'lik qiladi.

Mohlaroyimning yana bir "Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat" radifli g'azalida ham matniy tafovutlarga duch keldik. Bu o'rinda shoira 1958-yili nashr qilingan "Nodira. She'rlar" devonida g'azalning ikkinchi bayti:

***Dudi** ohim shu'las husning daboristonida*

Misrayi barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit [Nodira 1958, 43].

1979-yilgi nashrda esa:

Maddi ohim shu'lası husning dabiristonida

Misrayi barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit [Nodira she'riyatidan 1979, 29], tarzida ifodalangan. **“Maddi”** so'zining ma'nosi “uzayish”, **“dudi”** so'zi esa “tutun, o'tli” ma'nosini ifoda etadi. Bayt mazmunini tahlil etsak: Ey sarvi ozodim, quloq sol, o'tli ohimning shu'lası qalbingda alohida saralangan, ko'zga ko'ringan misra kabidir. Demakki, “dud” so'zini qo'llash bayt mazmuni to'ldirilishiga xizmat qiladi.

Baytda ishq iztirobi go'zal, shoirona tasvirlangan. “Dudi oh” go'yo bir yorqin “shu'la” (nur). Bu shu'la “husning dabiristoni”da yorqin bir misra kabi muhrlangan.

“G'azab birla nigorim o'tdi yonimdin shitob aylab” misrasi bilan boshlanuvchi g'azali nashrida ham tavvofutli o'rinlar mavjud. Bu tafovut birgina harfning o'zgarishi orqali sodir bo'lgan.

1968-yilgi nashrda:

*Ko'ngul **shodob** erdi jur'ayi jomi visolidin,
Solib hijron o'tig'a ketti bag'rimni kabob aylab*

[Nodira 1968, 74].

2001-yilgi nashrda:

*Ko'ngul **shodon** erdi jur'ayi jomi visolidin,
Solib hijron o'tig'a ketti bag'rimni kabob aylab*

[Nodira 2001, 57].

1968-yilgi nashrdagi “shodob” so'zi esa, serob; qongan, to'ymoq (suvga); bahralanmoq, gullab-yashnamoq” ma'nosini anglatadi. “Shodon” so'zi “xursandchidik bilan, shodmon” ma'nolarini angatadi.

Baytda muhabbatning ikki qirrası: **visol** va **hijron** qarama-qarshi qo'yilgan. Mumtoz she'riyatda mazkur tushunchalar doimiy parallel tasvirlanadi. Boisi – ishq shodlik va azob, umid va iztirob o'rtasida kechadi. Shoir sevgidagi ikki holatni go'zal, metaforalarga boy va ta'sirli obrazlar orqali ifoda etgan.

Ko'ngil dastlab “*jur'ayi jomi visolidin*” shodmon edi, ammo taqdir uni hijron o'tg'a solib, kabobdek kuydirdi. Baytda nafaqat shaxsiy tuyg'ular, balki ishq falsafasining umuminsoniy mohiyati ham chuqur ifoda topgan.

Mohlaroyimning yana bir go'zal g'azallaridan biri “Jilva ko'rsatti chu ul sarvi dilorı bog' aro” misralari bilan boshlanadi.

Nashrlarda ushbu g'azalning ham bir o'rnidagi so'z almashinuvi bilan bog'liq tafovutlar mavjud. 1968-yilgi nashrda:

*Surmagun chashmi nazar soldi guliston ahlina,
Hasratidin qoldi nargis ko'zi shahlo bog' aro*

[Nodira 1968, 64].

2001-yilgi nashrda esa:

*Surmagun chashmi nazar soldi guliston ahlina,
Hasratidin qoldi nargislar **ko'zi vo** bog' aro* [Nodira 2001, 36].

Nashrlarda baytdagi "ko'zi shahlo" hamda "ko'zi vo" birikmalari farqlangan. "Vo" so'zi "ochiq" ma'nosini ifodalaydi [Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati (I) 1983, 374]. Baytning nasriy bayoni masalaga oydinlik kiritadi: "Yorim surmali ko'zi bilan guliston ahliga nazar soldi, uning hasratidin bog'dagi nargislarning ko'zlari ochiq qoldi". Demak, so'nggi nashrda bir so'z shaklida bo'lsa ham matndagi nuqson tuzatilgan.

Mohlaroyimning "O'tdi nashot fursati kelmadi yordin xabar" deb boshlanuvchi g'azalida ham bir necha farqli o'rinlar mavjud. 1963-yilgi nashrda:

*Garchi firoq dardidan bo'yla **nazor** o'lmisham,
Nodira holi zorina solmadi yor bir nazar* [Nodira 1963, 156]

2001-yilgi nashrda esa:

*Garchi firoq dardidin bo'yla **nizor** o'lmisham,
Komila holi zorima solmadi yor bir nazar* [Nodira 2001, 138].

Baytdagi "nazor" va "nizor" so'zlarida tafovut kuzatiladi. "Nazor" so'zi "nazar solmoq, qaramoq" [Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati (III) 1983, 424], "nizor" so'zi "ozg'in, zaif" [Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at 1993, 204] ma'nosida kelgan.

Baytning nasriy bayoni: Yorimdan ayriliqda holim zaif bo'ldi, ammo yorim shu holimgayam bir bora nazar qilmadi.

Demak, bu yerda "nazar qilmoq" so'zi emas, balki "nizor" so'zini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, mumtoz ijodkorlar so'zga juda e'tiborli bo'lganlar. Bayt doirasida bir so'zning takrorini san'at darajasida qo'llaganlar. Baytning 1963-yilgi nashrida "nazor" va "nazar" so'zlarini bir ma'nodagi so'z sifatida baholashimiz mumkin. Shuning uchun baytning 2001-yilgi nashrida mantiqiy izchillik ko'zga tashlanadi.

Baytlarning tushib qolishi, o'rin almashinishi holatlari

Mumtoz qo'lyozmalarda baytlarning tushib qolishi, o'rin

almashinishi keng uchraydigan muammolardan hisoblanadi. Bu holat turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Muallif tahriri natijasida baytning o'rni almashishi mumkin. Bu usul adabiy asarining umumiy kompozitsiyasini yaxshilashga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, bunday holatlar qo'lyozmalarining nusxalanishi yoki kotib tomonidan qayta ko'chirilishi jarayonida yuz beradi. Shu bilan birga, devonning dastlabki va keyingi tahrirlari bir qo'lyozmada aralashib ketgan bo'lishi ham mumkin. Bu esa baytlarning joyidan "siljishi" yoki "o'rni alamashishi"ga olib kelishi mumkin.

Mohlaroyim-Nodira devonlari nashrlarini o'zaro qiyoslaganimizda, tushirib qoldirilgan baytlar talaygina ekanligiga guvoh bo'ldik. Nodiraning "Marhabo ey payi sulton, marhabo" radifli g'azali Aziz Qayumovning 1958-yilgi nashrida o'n bir baytdan iborat, ammo Mahbuba Qodirovaning 1979-yilgi nashrida to'qqiz bayt. Quyidagi baytlar Mahbuba Qodirova tayyorlagan nashrda tushib qolgan.

Sakkizinchi bayt:

*Ravshan aylarman charog'i ohni,
Ko'zlarimdur gavharafshon, marhabo.*

To'qqizinchi bayt:

*Bu kecha hijron shabistonidur,
Anjumi ashkim charog'on, marhabo.*

Ammo ikkala bayt ham mazmuni, vazn hamda qofiyasi jihatidan g'azal tarkibida "begona" emas.

Mohlaroyimning "Agar gulshang'a kirsar sarv-u gulro'yim xirom aylab" deb boshlanuvchi g'azalida ham tushirib qoldirilgan baytlar mavjud. 1958-yilgi nashrida g'azalning oxirgi bayti:

Soqiyo, hajr davosini demish gar mayi nob,

Tuta ko'r maykadada qayg'uli oshiqqa sharob [Nodira 1958, 30], tarzida berilgan. Biroq mazkur bayt 1963-yilgi nashrda mavjd emas.

Nodiraning "Chiqdi ul gulgun qabo" deb boshlanuvchi g'azalida ham tushirib qoldirilgan o'rinlar mavjud. Jumladan, 1958-va 1963-yilgi nashrlardagi g'azalning to'rtinchi bayti:

*Ul xudovandiki, qildi yer-u ko'kni oshkor,
Shukrkim, bizni gado qildi, sani sulton etib.*

1979-yilgi nashrda tushirib qoldirilgan [Nodira she'riyatidan 1979, 21].

Navbatdagi "Rafiqo, menga bir dam do'stluq rasmini izhor et" deb boshlanuvchi g'azalining beshinchi bayti 1958 va 1963-yilgi nashrlarda mavjud, biroq mazkur bayt 1979-yilgi nashrda mavjud emas.

*Erur piri mug'ondin bu bashorat, turg'il, ey soqiy,
Labo-lab jom ila zohidni da'vosini bekor et* [Nodira 1958, 36].

"Tahammul haddin oshti emdi afg'on etmasam bo'lmas" misralari bilan boshlanuvchi g'azalda ham tushirilib qoldirilgan o'rinlar mavjud. Jumladan, 1963-yilgi nashrda g'azalning to'rtinchi bayti:

*Ko'ngullar ka'basin bir-bir ziyorat ayladim emdi,
Tavof-u Makka-u taxti Sulaymon etmasam bo'lmas* [Nodira 1963, 115], tarzida berilgan. Biroq 1979-yilgi nashrda mazkur bayt mavjud emas.

"Rohati ro'x erur nash'ayi roh" deb boshlanadigan g'azalning ham to'rtinchi bayti 1963-yilgi nashrda mavjud, biroq 1979-yilgi nashrdan tushib qolgan:

*Ruhi pokiki, aning turbatini,
Tavfetar kunda hujumi arvoh* [Nodira 1963, 125].

Mohlaroyimning "Menga la'lingdin ayru komi jon talx" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali uchinchi bayti 1963-yilgi nashrida:

*Jahondin ketdi ul shohi jahonim,
Menga bo'ldi firoqida jahon talx* [Nodira 1963, 133].

Beshinchi bayt:

*Firoqing zaxridek qotil emasdur,
Halohil birla qildim imtihon talx.*

Oltinchi bayt:

*Farah ko'z tutma hijron sharbatidin,
Erur zahri halohil begumon talx,* singari baytlar 1979-yilgi nashrda tushirilib qoldirilgan [Nodira she'riyatidan 1979, 46], natijada to'qqiz baytli g'azal olti bayt shaklini olgan.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, Nodira devonlarining turli nashrlari o'rtasidagi juz'iy, ammo muhim "o'zgarishlar" shoira ijodining badiiy qimmatini to'liq anglashga "to'siq" bo'lishi shubhasiz. Har bir so'z, hatto bir harfdagi o'zgarish lirik obraz, tuyg'u va badiiy ta'sir kuchining yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa

matnshunoslar oldidagi mas'uliyatni yanada oshiradi. Shu bois, shoira devonini mukammal holda nashr etish, nashrlar o'rtasidagi tafovutlarni xolis tahlil qilish va ularni bartaraf etish bugungi matnshunoslik fanining dolzarb vazifasidir.

Mumtoz matnlar nashrida ilmiy tahrir, muqoyasaviy tahlil va tanqidiy nashr tamoyillariga qat'iy amal qilish zarur. Nodira devoni kabi qimmatli manbalarni qayta nashr etishda asl manbalar bilan taqqoslash va turli nashrlardagi farqlarni yoritish ilmiy ahamiyatga ega. Bu esa Nodira devonlarining yagona, ishonchli va tanqidiy matnga asoslangan nashrini tayyorlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu esa shoira merosining keyingi avlodlarga xolis va mukammal yetkazilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати*. I жилд. 1983. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати*. II жилд. 1983. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати*. III жилд. 1983. Тошкент: Фан.
- Навоий асарлари учун қисқача луғат*. 1993. Тузувчи Ботирбек Ҳасанов. Тошкент: Фан.
- Раҳмонов, В. 2010. "Матн ҳақиқати". *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, 31-сон.
- Нодира. 1958. *Шеърлар*. Тошкент: Ўз.ССР давлат бадийи наشريёти.
- Нодира. 1963. *Девон*. (Ўзбек ва форс-тожик тилларидаги шеърлар). Тошкент: Ўзбекистон ССР фанлар академияси наشريёти.
- Нодира. 1968. *Асарлар*. 2 жилдлик. 1 жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадийи адабиёт наشريёти.
- Нодира шеъриятидан*. 1979. Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий комитетининг наشريёти.
- Нодира – Комила. 2001. *Девон*. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси наشريёти.
- Навоий асарлар луғати. 1972. Тузувчи П.Шамсиев. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат наشريёти.

Textual and Publication Issues (On the Example of Nodira’s “Divan”)

Ma’rfat Rajabova¹

Abstract

This article explores the publication issues and editorial discrepancies found in the divan (poetic collection) of Nodira, a poetess who held an important place in classical Uzbek literature, particularly within the Kokand literary environment. It examines the textual differences among the editions of Nodira’s divan published in 1958, 1963, 1979, and 2001. The analysis highlights how each edition affects poetic imagery, lyrical tone, and overall meaning. The study specifically points out that seemingly minor changes — such as word substitutions, omitted couplets, or even a single letter alteration — can weaken the artistic strength of her ghazals, distort the meaning, and alter the essence of the text. While acknowledging the historical and scholarly value of each edition, the article emphasizes the importance of preserving the authenticity of the original text and passing on the literary heritage in its true form to future generations.

Key words: *Nodira, divan, tradition, ghazal, publication, text, textual studies, word, letter, meaning.*

References

- Alisher Navoiy asarlarining izohli lug’ati*. I jild. 1983. Toshkent: Fan.
Alisher Navoiy asarlarining izohli lug’ati. II jild. 1983. Toshkent: Fan.
Alisher Navoiy asarlarining izohli lug’ati. III jild. 1983. Toshkent: Fan.
Navoiy asarlari uchun qisqacha lug’at. 1993. Tuzuvchi Botirbek Hasanov. Toshkent: Fan.
Rahmonov, V. 2010. “Matn haqiqati”. *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, 31-son.
Nodira. 1958. *She’rlar*. Toshkent: O‘z.SSR davlat badiiy nashriyoti.
Nodira. 1963. *Devon*. (O‘zbek va fors-tojik tillaridagi she’rlar). Toshkent: O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti.
Nodira. 1968. *Asarlar*. 2 jildlik. 1 jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi

¹ Ma’rifat B. Rajabova – Doctor of Philological Sciences, Professor, Bukhara State University.

E-mail: marifat.bakaeva@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-4002-5424

For citation: Rajabova, M. B. 2025. “Textual and Publication Issues (On the Example of Nodira’s “Divan”)”. *Golden Scripts* 2: 17 – 34.

badiiy adabiyot nashriyoti.

Nodira she'riyatidan. 1979. Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti.

Nodira – Komila. 2001. *Devon.* Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

Navoiy asarlar lug'ati. 1972. Tuzuvchi P.Shamsiev. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.

“Devoni Foni”ning Nuriusmoniya nusxasi tavsifi

Mabruk Djurayev¹

Abstrakt

Mazkur maqola buyuk turkiy adabiyot namoyandasi Alisher Navoiy (Foni) qalamiga mansub “Devoni Foni” asarining Turkiya Respublikasi, Istanbul shahridagi Nuriusmoniya kutubxonasi fondida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasini filologik, paleografik va kodikologik jihatdan tavsiflashga bag'ishlangan. Tadqiqotda devonning janr tarkibi, qo'lyozmaning tashqi va ichki holati, xat turi, sahifa bezaklari hamda matnning saqlanish darajasi kabi jihatlar atroficha tahlil qilingan. Maqolada qo'lyozma nusxasi to'g'risida ilgari o'tkazilgan izlanishlar, xususan, Hamid Sulaymonning dissertatsiyasi va Ogah Serri Levend tomonidan tuzilgan katalogdagi ma'lumotlar bilan qiyoslanib, ularning ilmiy qiymati hamda ayrim tafovutlari yoritilgan. Shuningdek, qo'lyozmadagi har bir janr – g'azal, qit'a, ruboiy, tuyuq va boshqa shakllarning mavjudligi aniqlanib, ularning boshlanish baytlaridan namunalar keltirilgan. Tadqiqotda, ayniqsa, g'azal janri alohida e'tiborga olingan bo'lib, devondagi harflar tartibiga ko'ra g'azallar soni statistik jadval orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *Nuriusmoniya, qo'lyozma, g'azal, ruboiy, qasida, tatabbu', tavr, muxtara.*

Kirish

Alisher Navoiy lirik merosida turkiy tildagi devonlari keng qamrovda o'rganilgan, forsiy tildagi merosi manbalari esa nisbatan kam tadqiq etilgan. Foni devoni manbalarini manbashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish fandagi ana shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda jahon kutubxona fondlarida “Devoni Foni”ning bir qancha qo'lyozma nusxalari mavjud. Ushbu devonning qo'lyozma manbalari hozirgi kunda Fransiya, Buyuk Britaniya, Turkiya hamda Eron Islom Respublikasi kutubxonalari fondlarida saqlanib kelinmoqda.

Hozirda Turkiyaning turli kutubxonalarida uning to'rt qo'lyozma nusxasi ma'lum. Ular quyidagilardan iborat:

¹ Djurayev Mabruk Ma'murjon o'g'li – tayanch doktorant, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi.

E-pochta: djurayevmabruk@gmail.com

ORCID ID: 0000-0000-0000-0009

Iqtibos uchun: Djurayev, M. M. 2025. “Devoni Foni”ning Nuriusmoniya nusxasi tavsifi”. *Oltin bitiglar* 2: 35 – 48.

1. “Devoni Foni”ning “Turk-islom” muzeyi kutubxonasida saqlanayotgan №1952 raqamli nusxasi bo‘lib, Turk professorining tavsifiga ko‘ra ushbu qo‘lyozma “Devoni Foni”ning XVI asrga oid eng ishonchli, mukammal nusxalaridan biri ekanligi taxmin etilgan. Qo‘lyozmaning qog‘ozi qadimiy, yozuvi ta’liq, 167 varaqdan iborat, har bir sahifada 15 satr joylashgan, miniatyuralar miqdori 3 ta: 2^a, 113^b hamda 140^b varaqlarda joylashgan. Ko‘chiruvchi xattotning nomi hamda ko‘chirilgan sanasi mavjud emas [4. 286]. Manbaning o‘lchami 24,7x17,2 sm. Matn o‘lchami esa 15,6x9,2 sm. Manba suqutli. Muqovasi uch tamg‘ali bo‘lib, charmdan ishlangan, qora rangda, muqovaning ichki qismi esa ahrubahor qog‘oz bilan qoplangan. Keyinchalik jild qayta ta‘mirlangan, orqa muqovasi ya‘ni so‘l toqa mavjud emas.

2. Sulaymoniya kutubxonasi Hakimo‘g‘lu Ali Poshsho kolleksiyasi fondida №00632 raqami ostida saqlanib kelinmoqda. Bu nusxa haqida Hamid Sulaymon dissertatsiyasi, Ohag Serri Levend katalogi hamda bu devon bilan bog‘liq boshqa ilmiy maqolalarda ma‘lumot uchratmadik. Bizningcha, bu nusxa keyingi vaqtlarda aniqlangan. Ushbu nusxa 191 varaqdan iborat. O‘lchami: 230x148. Nasta‘liq yozuvida yozilgan. Har bir sahifadagi satrlar soni 15 tadan iborat. Manbaning har bir varag‘iga sariq va havorangli siyohda jadval chizilgan hamda har bir she‘r va janrlar bir biridan ajratilgan. Kotibi hamda ko‘chirilgan sanasi ma‘lum emas. Manbaning oxirida ko‘chirilgan sanasi yozilgan, lekin suv yoki namlik sababli yozuvga zarar yetganli bois o‘qishning imkoni yo‘q. Uning muqovasi qattiq jigarrang kartondan ishlangan bo‘lib, uch toqalikdir. 1a varaqdan oldin Alisher Navoiyga tegisli bo‘lmagan ikki ruboiy ham o‘rin olgan. Bu ruboiylar Eron shoiri Salim Tehroniy qalamiga mansubdir. 1a varaqda bir necha qadimiy muhrlar hamda 1 dona kutubxona muhri bor. Ularning ayrimlarini muhrlar suvalib ketganligi bois o‘qib bo‘lmadi. Bu varaqning o‘rtasiga sariq rangli jadval ichiga “کتاب دیوان فانی” deb yozilgan va qavs ichida ko‘k rangli pastada esa keyinchalik “علیشیر نوابی” yozuvi qo‘shib qo‘yilgan. Ayni nusxa debochaga ham ega bo‘lib, u bizning maqolamiz obyekti bo‘lgan Nuriusmoniya nusxasi hamda Turk-islom muzeyi nusxalaridan farqli o‘laroq to‘liqdir. Lola Ismoil kolleksiyasidagi nusxada debocha mavjud emas.

3. Sulaymoniya kutubxonasi Lala Ismail kolleksiyasida 00469 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Ushbu nusxa haqida ham devonga oid ilmiy tadqiqotlarda ma‘lumot uchramadi. Uning o‘lchami 224x146-150x85 mm. 160 varaqdan iborat. Xati ta’liq. Har sahifada 17 satr mavjud. Debocha yo‘q. Qasidalar ham kiritilmagan. Kotibi

hamda ko‘chirilgan sanasi yozilmagan, ma‘lum emas. Ayrim g‘a-zallarning sarlavhasi yozilmagan va yozilganlari esa qizil siyohda. Asosiy matn qora siyohda. Deyarli har bir varaqda poygir bor. Unvon hamda jadval mavjud emas. Bu nusxa faqatgina debocha, qasida, g‘azal, musaddas hamda marsiya janrlarini qamrab olgan, xolos. Ruboiy, muammo, qit‘a va lug‘z janriga oid she‘rlar uchramaydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, bu nusxa oralaridan biror varaq yo‘qolmagani bilan Turkiyadagi qolgan uch nusxadan ajralib turadi.

“Devoni Foni”ning Nuriusmoniya kutubxonasi nusxasi

Maqolamiz obyekti bo‘lgan navbatdagi “Devoni Foni”ning qo‘lyozma nusxasi Turkiyada joylashgan Nuriusmoniya kutubxonasi fondida saqlanib kelinmoqda. Ushbu maqolamizda biz ayni shu qo‘lyozma nusxani tahlilga tortamiz. Bu nusxa kutubxona fondida №3850 raqami ostida saqlanadi. Qo‘lyozma haqida dastlabki ma‘lumot 1958-yilda Turkiyada Ogah Sirri Levendning “Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy asarlari” [Levend 1958] nomli kitobida bayon etilgan. Uning ushbu kitobiga asoslanib Hamid Sulaymon ham o‘z dissertatsiyasi [Сулаймон 287]da devonning qisqacha tarifini Levendning kitobida qanday bo‘lsa, shundayligicha keltiradi. “Devoni Foni”ning bu nusxasi to‘q jigarrang bo‘rtma naqshli muqova bilan qoplangan, qo‘lyozmaning birinchi varag‘ida quyidagi vaqf yozuvi va muhri bor. Muhrlarning birini yozuvlari xiralashib, ayrim harflari o‘chib ketganligi sababli o‘qishning imkoni yo‘q. Ikkinchi pastdagi muhrga esa quyidagi yuzuv bitilgan: **ابراهيم حنيف لطيف** – **Ibrohim Hanif Latif**.

Ushbu nusxaning muqovasi keyinchalik tamirlangan. Qo‘lyozmaning boshidan bir-ikki varag‘i yo‘qolgan. Nusxaning tekstlari novvot rang qog‘ozga yozilgan, hoshiyalari ko‘k rang. Barcha g‘azallar **محتراع، جواب اختراعی، میر سهیلی، میر خسرو، تتبع خواجه، تتبع** – **“tatabbu’ Xoja”, “tatabbu’ Mir Xusrav”, “tatabbu’ Mir Suhayli”, javobi ixtiro”, “muxtara”** kabi sarlavhalar bilan ajratilgan. Nasta‘liq xati bilan yozilgan bu nusxaning hamma varaqlari zarhal bilan jadvallangan. Tekst formati 20,2x12. 183 varaqdan iborat. Har betdagi satrlar soni 15 tadan bo‘lib, kotibi Kamol ibn Mahmud. Bu nusxa hijriy 999-yil – milodiy 1590-1591-yili Hindistonning Hojirpur shahrida kitobat etilgan. Bu nusxa hajm jihatidan biroz qisqartirilgan bo‘lishiga qaramay, qadimiyligi va Hindistonda ko‘chirilgani e‘tibori bilan o‘ziga xos qiymatga ega [Сулаймон 155].

Devonning tarkibi quyidagicha:

Mundarijasi

Nº	Debocha va janrlar	Soni	Varaqlari
1	Debocha ¹		1b – 3b varaqlar
2	Qasida	6	3a - 27b varaqlar
3	G'azal	469	27b-163b varaqlar
4	Musaddas	1	163b-164b varaqlar
5	Marsiya	1	164b-167a varaqlar.
6	Qit'a	34	167a-171a varaqlar
7	Ruboiy	53	171b-176a varaqlar
8	Tarix	16	176a-178a varaqlar
9	Muammo	144	178a – 183a varaqlar
10	Lug'z	3	183b varaq.

Yuqoridagi jadvalda g'azallar soni 469 ta deb ma'lumot berilgan. Lekin bizning ayni nusxani alifbo tartibida g'azallarni sanab chiqqanimizda, ularning soni 5 taga ko'p, ya'ni 474 tani tashkil etdi. Jadval bilan quyida tanishishingiz mumkin.

Ushbu manbaning turk sayti [<https://portal.yek.gov.tr>]da qisqacha tavsifi ham berilgan bo'lib, uning Eron adabiyotiga tegishli ekanli bayon etilgan. Bibliografik yozuv raqami 177700. Shuningdek, manbaning o'lchami 300x190-205x120 mm. Bundan tashqari manbaning rangi (jigarrang), yozuvi (nasta'liq), ko'chirilgan tarixi (hijriy 999-yil Robbiyul oxir oyi), ko'chirilgan yeri (Hajipur), nusxaga aloqador kishi (Kamol ibn Mahmud), manbaning boshlanishi hamda yakunlanishi keltirilgan.

2-varaqdan بيت القسيده همه خيل سخن وړان bayti bilan devon boshlangan. Bu nusxa debochaga ham ega bo'lib, debochada qasidalar haqida bayon etilgan hamda Foniyning "Ruh ul-quds" [Foniy 7^a], "Ayn ul-hayot" [Foniy 4^b], "Tuhfat ul-afkor" [Foniy 11^a], "Qut ul-qulub" [Foniy 14^b] (ushbu qasidaning sarlavhasi yozilmagan), "Tuhfatul najot" [Foniy 18^b], "Nasim ul-xuld" [Foniy 23^a] qasidalar o'rin olganva ularning sarlavhalari qizil siyohda ajratib yozilgan. Ushbu nusxadagi qasidalar "Ruhul quds" qasidasining quyidagi 87-bayti bilan boshlanadi:

دم قاتلش گلگونه عزار اجل،

[Foniy 3^a] حسام قاتلش آینه جمال بلا

Dami qatilash gulgunai uzori ajal,

Chisomi qotilash oinai jamoli balo.

Bu qasidaning boshlanishi 7^b varaqdan 9^b varaqlarda

¹ Debochaning varaqlari qayta ta'mirlash vaqtida almashtirib qo'yilgan. 7-varaq 3-varaqning o'rnida bo'lishi lozim.

joylashgan bo‘lib, “Aynul hayot” qasidasining orasidan o‘rin olgan. Ya’ni “Ruh ul-quds” qasidasining boshi “Ayn ul-hayot” qasidasidan keyin, oxiri esa undan oldin o‘rin olgan. Ayni nusxada 3 va 7-varaqlar qayta ta’mir vaqtida o‘rni almashtirib qo‘yilgan. Bu haqida Ogah Serri Levend o‘z katalogida hamda Hamid Sulaymon esa o‘z dissertatsiyasida ma’lumot bergan [Sulayman 1961]. Keyingi 5 qasida to‘liq bo‘lib, 27^b varaqda yakunlangan. G‘azallar quyidagi matla’li bayt bilan boshlangan:

ای خاک سر کوی تو گشتن هوس ما

[Foni 27^b] بر پای سگت بوسه زدن ملتمس ما

Ey xoki sari ko’i tu gashtan havasi mo,

Bar poi sagat bo’sa zadan multamasi mo.

So’ngra “Hamd” va “Na’t” g‘azal joylashgan, undan keyin Xoja Hofizning “الا يا ايها الساقى ادر كاساً و ناولها” g‘azaliga quyidagi tatabbu’ 28^a varaqdan o‘rin olgan:

رموز العشق كانت مشكلا با لكامش حلها

[2. 28^a] كه آن ياقوت محلولت نمايد حل مشكلها

Rumuzul-ishq konat mushkulan bil-ka’s hallilho,

Ki on yoquti mahlulat namoyad halli mushkilho.

Bu nusxada g‘azallar 163^b varaqqacha joylashgan bo‘lib, 474 ta g‘azaldan iborat. Ular quyidagi matla’li tatabu’i Mir g‘azali bilan 163^b varaqda yakunlanadi:

اگر فرهاد و شیرین هر دو دوران من بودی

[Foni 163^b] یکی شرمنده از من آن یک از جانان من بودی

Agar Farhod-u Shirin hardu dar davroni man budi,

Yake sharmanda az man, on yak az jononi man budi!


Bizga ma’lumki, devon tarkibidagi g‘azallar arab alifbosi tartibida joylanadi. “Devoni Foni” Nuriusmoniya kutubxonasidagi ushbu nusxasidagi g‘azallar qaysi harfga qancha g‘azal ekanligini quyidagi jadvalda berishga qaror qildik:

Jadval

№	Harflar	G‘azallar soni	Varaqlari
1	ا	44	27b – 40b
2	ب	24	40b – 47b
3	ت	76	47b – 69b
4	ث	1	69b
5	ج	4	70a – 70b
6	ح	3	70a – 71b
7	خ	3	71b – 72b
8	د	93	72b -99b


9	ذ	1	99b - 100a
10	ر	16	100a - 104b
9	ز	8	104b - 106b
10	س	7	106b - 109a
11	ش	10	109a - 112a
12	ص	1	112a
13	ض	1	112b
14	ط	1	112b
15	ظ	1	113a
16	ع	3	113a - 114a
17	غ	1	114a
18	ف	2	114a - 114b
19	ق	2	114b - 115b
20	ک	5	115b - 116b
21	ل	9	117a - 119a
22	م	64	119b - 137b
23	ن	27	137b - 145a
24	و	12	145a - 148a
25	ه	13	148b - 152a
26	ال	1	152a
27	ی	40	152b - 163b
	27 harfga	474	27b - 163b

Ushbu nusxadagi g'azallarning bir qanchasiga sarlavhalari yozilmagan, ba'zilarining esa sarlavha uchun jadvali ham mavjud emas. Shuningdek, faqatgina 159^b varaqda g'azallar jadvalsiz holda ko'chirilgan: "Devoni Foniy". Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850.




"Devoni Foniy". Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850.

Shuninhdek, 113a varaqda “ع” harfli g‘azallarga “ظ” harfi deb xato yozilgan holatlar ham mavjud:



“Devoni Foni”. Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850.

Aksariyat g‘azallarning bir bayti yoki maqta'si tushib qolgan holatlar ham mavjud. 138^a varaqda ikki g‘azalning orasiga sarlavha ham, ikki g‘azal bir-biridan ajralib turishi uchun sarlavha uchun jadval ham qo‘yilmagan, ya’ni ikki g‘azal qo‘shilgan holda ko‘chirilgan hamda keyingi g‘azaliga tegishli bo‘lgan g‘azalning birinchi bayti hoshiyaga yozilgan.



“Devoni Foni”. Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850.

163^b varaqdan musaddas boshlangan. Bu musaddas sarlavhasi qizil siyoh bilan ajratib yozilgan. Umuman olganda, ushbu nusxada har bir janr sarlavhasi qizil siyohda yozilgan. Musaddasning sarlavhasi quyidagicha: غزل حضرت مخدوم که بحکم عالی مسدس کرده شده است – “Oliy hukm bilan Hazrat Maxdum g’azaliga bog’langan musaddasdir”. Musaddas quyidagi bayt bilan boshlanib, 164^b varaqda tugaydi va u 27 baytdan iborat:

کردمی در خاک کوی دوست ماوا کاشکی
[Foniy 163^b] سودمی رخسار خود بر خاک آن پا کاشکی
Kardami dar xoki ko’i do’sst ma’vo, koshki!
Sudami ruxsori xud bar xoki on po koshki!

Musaddasdan so’ng “مرثیه حضرت مخدوم” sarlavhali marsiya o’rin olgan bo’lib, 164^b varaqdan boshlangan va u 67 baytdan iborat. Marsiya quyidagi bayt bilan boshlanadi:

هر دم از انجمن چرخ جفای دیگرست
[Foniy 164^b] هر یک از انجم او داغ بلایی دیگرست.
Har dam az anjumani charx jafae digar ast,
Har yak az anjumi o’ dog’i baloe digar ast.

Quyidagi 67-bayt bilan yakunlanadi:

شاه معنی را گر صورت افتاد چین
[Foniy 167^a] باد تا شحر شه صورت و معنی آمین
Shohi ma’ni ro gar surati aftod chunin,
Bod to shahr shahi surat-u ma’ni omin!


167^a varaqdan qit’alar boshlangan bo’lib, marsiya bilan qit’a orasiga odatdagiga muvofiq janrlar nomi alohida ajratib yozilmagan. Lekin jadval shaklda bir-biridan ajratilgan. Ushbu nusxada qit’a quyidagi bayt bilan boshlangan:

هر آنکه از همه اشحاس پر مشقت دهر
[Foniy 167^a] برید و ساخت وطن در حریم تنهای
Har on, ki az hama ashxosi purmashaqqati dahr,
Burid-u soxt vatan dar harimi tanhoy.

Bu nusxada qit’alar 34 ta bo’lib, har bir qit’a orasiga وله – “valahu” – “bu ham uniki” so’zi qizil siyoh bilan yozilgan va u quyidagi bayt bilan boshlanuvchi qit’a bilan yakunlanadi:

هر که او راست گشت و روشن دل
[Foniy 171^a] در سیهچال دهر بد روز ست
Har ki o’ rost gasht-u ravshan dil,
Dar siyahcholi dahr bad ruzast.

Qit'alardan so'ng ruboiylar o'rin olgan bo'lib, ushbu nusxada ular ham boshqa she'rlar kabi jadval ichiga olingan hamda orasiga وله – "valahu" – "bu ham uniki" so'zi qizil siyoh bilan yozilgan. Lekin janrlar nomi bilan bir biridan ajratilmagan. Ya'ni qit'alardan so'ng "Ruboiy" deb sarlavha qo'yilmagan:



"Devoni Foniy". Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850.

Quyidagi baytli ruboiy bilan boshlangan:

ای بیحد و عد هر نفست حمد و ثنا

وز صد چند حمد و ثنایت استغنا^[Foniy 171^a]

Ey behad-u add, har nafasat hamd-u sano,

V-az sad chandin hamd-u sanoyat istig'no.

Ushbu nusxada 53 ta ruboiy o'rin olgan bo'lib, har bir ruboiy ramkaning ichiga yozilgan va ularning ham orasi qizil siyohdagi وله – "valahu" – "bu ham uniki" so'zi bilan ajratilgan. Bu janr quyidagi bayt bilan boshlanuvchi ruboiy bilan yakunlanadi:

لاف از دانش نیست بجز نادانی

دانستن جهل علم شد تا دانی

مشکل بحودت کار چرا کردانی

چون باشد یک نی و هزار آسانی^[Foniy 176^a]

Lof az donish nest ba juz nodoni,

Donistani jahl ilm shud, to doni,

Mushkil ba xudat kor charo gardoni,

Chun boshad yak neyu hazor osoni.

Ruboiylardan so'ng ta'rix janriga oid she'rlar joy olgan bo'lib,

ushbu janrlar ham orasiga ham janrlarni bir-biridan ajratish uchun sarlavha qo'yilmagan. Ular 176a varaqdan quyidagi baytli Maxdu, hazrat Jomiyning vafoti ta'rixi bilan boshlanadi:

گوهر کان حقیقت در بحر معرفت

[Foniy 176^a] كو بحق واصل شد و در دل نبودش ماسواه

Gavhari koni haqiqat, durri bahri ma'rifat,

K-o' ba Haq vosil shuda dar dil nabudash mosivoh.

Manbadagi tarixlar soni 16 tani tashkil etadi hamda 178a varaqda quyidagi bayt bilan yakunlanadi:


فصیح زمان طوطی آن شاعری،

[Foniy 178^a] كه بودش ز بکر معانی عروس.

Fosehi zamon To ti on shoire,

Ki budash zi bikri maoni aro's.

Undan so'ngra muammolar joylashgan va bu janrni boshlanishiga qizil siyohda "معمیات" deb sarlavha qo'yilgan:



"Devoni Foniy". Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850.

Ushbu nusxada muammolar 144 tani tashkil etgan bo'lib, ular 178a varaqdan quyidagi baytli "Odam" muammosi bilan boshlanadi:

گر نباشد در دل خونین خد نکت متصل

[Foniy 178^a] از چه بر بالا و پایش نماید خون دل

Gar naboshad dar dili xunin xadangat muttasil,

Az chi bar bolov-u poyosh namoyad xuni dil.

Muammolarning javobi baytlarning o'ng va chap tomoniga qizil siyohda romka ichiga yozilgan. Muammolar janriga 183^a varaqda quyidagi bayt bilan boshlangan "Dovud" muammosi yakun yasaydi:

پیش تو اگر عیان شود محنت ما،
بآب دو چشم و آتش فرقت ما [Foniy 183^a]
Pesh tu agar ayon shavad mehnati mo,
Bo obi du chashm otashi furqati mo.


Manbaning oxirida 3 ta ya’ni “Sham”, “Parvona”, “O’q” lug’zlari o’rin olgan bo’lib, barchasi bir varaqda joylashgan. Ushbu nusxada lug’zlarning javobi yozilmagan. Ilk lug’z “Sham” lug’zining quyidagi bayti bilan boshlanadi:

چيست ان نحلی که برگش نیست اما هست گل،
لیکن ان گل را بود اندر نظر اندام برگ [Foniy 183^b]
Chist on naxle, ki bargash nest, ammo hast gul,
Lek, on gulro buvad andar nazar andomi barg.

Ushbu nusxa oxirida “O’q” lug’zining quyidagi bayti bilan yakunlanadi:

طیرانش به بهلو یست اما
افکند مرغها بسی بردن [Foniy 184^b]
Tayaronash ba pahlo’est, ammo
Afkanad murg’ho base ba zadan.

Ayni nusxaning oxirida kolofon ham mavjud. Unda quyidagi jumlar yozilgan: حسب الحساب. تمت الكتاب بعون الوهاب ديوان امير عليشير تخلص فاني. الحكم طالعمره در شهر حاجی پور با تمام رسيد. كاتب الحروف كمال ابن محمود. بتاريخ دويم ماه ربيع الاخر. سنة 999. *In’om qiluvchi Alloh yordami bilan Foniy tahallusli Amir Alisher devoni Hajipur shahrida ko’chirib tugallandi. Kotib Kamol ibn Mahmud. Hijriy 999-yil Rabbiyul oxar oyining ikkinchi sanasi.*



“Devoni Foni”. Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850. (kolofon).

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, ayni paytda “Nuriusmoniya” kutubxonasi (inv. №3850) fondida saqlanayotgan qo’lyozma “Devoni Foni”ning to’liq va nisbatan mukammal nusxasi sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Bu nusxada devonning asosiy janrlari – qasida, g’azal, musaddas, marsiya, qit’a, ruboiy, ta’rix, muammo, lug’z va

boshqa shakllar to'liq yoki qisman o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu nusxaning grafik xususiyatlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning Hindistonda ko'chirilgani Navoiy forsiy merosining geografik tarqalish doirasini ham ko'rsatib beradi. Shu bilan birgalikda, ayni nusxa ko'chiruvchisining nomi aniq (Kamol ibn Mahmud), ko'chirilgan joy (Hindiston) va sanasi (hijriy 999) ma'lum ekanligi ham uning manbashunoslikdagi ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Maqola natijalari Navoiy qo'lyozmalari matnshunoslik va adabiy manbashunoslik tadqiqotining yangi bosqichini belgilab, "Devoni Foni"ning turli nusxalarini o'zaro qiyosiy o'rganish, shuningdek, Navoiy forsiy merosining to'liq ilmiy nashrini tayyorlash uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 2002. *Девони Фоний*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 18, 19, 20 том. Тошкент.
- Foniy*. Devon. Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850. 183 v.
- Foniy*. Devon. Hakimo'g'lu Ali Poshsho kolleksiyasi. №00632. 191 v.
- Foniy*. Devon. Devoni Foni. Turk-islom muzeyi. №1952. 167 v.
- Foniy*. Devon. Devon. Sulaymoniya kutubxonasi. Lala Ismoil kolleksiyasi. 00469. №161 v.
- Сулаймон, Ҳамид. 1965. "Навоийнинг "Фоний" девони". *Шарқ юлдузи* 9: 155. Тошкент.
- Сулейман Ҳамид. 1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои*. Док. дисс. част первый. Ташкент.
- Levend, Âgâh Sırrı. 1958. "Türkiye Kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları". *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten* 6: 127 – 209.
- Мадалиева, О. 2021. *Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қийёсий тадқиқи*. Тошкент: Donishmand ziyosi.
- Volin, S. L. 1955. (Çev. Rasime Uygun). 'Leningrad Kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları Hakkında'. *TDAY-Belleten* 99 – 141. Ankara.
- <https://portal.yek.gov.tr>

Description of the Nuruosmoniya copy of “Devoni Foni”

Mabruk Djurayev¹

Abstract

The author's article is accompanied by a description and manuscript copy of "Divoni Foni" by Alishery Foni-Navoi, stored in the library Nurismanii i Turtsii. A comparative check of different published versions and copies of copies is necessary, and the necessary textual and comparative comparisons are made with other editions.

This article is devoted to describing the philological, paleographical and codicological structures of the manuscript copy of the work "Divani Fani" by the Turkish literary figure Alisher Navoi (Foni), which is kept in the Nuriusmania Library in Istanbul, Turkey. The study includes a detailed analysis of the genre composition of the divan, the organization and internal state of the manuscript, the typeface, page decorations, and the level of preservation of the text. The article covers the research on the manuscript copy, the dissertation of Hamid Suleyman and the information in the catalog of Ogah Serri Levend, scientific research and some differences. work, each genre in the manuscript – ghazal, qut'a, rubai, tuyuk and other forms – is identified and examples from the beginning. The study paid special attention to the ghazal genre, and the number of ghazals according to the order of letters in the divan is shown in a statistical table.

Key words: *Nuruosmaniye, manuscript, ghazal, rubaiy, qasida, tatabbu', tavr, mukhtara.*

References

- Alisher Navoiy. 2002. *Devoni Foni*. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 18, 19, 20 tom. Toshkent.
- Foni*. Devon. Nuriusmoniya kutubxonasi. №3850. 183 v.
- Foni*. Devon. Hakimo'g'lu Ali Poshsho kolleksiyasi. №00632. 191 v.
- Foni*. Devon. Devoni Foni. Turk-islom muzeyi. №1952. 167 v.
- Foni*. Devon. Devon. Sulaymoniya kutubxonasi. Lala Ismoil kolleksiyasi. 00469. №161 v.
- Sulaymon, Hamid. 1965. "Navoiyning "Foni" devoni". *Sharq yulduzi* 9: 155. Toshkent.

¹ *Mabruk M. Djurayev* – doctoral student, Alisher Navoi State Literature Museum of the Republic of Uzbekistan.

E-pochta: djurayevmabruk@gmail.com

ORCID ID: 0000-0000-0000-0009

For citation: Djuraev, M.M. 2025. "Description of the Nuruosmoniya copy of "Devoni Foni". *Golden Scripts* 2: 35 – 48.

- Suleyman, Xamid. 1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi*. Dok. diss. chast perviy. Tashkent.
- Levend, Âgâh Sırrı. 1958. "Türkiye Kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları". *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten* 6: 127 – 209.
- Madaliev, O. 2021. *Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Volin, S. L. 1955. (Çev. Rasime Uygun). 'Leningrad Kitaplıklarındaki Nevaî Yazmaları Hakkında'. *TDAY-Belleten* 99 – 141. Ankara.
- <https://portal.yek.gov.tr>

ADABIYOTSHUNOSLIK

LITERATURE

Mavlono Atoiy she'riyatida obraz-timsollarning badiiy talqini

Usmon Qobilov¹

Abstrakt

Sharq adabiyotini tashkil etuvchi turkiy she'riyat ham ko'p asrlik an'analar zamirida rivojlandi. Mavzularni badiiy ifoda etishda turli tasvir usullari yaratildi, jismlar, harakat, holatlar obraz-timsollarga aylantirildi. Natijada hayotning badiiy tafakkur orqali she'rga ko'chib o'tgan majoziy talqini yuzaga keldi. Bular asrlar davomida an'anaviy timsollar, obrazlar, muayyan qolip shaklida yashab qoldi, ijoddan ijodga ko'chib o'tdi. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, turkona she'riyatning mashhur vakillaridan biri – Mavlono Atoiy ijodida ham mazkur an'analar o'ziga xos yo'sinda ifoda etilgani bilan e'tiborga molik.

Ushbu maqola turkiy-o'zbek adabiyoti namoyondalaridan biri Mavlono Atoiy she'riyati badiiy obrazlari tadqiqiga bag'ishlangan. Unda Atoiy lirikasida samarali tasvir etilgan nubuvvat timsollari talqinidagi ramziy-majoziy ifodalar ochib berilgan. Shu bilan birga Atoiy badiiy mahorati, o'ziga xos uslubi, shoir tomonidan yaratilgan ohoriy tashbihlar yangicha nuqtayi nazarlar bilan tahlil etib berilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy obraz, ramz, majoz, she'riy san'at, nubuvvat, nabiylar obrazi, talqin, g'azal, bayt, an'ana, badiiy tasvir.*

Kirish

XV asrning birinchi yarmiga kelib turkiy-o'zbek tilida mumtoz she'riyat shiddat bilan taraqqiy etdi. Bu badiiy tafakkur olamida Alisher Navoiydek buyuk fenomen paydo bo'layotganidan darak ham edi. Ayniqsa, XIV – XV asrlar o'zbek mumtoz she'riyatida nubuvvat ahli timsollari sermahsul o'rin egallaydi. Bu obraz-timsollar Lutfiy, Sakkokiy, Gadoiy, Mavlono Atoiy va boshqalar she'riyatida yuksak mahorat bilan tavsif etilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turkiy-o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy

¹Qobilov Usmon Uralovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti.

E-pochta: usmonqobilov82@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7940-8823

Iqtibos uchun: Qobilov, U. U. 2025. "Mavlono Atoiy she'riyatida obraz-timsollarning badiiy talqini". *Oltin bitiglar* 2: 49 – 67.

ijodi butun adabiy hayot jarayonlari va umuman badiiy tafakkur singari nubuvvat haqiqatlari poetik talqinlari borasida ham eng yuqori pog'onani egallaydi. XV asr birinchi yarmi turkiy mumtoz adabiyotida "o'z zamonida she'ri atrok orasida ko'p shuhrat tutgan".

Nubuvvat motivi va obrazlari talqini

Atoyi ijodi alohida o'ringa egadir. U bor tuyg'ularini g'azal janrida ifodalab bergan shoir hisoblanadi. Bu o'lmas she'riyat jozibadorligini ta'min etib turgan jihatlardan biri ham nubuvvat motivi va obrazlari talqini sanaladi. Shoir lirikasi badiiy obrazlar olami va ma'rifiy dunyosida payg'ambar siymolar timsollari talqini muhim o'rin tutadi. Atoyi lirikasida nubuvvat motivi talqini masalasi ikki muhim xulosani e'tirof etishga imkon beradi. Birinchidan, ijodkor Navoiy ta'kidlaganidek, "haqiqat sirlarini majoz yo'li bilan" tasvirlash, ya'ni irfon ruhida ijod etish bilan birga "nubuvvat xayli" tarixini ham mukammal o'zlashtirganligi masalasi bo'lsa, ikkinchidan, bu obrazlar orqali she'riy san'at masalasida betakror mahorat namoyon etganligidir. Bu holat, ayniqsa, uning she'riyatida ahli nubuvvat tarixida "axzanul qasas" deb e'tirof etilgan Yusuf alayhissalom timsoliga murojaat etilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Turkiy-o'zbek she'riyatida bu siymo badiiy timsolini Atoyi qadar keng tasvirlagan shoir kam uchraydi. Bu esa, fikrimizcha, bir tomondan, Yusuf timsoli boshqa shu tipli obrazlarga ko'ra she'riy uslub ohangiga mosligi va ikkinchi tomondan, "haqiqatni majoz tili" bilan ifodalashda kengroq imkonga egaligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, mumtoz she'riyatda bunday ohangdor obrazlar sirasiga Xizr, Masih, Majnun, Farhod, Yusuf, Vomiq singarilarni kiritish mumkin. Bu holat lirik ifodalarda bir an'ana tusiga ham aylangan. Qaysiki, lirik devonlarga nazar tashlamaylik, ayni obraz-timsollar sermahsul ifodasi ko'zga tashlanadi. Fikrimizcha, bu xarakterli obrazlar mumtoz lirik qahramon kechinmalariga uyg'un tuyg'ular uyg'otish imkoniga ko'proq egadir. Shu bois bu obrazlar o'zgacha bir zavq-u shavq bilan tasvirlanadi. Qay bir davr adabiyotida nubuvvat haqiqati va obraz-timsollariga ko'proq murojaat etilar ekan, shu davrda nubuvvat tarixi elning sevimli mavzusiga aylanganligidan dalolat beradi. Buni Atoyi she'riy tajribalari ham isbotlaydi. Xususan, Rabg'uziy payg'ambarlar qissalariga qiziqish baland bo'lgani "Qissasi Rabg'uziy" asarining yaratilishiga sabab bo'lganligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy ham bu haqda fikr yuritib o'tgan. O'zbek mumtoz she'riyatida bu obrazlar qancha miqdor yoki raqamda tasvir etilgan bo'lsa, shuncha xil poetik

manzara, betakror badiiy kechinmalarni vujudga keltiradi. Xuddi shu masala Atoyi lirik merosida ham ko'rinadi. Unda Yusuf o'ttizdan ortiq, Masih yigirmadan ziyod, Sulaymon yetti, Xizr o'n olti, Nuh olti, Ya'qub besh, Muso to'rt, Ayub uch bora badiiy timsol – talmeh sifatida tavsif etiladi. E'tiborlisi bu obraz-timsollar har bir misra yoki baytda o'zgacha bir ruhiyat va badiiy-estetik ma'noni yuzaga chiqaradi. Atoyi talqinicha, Muhammad Mustafo nubuvvat timsoli hisoblanadi. Nubuvvat uning “nur” (“haqiqati muhammadiya”) va “surat” (“majoz muhammadiya”) tarzidagi borlig'idan iboratdir. Bu holat mumtoz she'riyatda turlicha tasviriy ifodalar bilan talqin etiladi. Mavlono Atoyi lirikasida bu motiv “qulf va kalit” ramzida ohoriy tashbeh kasb etilgan bo'lib, bunday talqin ifodasi boshqa bir she'riy satrlarda kuzatilmaydi.

Nubuvvat bobining quflu kalidi,

Sanga topshurdi oxir damda Fattoh [Atoyi 2006, 49].

Bu o'rinda baytdagi har bir so'z va ifoda yuksak mahorat bilan badiiy-estetik fikr mantig'iga xizmat etgan. Masalan, unda al-Haq ma'nosi va sifatini bildirib keluvchi “Fattoh” tushunchasi she'r ohangiga binoan keltirilgan. U bejizga aynan Fattoh tarzida qo'llanilmagan. Badiiy talqin uchun Haq af'ol-u sifatlaridek behisob obrazli ifodalar kam uchraydi. Gap shundaki, Sharq she'riyatida bu ifodalarni maqsadga muvofiq, o'z o'rnida ishlata bilish masalasi yuksak mahorat talab etish bilan birga benazir ilmu urfon sohibi bo'lishni ham taqozo etgan. Shu nuqtayi nazardan Atoyi talqinida, Fattoh “fath etuvchi”, “zabt etuvchi” ma'nosi emas, balki “tugunlarni ochuvchi”, “masalani yechuvchi” ifodasi nazarda tutilgan bo'lib, bu “qulfni ochuvchi va yopuvchi kalit” ma'nosiga badiiy ramz vazifasini bajarib bergan. Bunda “qulf” nubuvvat ramzi bo'lsa, “kalit” Hazrati Mustafo timsolidir. Sharqona talqinlarga ko'ra, nubuvvat eshiklari qulfini ochgan ham, yopgan ham Muhammad payg'ambar deb qaraladi. Ikkinchi tomondan, baytda nazarda tutilgan ramziy talqinlar, Muhammadga “nubuvvat bobi”ga “qulfu kalitlik” martabasi Fattoh tomonidan topshirilganligiga ham ishora etadi. Demak, Atoyi talqinicha, Mustafo nubuvvatni ochuvchi va yopuvchi “majoz kaliti” bo'lsa, Fattoh barcha bandlar, xususan, nubuvvatni ham ochuvchi va yopuvchi “haqiqat kaliti”dir. Ushbu talqin zahirida shoirning ramzdan foydalanish mahorati va she'r jozibadorligini ta'min etuvchi yana bir muhim jihat shundaki, unda Muhammad payg'ambar siymosi ayni bir obraz yoki timsolda keltirilmasdan satrlar ma'no ohanggi orqaligina yuzaga chiqarilgan. Bu ohang “sanga” olmoshida aks etgan, xolos. Shundan

baytda: “Fattoh oxir oqibat nubuvvat bobining qulfi kalitini senga topshirdi”, – mazmuni kelib chiqadi. Agar shu tariqa masala talqinini boshqa badiiy ifodalar bilan taqqos etadigan bo’lsak, unda nubuvvat motivi ifodasidagi mumtoz ramziyat tobora rango ranglashib ketaveradi.

Odatda, sharqona talqinlarda “nur” ma’rifati butun borliq, jumladan, nubuvvatning ham asosini tashkil etadi. Nabiylk shakli esa Hazrati Odam bilan boshlanadi. Uning nabiyligi odamiyzod sharafi va mukarramligi, “komil xalifaligi” belgisidir. Atoyi talqinicha, Shayton odamga sajda qilmasdan Tangri mardudiga (rad etilgan) uchraganligiga sabab Odam husnida o’sha “jamol va kamol nuri”ni ko’rganligidandir.

*Jamoling nurini Odam husninda ko’rub Shayton,
Chu sajda qilmadi, bo’ldi hamisha Tengri mardudi*

[Atoyi 2006, 75].

Sharqona qarashlarga ko’ra, Shayton tarixi odamzod kechmishidan ham uzoq bo’lgan moziydir. Bu haqda yuqorida Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida keltirilgan hikoyatni eslatishimiz mumkin. Unda muttassil ibodati tufayli yettinchi qavat yerdan yettinchi qavat osmongacha ko’tarilganligi qayd etiladi. Shayton birinchi obid, zohid, orif, vali, horis, aziz sanalgan farishta edi. Biroq taqdir bitigida uning qismatiga mardudlik yozilgan edi. Talqinlarda bu takabburlik, Haq irodasiga bo’yinsunmaslik, ayrimlarida Allohga, ba’zisida uning yaratig’lariga dushmanlik deb qaraladi. Ba’zisida esa bu rad etilganlik (mardudlik) sinov davri sifatida baholanadi. Atoyi esa bu masalani o’ziga xos bir badiiy kashfiyot bilan talqin etadi. Unga ko’ra, Shayton Odam husnida jamol nurini payqaydi. Bu nur odamiyzodga Haqning muhabbatini bildirar edi. Zero, sharqona qarashlar bo’yicha olam-u odam Haqning “nur”ga muhabbatidan bino etilganligi qayd etiladi. Shu sevimlilik bois odamga farishtalar ta’zim sajdasi ko’rsatadilar. Bu Shaytonning g’ashini keltiradi. O’zini bu sevimlilikdan mosivo his etadi. Odamga hurmat sajdasi keltirmaydi. Tangri taoloning hamishalik mardudiga aylandi. Xalq orasida yuradigan “noumid shayton” iborasi ham shundandir. Atoyi talqinida manmanlikka nisbatan insoniy xokisorlik ulug’lanadi. Uning qalamiga mansub satrlarda aytilishicha, aslida odam tiynati Jabroil keltirgan kamtarlik ziynati bilan qorilgandir.

*Taxmir etarda tiynati odamni qudsilar,
Kelturdi Jabrail aning xoki rohini* [Atoyi 2006, 75].

Talqinlarga ko'ra, odamiy xulq-atvori poklik ila qorilayotganida, yaratilayotganida xokisorlik, kamsuqumlik tuprog'i Jabroili Amin tomonidan keltirilgan edi. Bu matn mazmuni "Men odam loyini qirq kun o'z qo'lim bilan qoridim" – Qudsiy Hadisiga ham ishoradir. Naql etilishicha, odam loyi qorilayotganda unga g'am, kulfat, baxt, qayg'u, dard kabilar qo'shilgan ekan. Ulardan eng oz ulush baxtiyorlik loyi deyiladi. Mumtoz talqinlarga binoan inson dard farzandi hisoblanadi. Shu dard inson mohiyatini tashkil etadi. Ya'ni, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytilganda "dardning yo'qligi dard, g'amning yo'qligi g'am". Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz she'riyatida nubuvvat timsollari tavsifida o'zaro muvoziylik vaqt nuqtayi nazaridan emas, badiiyat jihatdan talqinni yuzaga keltiradi. Shu bois, Xizr "umr"i, Sulaymon "mulk"i, Nuh "kema"si, Somiriy "sehr"i, Masih "e'joz"i, Yusuf "husn"i singari o'xshatmalar birgalikda tasvirlanadi. Bunday an'ana Atoyi ijodiga ham xos xususiyatdir. Bunda faqat badiiyat ustuvorlik qiladi, xolos. Tarixan olib qaralganda esa, boshqacha manzara namoyon bo'ladi. Birgina misol, "Qisas ul-anbiyo" yoki boshqa nabiyar tarixlarida al-Xizr abadiy tirik, ezgu ishlarda madadkor sifatida talqin etilsa-da, nubuvvat xalqasida faqat Muso va Ilyos qissalarida zikr etiladi. Lekin badiiy talqinlarda o'zga nabiy va tarixiy-afsonaviy siymolar bilan ham bir o'rinda keladi. Atoyi ushbu baytida Xizr timsoli Nuh bilan birga tavsif etiladi. Aniqrog'i, Xizr obi hayoti va Nuh umri bir poetik manzara kashfiga xizmat qiladi. Bunda go'yo ma'shuq sanamning o'zi ruhsifatdir, "la'li" Xizrning tiriklik suvi qadar bo'lib, Nuh umrini hosil qiladi.

Bu pari paykar sanam go'yoki mahzi ruhdur,

La'li Xizr obi hayoti, qildi umri Nuhdur [Atoyi 2006, 56].

Boshqa o'rinda Atoyi lirik qahramoni uchun Nuh kechirgan umr ramziylik vazifasini o'taydi. Go'yo oshiq uchun visol yo'lida bu umr ham hech nimani anglatmaydi. Bu yo'lda oshiq ko'zidan oqqan yosh daryosi Nuh to'fonidek olamni g'arq etadi. Shundan Atoyi oshiqona g'azallarining yana birida: "*Topmasam vaslingnikim, ul Nuh umridur manga, G'arqi to'fon aylagay olamni ko'z yoshim mening*", - deydi. Yoki lirik qahramon uchun ma'shuqa bilan kechirgan bir lahza Sulaymon mulki va Nuh umriga tenglashadi. Ya'ni: "*Sulaymon mulkidur ham Nuh umri, Saning birla kechurgan bir zamonim*". Bunda, albatta, Sulaymondek butun olam podshohi va uning behisob mol-mulki hamda Nuh singari qirq-ellik avlod darajasidagi uzoq umrni ko'z o'ngimizda gavdalantirsak, badiiy talqindan hayrat o'z-o'zidan oydinlashadi. Mavlono Atoyi yana bir baytida lirik qahramon "mahbuba bilan kechirgan bir onni Xizr hayoti, Nuh umri, Jamshid

mulkiga” ham tenglashtirmaydi.

*Hayoti Xizru umri Nuhu ham Jamshidning mulkin,
Teng etmasmen saning birla kechurgan bir zamonimg’a*
[Atoyi 2006, 56].

Shoir she’riyatida Sulaymon obrazi talqini

Shoir she’riyatida Sulaymon obrazi talqin etilganda ko’pincha u bilan bog’liq holda “mulk”, “chumoli” tushunchalariga murojaat etiladi. Ma’lumki, mulk va molik tushunchalari o’zakdosh so’zlardir. Mulk deyilganda, predmet ma’nosida moddiy olam va uning boyliklari nazarda tutiladi. Molik esa barcha mulklar egasi ma’nosini anglatadi. Har ikkala tushuncha ham mumtoz adabiyotda ko’p ma’noli so’zlar sirasiga kiradi. Mumtoz adabiyotda molik kichik bir mulk sohibidan Molik al-mulk, ya’ni barcha mulklar egasi bo’lgan al-Haq ma’nosigacha, mulk oddiy bir ashyodan butun borliq mulkigacha bo’lgan ma’nolarda talqin etiladi. Sharqona talqinlarga ko’ra, butun olam mulkini boshqarish to’rt kishiga nasib etgan. Shulardan ikkitasi: Sulaymon va Zulqarnayn muslim, ikkitasi: Namrud va Buxt Nasr kuffor ahlidan deb qaraladi.

Mumtoz she’riyatda Sulaymon payg’ambar behisob mol-u mulkka ega bo’lgan shoh obrazini ifodalab keladi. Shunga qaramasdan Sulaymon juda ko’p sinovlardan o’tkaziladi. Shunday sinovlardan biri shu darajadagi salobat bilan ham mayda bir chumolining aqli qoshida hayratda qolishi voqeligini aytib o’tish mumkin. Ammo she’riyatda, xususan, Atoyi lirikasida chumoli bu fabula ma’nosida emas, balki Sulaymonga tegishli jonzot sifatida o’zga adabiy-estetik manzaralar yaratishga xizmat etadi. Umuman olganda, mumtoz she’riyatda nubuvvat motivi talqinlarida xuddi shunday adabiy qonuniyatlar amal qilinadi. Ya’ni, muayyan satrlarda u yoki bu nabiy yoki boshqa tarixiy-afsonaviy shaxs tasvirlanar ekan, ular bilan bog’liq turli jonli va jonsiz predmetlar o’zga bir ruhiyat, boshqa bir talqin iqlimlarini hosil qiladi. Bunga Atoyi lirikasidan ko’plab misollar keltirish mumkin. Chunonchi, Sulaymon obrazi talqinidagi “mur” ham xuddi shunday mohiyat kasb etadi. Mavlono Atoyi o’z g’azallaridan birida “mur” va Sulaymon shoh va payg’ambar obrazlarini bir o’rinda tasvirlab, ajoyib bir badiiy manzara yaratadi:

*Murni ozurda qilma, xossa oshiq ko’nglini,
Husn mulkinda tilarsankim, Sulaymon bo’lg’asen*
[Atoyi 2006, 46].

Bayt mazmuniga ko’ra, “xos oshiqlar ko’nglini husn mulkida

istasang, chumoliga ham ozor bermagil", – degan xulosa bor. Shunda Sulaymondek mulk egasi bo'lasan. Bunda oshiq ko'ngilning husn mulkiga ega bo'lishi, Sulaymonning olam mulkiga egaligi bilan barobarlashadi. Ya'ni, oshiq va Sulaymon, go'zallik va boylik mulki, ko'ngil va chumoli ozurdaligi bir qatorga qo'yilib talqin etiladi. Xulosa esa ayon, ko'ngilda paydo bo'lgan ishq oshiqni husn mulkining Sulaymonidek jahon shohi darajasiga ko'taradi.

Horut va Morut qissalari talqini

Boshqa bir misralarda esa Horut va Morut qissalariga e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, ushbu qissa Azozil rivoyati singari bani odam uchun nihoyatda katta ibratga egadir. Asli farishtalardan bo'lgan bu timsollar sabr-u qanoat bobida sabot ko'rsata olmasdan oxirat-gacha Bobil chohiga tashlanib qattiq jazoga tortiladi. Ular achchiq qismatini aks ettiruvchi rivoyat fabulasi mumtoz she'riyatimizda ko'p ham ko'zga tashlanavermaydi. Hatto Alisher Navoiy she'riyatida deyarli kuzatilmaydi. Atoyi esa bu ibrat qissasidan o'zgacha ohang va estetik talqinni amalga oshirishda foydalanadi. Bu mumtoz she'r badiiyatining o'ziga xos tasvir uslubi hisoblanadi. Unda aytilishicha, "sening ko'zing sehri g'am diyorini Bobil chohidek qilib, noz-u ishva bilan ko'ngilni Horutdek chohga muftalo qildi. Shakardek og'zing sharbati Xizr suvini, la'li labing esa yashil ko'karchinlarni yashirdi".

Chohi Bobiltek qilib g'am go'shasin sohir ko'zung,

Sheva birla muftalo qildi ko'ngul Horutini.

Xizrning suyin yashurdi shakkar og'zing sharbati,

Sabzayi la'li labing ham sabzi xat yoqutini [Atoyi 2006, 243].

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin, mumtoz she'riyatda bitta obraz-timsol yoki so'zgina emas, balki butun bir syujet ham istioraviy ma'no ifodalashga xizmat etadi. Bu o'rinda ham ichidan dunyoning barcha badbo'yliklari anqib turadigan va unga Horut bilan Morut tashlangan quduq Chohi Bobil – "g'am go'shasi"ga, bu farishtalar sinov maqsadida o'rgatadigan sehr-jodu – "ko'z"ga, go'zalga mahliyo bo'lib o'z holidan mosivo bo'lgan Horut – "ko'ngil"ga, Xizr chashmasi – "og'iz sharbati"ga, la'li lab – "yashil ko'karchin"ga miqyosan ramz talqinidir. Albatta, g'am, ko'z, ko'ngil, og'iz, lab, xat kabi obrazlar har biri ramziy ma'noga ega bo'lgan timsollar hisoblanadi. Masalan, bir ma'noda g'am go'shasi – dunyo hayoti, ko'z – basirat, ko'ngil – ishq va sirrlar mahzari, og'iz – maxfiy asror, lab – ilohiy so'zlar, xat – ulug'lik va g'ayb olami ramzini ifodalab keladi.

Nubuvvat tariqi siymolari va ular bilan bog'liq poetik timsollar

Mumtoz she'riyatda bu haqiqatlarni tasvir etadigan sanoqsiz majoziy ifodalar bor. Shular ichida eng sarmahsuli nubuvvat tariqi siymolari va ular bilan bog'liq poetik timsollardir. Bundan ko'rinadiki, mumtoz she'riyatda nabiy siymolar obrazlari tasvir etilganda, odatda, ma'shuqa uzvlariga murojaat etiladi. Atoyi mazkur misralarda "lab" timsolini ramziy ifodalar bilan tasvirlaydi. Uni jannat bog'idagi Kavsar sharbatidan ham, Xizrga tuganmas umr ato etgan obi hayvondan ham a'lo ko'radi. Ya'ni, shoir: *"Men netay bog'i behishtu Xizr umrinkim, manga, Lablaringdur obi hayvon birla Kavsar sharbat"*, - deydi. Bunday tavsiflardan xulosa qilib, "lab", "la'li lab" ifodalarini nubuvvat-vahiy ilhomiga badiiy ramz deb bilishimiz mumkin bo'ladi. Chunki irfoniy adabiyotlarda bu obraz-timsol ilohiy so'zlar ma'nosini bildirib keladi. Yoki boshqa bir o'rinda "Ilohim, senga Nuh umrini bersin, menga Ayub sabrini ato etsin. Bu g'am, firoq dardi menda, bunday husn esa sendadir. Seni Yusuf, meni esa Ya'qub deb atasinlar", - deydi.

*Sanga bersun ilohi Nuh umrin,
Manga ham furqatingda sabri Ayyub.
Bu g'amkim, bizdadur, bu husn sizda,
Seni Yusuf desunlar, bizni Ya'qub [Atoyi 2006, 38].*

Sharq mumtoz adabiyotida umr hayotning inson o'z ko'zi bilan ko'rib kechiradigan tomoni deb talqin etiladi. Ahli nubuvvat tariqida qisqa fursatli umrguzaronlik qilgan siymolardan abadiy hayot in'om etilganlarigacha qayd qilinadi. Umrini hayot kechmishlari bilan o'tkazgan siymolar ichida Nuh qadar uzoq dunyoviy faoliyat olib borganlari deyarli uchramaydi. Tirik deb talqin etiladigan Iso, Idris, Xizr, Ilyoslarning ham dunyoviy yashash muhlatlari chegaralidir. Fikri o'jizimizcha, Nuh uzoq umr kechirganligi uning hayoti bir svilizatsiya tamom bo'lib, ikkinchisi boshlanganligiga to'g'ri kelganligi bilan bog'liqdir. Mana shu oraliqni Nuh payg'ambar tarixi bog'lab turadi. Rabg'uziy talqinicha, Nuhga risolat yuz yoshida kelgan, to'qqiz yuz ellik yil imonga da'vat qilgan. Yana bir rivoyatga ko'ra, to'rt yuz yoshida payg'ambarlik kelgan. To'fondan keyin uch yuz ellik yil yashagan, hammasi bo'lib bir ming yetti yuz yil umr kechirgan. Alisher Navoiy fikricha, unga ba'zilar qirq, ba'zilar ikki yuz ellik yoshidan keyin vahiy kelgan deb aytadilar. To'qqiz yuz ellik yil xalqni imonga da'vat etgan. Nuhning umri bir ming olti yuz, ba'zilar aytishicha, ming uch yuzga yetib olamdan o'tgan. Mumtoz she'riyatda Nuh alayhissalomning yashash tarzi emas, balki umr

muddati estetik tuyg'u uyg'otadi. Odatda, Nuh umri izhor etilganda ezgu istaklar nazarda tutiladi.

Sharqona talqinlarga ko'ra, azizlar umri qancha bo'lsa ham sabot va matonat yo'li, ezgulik va poklik matlabidir. Nubuvvat tarixida umr dunyo zug'umlariga sabr-u chidam davri sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan Ayub payg'ambar sabr-u toqatga ramz etiladi. Bu siymo haqida turkiy "Qissas-ul anbiyo"da ham, "Tarixi anbiyo va hukamo"da ham ma'lumot uchramaydi. Ma'lumki, islomda Ayub payg'ambarlardan biri sifatida qayd etiladi. Mumtoz she'riyatda samarali bo'lmasa-da, ba'zi o'rinlardagina ko'zga tashlanadi. Talqinlarga ko'ra, Ayub alayhissalom Ibrohim avlodidan sanaladi. U boy-badavlat, mol-dunyosi behisob, farzandlari, qarindoshlari ko'p edi. Lekin unga og'ir sinovlar ravo ko'riladi, dardga chalinadi. Haq yodi va zikri uchun yurak hamda tiligina omon qoladi. Barcha boyligidan judo bo'ladi, qarindoshlari tashlab ketadi. Yaqinlari Ayubga nisbatan ig'vo va bo'htonlar tarqatadi. Hatto shirkda ham ayblaydilar. Unga faqat ayoli sadoqat bilan xizmat qiladi. Manbalarga ko'ra, o'n sakkiz yil shu taxlitda azob-uqubat chekadi. Lekin biror soniya ham Haq zikrini unutmaydi, barcha qiyinchiliklarni sabr bilan yengib o'tadi. Unga qaytadan mustahkam sog'lik va behisob boylik ato etiladi. Tepasiga ikkita bulut kelib biri oltin, biri kumush yomg'irini yog'diradi. Ayubning mana shu matonati badiiy talqinlar uchun noyob ibrat timsoli vazifasini bajaradi. Atoyi lirik qahramoni ham shu nuqtayi nazardan o'ziga Ayub sabrini istaydi. Ya'qub va Yusuf qissasi ham Ayub tarixidan o'tsa o'tadiki, ammo undan qolishmasligi barchaga ayon. Lekin sabr, firoq masalalarida Ya'qub va Yusuf tamsili she'riyatda dildor manzaralarni hosil etadi. Buning boisi, bizningcha, tasvir diydor bilan xotima topishidadir. Atoyi talqinida husnga – Yusuf, ayriliq g'amiga – Ya'qub majoz timsoli bo'lib xizmat etadi. Bugina emas, shoir she'riyatida ma'shuqalik mahzarining ifodalanishida "Yusufnoma" bajargan badiiy tasvir ko'lamini nihoyat xilma-xildir. Misol uchun Atoyi ushbu misralarida yuz – Yusuf, zaqan (iyak) chuqurligi – quduq, soch – arg'amchi, dam – Iso, xat – Xizr, lab – tiniqlik sifatida talqin etiladi.

Yusufyuzi, quduq zaqani bor, sochi rasan,

Iso dami-yu Xizr-u xat erni zulol erur [Atoyi 2006, 71].

Bunda botin ma'nolariga ko'ra oladigan bo'lsak, yuz – ilohiy husn, jamol tajallisidir. Zaqan – ilohiy tajalli mushohadasi, uning chuqurligi jamolni mulohaza etishdagi noziklik sanaladi. Soch – mohiyatni zohir qilish, talab yo'lidagi arqon. Xat – buyuklik bo'lsa, lab – ilohiy fayz hisoblanadi. Shundan shoir ilohiy zuhurrotni

majozan ifodalashda bir yo'la uchta: Yusuf, Iso, Xizr bilan bog'liq tafsilotlardan mahoratli foydalanadi. Ushbu misralarda esa “ey husnda komil, sening jamoling Yusufdan yodgorlik, sening hajringda ko'zlarim Ya'qubdekdir”, - tarzida ma'no bor. Ya'ni, Atoyi: “*Ey kamoli husn, Yusufdin jamoling yodgor, Bo'ldi hajringdin biaynih ko'zlarim Ya'qubvor*”, - deydi. Husn – mukammal kamolot va sifat ramzidir. Ya'ni, jamol, diydor, husn – Mutloq Zotning komil mukammalliklari badiiy ifodasidir. Atoyi yana bir g'azalida “ishq nazari”, “chohi zanaxdon”, “ko'ngil Yusufi”, “zulf rasani” kabi obrazli birikmalar bilan badiiy manzara yaratadi.

*Nogah nazarim chohi zanaxdoningg'a tushti,
Bog'landi ko'ngul Yusufi zulfing rasanida* [Atoyi 2006, 33].

Bunda sirtidan qaralganda she'rda “mening nazarim chohi zanaxdonga (saqoq chuqurligi) tushib, ko'nglim zulfing arqoniga bog'landi”, – tarzida mazmun bildirilmoqda. Shoir tasvirni shu darajada mahorat bilan amalga oshirganki, unda kitobxon bir qarashda Yusuf voqeligini sezmasdan qoladi. Biroq uni anglamaslik kishini she'r badiiyatidan yiroqlashtiradi. Bir so'z bilan aytilganda, bayt mazmuni uchun Yusufning birodarlari tomonidan quduqqa tashlanishi voqeasi badiiy manzara bo'lib xizmat etgan. Bu voqelik butunisicha she'rga ko'chirilgan. Boshqa xilda izohlanganda, “quduq ichidagi holat yuzaga chiqarilib” tasvirlangan. Quduq – baqbaqa chuqurligiga, ko'ngil – Yusufga, zulf – arqonga aylangan. Baytning botin ma'nosini chiqaradigan bo'lsak, ko'ngilning otashin ishq bilan azaliy ma'shuqaga bog'langanligini bildiradi. Navbatdagi satrlarda Yusuf mavzusi davom etadi. Lek bunda Yusufning zindonband etilishi voqeligi lirik manzaraga asos bo'lgan. Bayt mazmuni zohiran qaralganda ham, botinan ham ishq mavzusi talqiniga doir ekanligi ko'rinadi. Mumtoz satrlarda bir mavzu, aynan olinganda ishq talqini ikki ruhda, ya'ni zohiriy va botiniy qatlamda aks ettirilishi sharqona qarashlardagi “majoz va haqiqat” masalalariga borib taqaladi. U Alisher Navoiy qit'asida quyidagicha ta'rif etiladi: “*Majoziy ishqdin murodi haqiqat ekanlarning mo'nilariga mon'i bo'lmoq va nosihlarig'a nosih*.”

*Ko'rmasa husni majoziy ichra juz Haq sun'ini,
Oshiqekim, bo'lsa ishq atvori ichra pokboz.
Zohido, bu ishqdin man' aylama oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang, ayni haqiqatdur majoz*

[Navoiy 1988, 219].

Ya'ni, majoziy ishqdan murod haqiqat (haqiqiy ishq) ekan-

ligini rad etuvchilarni rad etish va bu haqda nasihat qiluvchilarga maslahat berish: majoziy husn ichida Haq san'atidan o'zgasini ko'rmaydigan oshiq ishq yo'lida chin oshiqdir. Ey zohid, sen bu ishqdan oshiqni man etmagin, sen aql-idrok etib ko'r, chunki majoz haqiqatning ayni o'zidir. Shuning uchun ham she'rda yuz, ko'ngil, zulf, ko'z, lab, qosh, qomat va boshqalar tasvir etilganda talqin o'sha "Haq ishq majoz tili" bilan ifodalanayotganligini bildiradi. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov ta'kidlaganidek, "hech bir mumtoz adib yorning qosh-u ko'zini madh etish uchungina qalam tutmagan"ligi ma'lum bo'ladi. She'r tashqi tomondan izohlanganda "ko'ngil yuzga oshufta bo'ldi, endi zulf va saqoqni istaydi. Bu Yusufni sevganlar uni zindonband etishni orzu qilganlaridekdir", – ma'nodagi fikr kelib chiqadi.

Chun yuzin sevdi ko'ngul zulfu zanaxdonin tilar,

Ore, Yusufni sevanlar bandu zindon orzular [O'sha manba, 28].

Bu o'rinda ham ko'ngil timsoli Yusuf bilan monand ravishda talqin etiladi. Ko'ngilning yuzga ishq – zulf va zanaxdonga tuzoq etilganidir. Bu ishq bois Yusufning bandi etilishiga o'xshatilgan. Shu joyga kelib bir mulohazani aytib o'tish kerak bo'ladi. Birinchidan, ko'ngilni Yusufga qiyos etish betakror poetik talqindir. Ikkinchidan, "Yusuf qissalari"da Yusufning bandi etilishiga sabab Zulayho ishqini rad etishidan kelib chiqadi. Ya'ni, she'rda aytilganidek, "Yusufni sevgan uni bandi zindon etishni orzu qiladi". Bayt tasvirida xuddi Qur'ondagi kabi Zulayho nomi uchramaydi. Ammo unga "Yusufni sevanlar" tarzida ishora etilgan. Shundan Yusuf va ko'ngil ma'shuqani oshiq etgan husn shohiga muhabbatda majoz bo'lib keladi. Yanada aniqrog'i badiiy talqinlarda ko'ngil va Yusuf ishqqa mazhar bo'lganligi bilan o'zaro mos va xos timsollik kasb etadi. Atoyi talqinicha, Yusufga zindon ishq tuzog'i bo'lgani kabi ko'ngilga saqoq chuqurligi yuzga oshuftalik tuzog'idir. Shu tariqa talqinlardan Ya'qubni "piri Kan'on" tarzida ta'rif bilan qo'llash ham Atoyi topilmalaridan sanaladi. Albatta, mumtoz adabiyotda Odam – "Abulbasha", Nuh – "Shayx ul-anbiyo", Ibrohim – "Abul anbiyo" tarzida ta'rif-u talqin etiladi. Lekin Ya'qub payg'ambarni "Kan'on piri" shaklida tavsif Atoyi talqinidagina uchraydi.

Umri jovidon berurda, Xizrg'a obi hayot,

Sharbati la'li labingdin oldi qatra choshni.

Necha yig'lay hasratingda piri Kan'oni bikin,

Rahm qil, oxir yigitsen, ko'r, ko'zimda yoshni [Atoyi 2006, 243].

Misralarda: “obi hayot Xizrga abadiylik umrini berayotganda, bir qatra totni sening la’li labing sharbatidan oldi. Piri Kan’ondek sening hasratingda qancha yig’layin, axir, rahm qil, ko’zimdagi yoshlarni ko’r”, – mazmunidagi fikrlar bayon etilgan. Bu o’rinda “ko’r” ikki xil ma’noda: “ko’rmoq” fe’li va ko’z “ko’r”masligini anglatmoqda. Ikkinchi ma’noda Ya’qubning jigargo’shasi Yusuf dardida ko’zi ko’rmas bo’lib qolganligiga ishora bor.

“Qissasi ul-anbiyo”larda go’zallik haqida gap ketganda ayollardan birinchi zaifa Havvoga, erlardan esa Yusufga beqiyos chiroy ato etilganligi aytiladi. Xususan, “Qissasi Rabg’uziy”da keltirilishicha, Alloh Taolo ko’rkni yuz bo’lak qiladi. To’qson to’qqiz qismini Havvoga, bir ulushini qolgan hammaga beradi. Shu bir ulushni ham o’nga bo’ladi va to’qqiz qismini Yusufga, bir qismini boshqalarga beradi. Momo Havvodan keyin go’zallik Zulayhoga ham nisbat berilgan. Lekin badiiy talqinlarda Havvo yoki Zulayho emas, balki Yusuf husnu malohat timsoli bo’lib keladi. Mumtoz tasvirlarda Layli, Shirin, Uzro, Dilorom kabilar ham dildor obrazlar sifatida talqin etilsa-da, ko’rkamlik timsoli deb madh etilmaydi. Bu, fikrimizcha, Sharq nazdida ayol go’zalligi ichki sir deb qabul etilishi bilan bog’liqligida bo’lib, uni oshkor etish maftunkorlik hisoblanmasligi bilan xarakterlanadi. Shu bois Atoyi bir she’rida “u (ma’shuqa) husnda Yusufdek bo’lsa, men (oshiq) piri Kan’on, ko’zimga malham ham kor qilmaydi”, - deydi.

Garchi Yusuftek bo’lubtur, husn misrinda aziz,

Piri Kan’onmen, ko’zumga to’tiyo rahm aylamas

[Atoyi 2006, 104].

Bu o’rinda Ya’qub farzandi dardida ko’zlari ko’r bo’lib qolganligi voqeligi lirik ifodaga asos bo’lgan. Baytda so’zning ma’no ko’chish usulidan ustalik bilan foydalangan. Unda “Misr” atoqli otdan turdosh otga aylangan bo’lsa, “aziz” otdan sifatga ko’chgan, Yusuf “tek” qo’shimchasi bilan tashbih etilgan, Ya’qub “piri Kan’on” sifatida ishlatilgan. Atoyi lirikasida Yusuf timsoli bilan bog’liq badiiy topilmalardan biri “Bayt ul-ahzan” (g’am uyi) hisoblanadi. U shoir she’riyatida “ko’ngil uyi”ga qiyos etiladi. Manbalarda “Bayt ul-ahzan” o’z farzandidan ayrilgan Ya’qub payg’ambar tomonidan qurib olingan uy ekanligi aytiladi. U Atoyi talqinida “*Solib borma meni, ey Yusufi husn, Bu kun Ya’qubtek baytul-hazanda*”, - tarzida ifodalanadi. Shundan go’yo lirik qahramonning “ko’ngil uyi” Yusufidan ayrilgan Ya’qubdek “Bayt ul-ahzan”ga aylangan. Sen Yusufga o’xshab mening “Bayt ul-ahzan ko’nglim”ga nazar tashlagin – deydi.

*Baytul-ahzan ayladim ko'nglum uyin Ya'qubtek
Qil nazar Yusuf mengizliq baytul-ahzon ko'ngluma.*

Yoki boshqa misralarda Yusuf – husnga, Ya'qub – dardga, Bayt ul-ahzan – ko'ngilga tashbih etilib, betakror badiiy-estetik manzara yaratiladi. Ya'ni shoir: “Sening husning bilan mening kuyuk dardim olamni tutdi. Yusuf, Ya'qub va Bayt ul-ahzandan so'z yuritishning hojati yo'q”, - degan mazmunda fikr bildiradi.

*Dunyoni tutti saning husnung bila dardim so'zi,
Yusufu Ya'qub ila baytul hazandin kim desun?*

[Atoiy 2006, 267].

Shular qatori Yusufning zindonda chizgan surati, molga sotilgani voqealari ham shoir she'riyatida turli ramziy tasvirlariga ega sanaladi. Ayniqsa, Atoiy lirikasida Yusuf bilan Zulayho obrazlari birgalikda tasvir etilgan o'rinlar ham uchraydiki, bunday talqin boshqa bir she'riy ijod namunalari talmih sifatida deyarli ko'zga tashlanmaydi. Ya'ni, “Yusufnoma”lar shu ikki obraz va ular orasidagi ishq tufayli kitobxonlarni o'ziga ko'proq maftun etgan bo'lsa-da, biroq lirikada ular orasidagi ishq yoki boshqa masalalar ramziy-majoziy talqinlarda hamkorlikda tavsif etilmaydi. Bu esa ushbu mavzuning o'ziga xos olam ekanligini ko'rsatadi. Sharq mumtoz talqinlarida ishq va oshiqlik mavzusi hijron, visol singari tushunchalar bilan butunlik kasb etadi. “Yusufnoma” aslida buyuk ishq dostoni, ammo unda aks etgan ishq mazhari “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiq va Uzro”lar bilan taqqoslanishi o'ziga ruhda bo'lishi lozim. Ya'ni, bunda Yusuf timsoli Shirin, Layli, Uzro kabi ishq mazharidir. Shuning uchun boshqa oshiq va ma'shuq juftliklari bir o'rinda tasvirlanadi. Lekin Yusuf va Zulayho obrazlarida bunday hol ba'zi satrlardagina uchraydi. Tasvir etilganda ham o'zida ishq alangasini uyg'otgan “husn shohi”, Zulayhoni “or-nomus pardasidan chiqargan” xilqat Yusuf obrazida ifodalanadi. Buni Hofizning mashhur: “*Men ul Yusufdagi cheksiz go'zallikdan aniq bildim, Chiqarmish ishq nomus pardasidan Zulayhoni*” misralari yoki Bimiy qalamiga mansub “*O'rtandi Zulayho ko'p Yusufning firoqida, Har baldada dildori begona ekan mendek*”, satrlari mazmunidan ham ilg'ash mumkin. Atoiy she'riyatida ham xuddi shunga o'xshash talqinni kuzatish mumkin.

*Ishq misrinda aziz o'lmas Zulayxodek kishi,
Kechmayin Yusuf uchun nomusu nangu oridin*

[Atoiy 2006, 176].

Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kid etib o'tishimiz kerak. Mumtoz she'riyatda Yusuf obraziga murojaat etilganda, ko'pincha "aziz" so'zi qo'llaniladi. Bu mumtoz she'r poetikasiga xos qonuniyatlardan biriga rioya etish sanaladi. Unga ko'ra, muayyan badiiy tasvir yaratilganda bir doiradagi uyadosh tushuncha va ifodalar bitta markazda to'planadi. Buni tanosub san'ati deb ham ataydilar. Lekin masalaning e'tiborli jihati shundaki, bunda shu bir doiradagi tushuncha yoki so'z butunlay o'z ma'nosidan tashqarida bo'lib keladi. Chunonchi Atoyi ushbu satrlaridagi "misr", "aziz" kabi so'zlarni aytilganlarga misol qilib keltirish mumkin. She'rda oddiy poetik so'z bo'lib kelgan bu tushunchalar aslida "Yusufnoma"larda asosiy o'rin tutadigan joy va obrazlardan hisoblanadi. Ushbu baytda ham Hofiz, Bimiy talqinlari singari ohang aks etgan. Ya'ni unda: "Yusuf uchun or-nomusdan kechmasdan turib ishq bobida Zulayhodek muhtaram bo'la olmaydi", – tarzida fikr bor. Demak, mumtoz lirikada "husn" masalasi alohida bir olamdir. U o'zida ishq zuhuroti, kamol tajallisi, mukammal haqiqat va mutlaq jamol ruhini ifodalab keladi. Atoyi ta'kidlaganidek, *"Misr shahrinda Zulayhoni aziz Yusuf uchun, Xor qilg'on yer tubindin ham chiqorib husn erur"* dir. Ya'ni, Zulayhoni Misr shahrida xor qilgan Yusuf emas, balki unda zohir bo'lgan husn hisoblanadi. Shundan mumtoz tasvir badiiyati uchun "jonbaxsh lab" – Masihoga, "husn" – Yusufga, "malih jamol" – Habibga qiyoslanadi.

*Bu labi jonbaxshu bu husn-u malohat sendadur,
Yo seni Yusuf desunlar, yo Masiho, yo Habib* [Atoyi 2006, 39].

Mavlono Atoyi talqini bo'yicha ham o'zbek va umuman Sharq mumtoz adabiyoti singari "husn" ko'p ma'noli tushunchadir. Uning majozii odamiy jamol bo'lsa, haqiqati ilohiy ko'rk sanaladi. Bu mohiyatan "Alloh go'zaldir va u go'zallikni sevadi", Qudsiy Hadisda sharh topadi. Shunga monand ravishda tasvirlanuvchi "ko'z", "lab", "yuz", "xat", "xol", "qosh", "zulf" kabi timsollar ham butunni bo'lak bilan ifodalaydi, xolos. Boshqacha aytganda, so'zlar sinekdoxa asosida ma'no ko'chadi. Ya'ni, mumtoz she'riyatda bu timsollar tasvirlanganda, uzvlar o'z ma'nosi bilan bunchalik dildor tuyg'ular, romantik kechinmalar uyg'otishga qodir ham emas. Bu adabiyot so'zlar jilosi, ma'nolar ifori, majozlar saltanatidan iboratligi bilan ham izohlanadi. Shu bilan birga bu timsollar badiiy talqinda "jins", millat yoki elat ifodasi bilan ham xarakterlanmaydi. Agar belgilanganda. dildor obrazining turkona yoki boshqa milliy ruhdagi qiyofasini topishda mushkulotlarga duch kelinar edi.

Ishq mahzari bo'lib kelgan timsollar

Mumtoz adabiyotda ishq mahzari bo'lib keladigan timsollar xilma-xildir. Bunda obraz chin bir ma'noda dildorlik va oshuftalik ramzi bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun ular goh Chindan, goh Mochindan, gohida sanam, gohida gulsanam timsollarida tasvir etilaveradi. Xullas, bunda obraz ramziyati qanday tipligidan farqsiz holda badiiy-estetik his, dildor ruh kasb etishi, tasvir tabiiyligiga erishish san'ati lozimdir. Shu bois Atoyi bir g'azalida "ilohiy ruh mujassam labingda Iso nafasi zuhur etadi, husningga falaklar oshiqdir, parilar hayratdadir, odamiylar quldir", - desa, boshqa bir asarida "husn, malohat, karam, latifliklardan bittasigina Yusufda bor bo'lsa, senda bori, ya'ni hammasi bor", - deydi.

*Ey mujassam ruhdin la'lingdadur Iso dami,
Husnungga oshiq falak, hayron pari, qul odami*

[Atoyi 2006, 143].

*Husn-u malohat-u karam-u lutf bobidin,
Yusufqa biri bo'lsa, begim sizda bori bor* [Atoyi 2006, 79].

Shu o'rinda yana bir mulohazani ham aytish kerakki, atoqli adib Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanida "begim" so'zi nihoyat bir nazokat bilan Kumushbibini tilidan Otabekka nisbatan qo'llaniladi. Bu so'z sof turkona "bek" so'ziga "im" egalik qo'shimchasini qo'shishdan hosil bo'lgan. Xuddi shu so'z Abdulla Qodiriydan bir necha asrlar ilgari Atoyi she'riyatida ma'shuqa ma'nosida badiiy ifodasini topgan. Ya'ni, yuqoridagi baytlarning birinchisida yorni butunlikda ifodalaydigan sifat keltirilmasdan, bo'laklikda "la'ling" va "husning" tarzida ishlatilgan bo'lsa, ikkinchisida bo'lak shaklida emas, balki butun tarzda "begim" deb ishlatilgan. Yoxud Atoyining boshqa bir "sizsiz manga" radifli g'azalida "Ey begim" undalma vazifasini bajarganligining guvohi bo'lamiz. Bunda lirik qahramon oshiq "Ey begim, mening tanamga sizsiz jon ham, Xizr hayoti ham, abadiylik umri ham kerak emas", - demoqda. Ya'ni:

*Ey begim, valloh, kerakmas tanda jon sizsiz manga,
Ham hayoti Xizr-u umri jovidon sizsiz manga.*

E'tiborlisi, "begim" ifodasi Atoyi lirikasida gohida uchraydigan tasvir bo'lib qolmasdan, balki ancha samarali o'rinni tashkil etadi. Uning keyinchalik "O'tgan kunlar" singari shoh asarlarga ko'chganligi ham ajablantirmaydi. Shoir she'riyatida ahli nubuvvat timsollari talqini bilan bog'liq bunday betakror badiiy topilmalar, tashbih-u qiyos-taqqoslar, ramziy tasvir va majoziy ifodalar ko'p uchraydi. Mavzu tahlilini "nubuvvat nuri" talqini masalasi bilan

boshlagan edik. Xulosani ham shu tarzda yakun etib, Atoyining ushbu misralariga e'tibor qaratish lozim ko'rildi. Bunda "qaro zulf" timsoli matn mazmunini boshqarib beradi. Baytni sirtidan tahlil etsak, "sening qaro zulfig qaroligida kufforlik namoyon etib, engingni Mustafo nuri, xolingni Bilol aylaydi", – deyilgan fikrni uqib olish mumkin.

*Qaro zulfung savodidin rumuzi kufr etib zohir,
Engingni Mustafo nuri, mengingni ham Bilol aylar*

[Atoyi 2006, 55].

Bu misralar ichki ma'nolar sathida bir tomondan qarshilantirish san'ati ham jo etilganligini ko'rish mumkin. Unda zulf biryo'la kufr va imon zohir etmoqda. Zulf timsoli ma'rifiy talqinlarda ham ko'p ma'no ifodalab keladi. U ong va idrokdan tashqarida bo'lgan g'ayb olamini anglatadi. Tasavvuf manbalarida uning bir jihatdan kufr zulumatiga, bir tomondan tajalli nuriga rumuz bo'lib kelishi ta'kidlanadi. Bayt mazmuni ham shunga ishora etmoqda. Endi she'rdagi ikkita masalaga e'tibor qaratsak.

Birinchisi, "Mustafo nuri" masalasi bo'lib, mumtoz ijod sohiblari bu haqda ruhbaxsh satrlar bitganligi aytib o'tildi. Ularda "nur" nabiylik in'omi sifatida talqin etilgan edi.

Ikkinchisi, "meng" va Bilol masalasi bo'lib, bu tasvir mumtoz she'riyatda g'oyat dilbar topilmalar sirasiga kiradi. Eng muhimi qora xol va Bilol munosabati turkiy she'riyatda Atoyi tomonidan birinchilardan tashbih etilganligidir. Hazrati Rasululloh tarixlarida Bilol Habashiy birinchi muazzin deb ta'rif qilinadi. Rivoyatda keltirilishicha, jannat hurlari oxir zamongacha o'zlariga oro berar ekanlar. Bu zeb oxir zamonga kelib nihoyasiga etar ekanu, lekin shunda ham hurlar ziynatida xol masalasida kamchilik qolar ekan. Shu zamon Bilolning qoraligi jannat hurlariga nuqta-nuqta qilib bo'lib berilar ekan. Shu bilan jannat hurlari go'zalligi kamolga yetar ekan. Bu holat xuddi "nur" o'z asli Muhammad Mustafoda namoyon bo'lib, nubuvvat kamolga yetgandekdir.

Xulosa

Xullas, shu tariqa Mavlono Atoyi she'riyatida nubuvvat ob-razlari talqiniga xos xususiyatlar alohida bir mavzu sanaladi. Bu shoir she'riyati olami jozibadorligini anglash nuqtayi nazaridangina emas, balki umuman turkiy she'riyatda nubuvvat ma'rifati bilan bog'liq mumtoz badiiy tafakkur va an'analar sarhadlarini chuqur his etishda muhimdir. Shu bilan birga XIV – XV asrlar o'zbek mumtoz adabiyotida nabiylik tarixiga alohida e'tibor berilganligi

ham seziladi. O'zbek adabiyotida nubuvvat mavzusi alohida bir badiiy-ma'rifiy hodisa hisoblanadi. Bunda tavsif tarixiy-falsafiy qarashlardan badiiy-estetik talqinlargacha shu ma'rifat ifodasi bilan bog'lanadi. XIV – XV asr, jumladan, Mavlono Atoiy she'riyati badiiy olami ham nubuvvat madhi ifodasi bilan ziynat topgan noyob adabiy meros sifatida qimmatlidir.

Xulosa qilib aytilganda, Mavlono Atoiy lirikasida nubuvvat olami mavzu va timsollari bilan ham, poetik ifoda va lirik manzaralari bilan ham turkiy-o'zbek adabiyoti uchungina emas, balki jahon badiiy tafakkuri uchun ham yorqin sahifa sifatida baholanishi lozim. Uni bugungi adabiy-estetik qarashlar ruhida tahlil etish esa ilm va zamon talabidir. Ikkinchi bir tomondan esa ahli nubuvvat timsollari badiiy talqiniga murojaat she'r va shoir abadiyatiga ham xizmat qiladi. Xuddi shunday bunda davr va Atoiy lirikasi ham boqiylikka daxldor ijod olami ekanligi namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

- Абу Наср Фаробий. 1979. *Шеър санъати*. Тошкент. Адабиёт ва санъат.
- Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. 1997. *Ал-жомиъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам)*. Тўрт томлик. Тошкент. Қомуслар бош таҳририяти.
- Атойи. 2008. *Девон*. Тошкент. Фан.
- Alisher Navoiy. 2012. *To'la asarlar to'plami*. O'n jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Гимаева, Аделя Равилевна. 2008. *Профетология Корана: истории пророков как элемент построения коранического текста*. Авт. канд. дисс. по филол. наук. Москва.
- Навоий асарлари луғати. 1973. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Рафиддинов, С. 1995. *Мажоз ва ҳақиқат (Атойининг поэтик маҳорати)*. Тошкент: Фан.
- Девони Шайхзода Атойи. 2008. Тошкент: Фан.
- Кароматов, Ҳ. С. 1994. *Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари*. Тошкент: Мерос.
- Қуръони Карим. 1992. *Ўзбекча изоҳли таржима (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур)*. Тошкент: Чўлпон.
- Қобилов, У. У. 2023. *Профетология ва ўзбек адабиёти*. Самарқанд. СамДУ нашриёти.
- Қобилов, У. У. 2001. *Нубувват ҳақиқати – бадий ижод руҳи*. Самарқанд. СамДУ нашриёти.
- Ҳожиаҳмедов, А. 1998. *Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия*. Тошкент: Шарқ.

Artistic Interpretations of Imagery and Symbolism in Mavlono Atoiy's Poetry

Usmon Qobilov¹

Abstract

Turkic poetry, as an integral component of Eastern literature, developed on the basis of long-established traditions over many centuries. In the artistic expression of themes, various modes of imagery were created, whereby objects, actions, and states were transformed into symbolic images. As a result, a figurative interpretation of life, transferred into poetry through artistic thinking, emerged. These elements persisted for centuries in the form of conventional symbols, images, and established patterns, passing from one generation of creative production to another. As noted by Alisher Navoi, one of the prominent representatives of Turkic poetry, Mawlono Atoiy's works are particularly noteworthy for their distinctive articulation of these traditions.

This article is devoted to the study of artistic imagery in the poetry of Mawlono Atoiy, one of the representatives of Turkic-Uzbek literature. It examines the symbolic and metaphorical expressions employed in the interpretation of prophetic (nubuvvat) motifs effectively depicted in Atoiy's lyric poetry. In addition, the article analyzes Atoiy's artistic mastery, his distinctive poetic style, and the original and refined similes created by the poet from new critical perspectives.

Key words: *artistic image, symbol, metaphor, poetic art, prophecy, prophetic image, interpretation, ghazal, couplet, tradition, artistic image.*

References

- Abu Nasr Farobiy. 1979. *She'r san'ati*. Toshkent. Adabiyot va san'at.
- Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. 1997. *Al-jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam)*. To'rt tomlik. Toshkent. Qomuslar bosh tahririyati.
- Atoiy. 2008. *Devon*. Toshkent. Fan.
- Alisher Navoiy. 2012. *To'la asarlar to'plami*. O'n jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Gimaeva, Adelya Ravilevna. 2008. *Profetologiya Korana: istorii prorokov*

¹ Usmon U. Qobilov – Doctor of Philology, Professor, Samarkand State University.

E-pochta: usmonqobilov82@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7940-8823

For citation: Qobilov, U. U. 2025. "Artistic Interpretations of Imagery and Symbolism in Mavlono Atoiy's Poetry". *Golden scripts* 2: 49 – 67.

kak element postroeniya koranicheskogo teksta. Avt. kand. diss.
po filol. nauk. Moskva.

Navoiy asarlari lug'ati. 1973. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot
va san'at nashriyoti.

Rafiddinov, S. 1995. *Majoz va haqiqat (Atoyining poetik mahorati).*
Toshkent: Fan.

Devoni Shayxzoda Atoyi. 2008. Toshkent: Fan.

Karomatov, H. S. 1994. *O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari.* Toshkent:
Meros.

Qur'oni Karim. 1992. *O'zbekcha izohli tarjima (tarjima va izohlar muallifi
Alouddin Mansur).* Toshkent: Cho'lpon.

Qobilov, U. U. 2023. *Profetologiya va o'zbek adabiyoti.* Samarqand. SamDU
nashriyoti.

Qobilov, U.U. 2001. *Nubuvvat haqiqati – badiiy ijod ruhi.* Samarqand.
SamDU nashriyoti.

Hojiahmedov, A. 1998. *She'riy san'atlar va mumtoz qofiya.* Toshkent: Sharq.

Xusrav Dehlaviy debochalari: an'ana va o'ziga xoslik

Farida Karimova¹

Abstrakt

Maqolada Xusrav Dehlaviyning lirik merosi jamlangan devonlari debochalari tadqiq ettilgan. Lirik merosini besh devonga jamlagan shoir ularning har biriga debocha yozgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Dehlaviyning 9661-raqamli "Kulliyot"i, 178-raqamli "G'urrat ul-kamol" devoni qo'lyozmalari saqlanadi. Mavjud qo'lyozmalarga shoirning "Tuhfat us-sig'ar", "Vasat ul-hayot" va "G'urrat ul-kamol" devonlari kiritilgan mazkur qo'lyozmalardan devonlarga bitilgan debochalar bilan nanishish mumkin.

Xusrav Dehlaviy hayoti va ijodini o'rganishda bu debochalarning o'rni muhim. "Tuhfat us-sig'ar", "Vasat ul-hayot" devonlari debochalarida shoirning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar va, ayni haytda bugungi fan uchun zarur ma'lumotlar – shoir adabiy-estetik qarashlari o'rin olgan. "G'urrat ul-kamol" debochasi hajman katta va unda shoirning badiiy ijod masalalari haqidagi adabiy-nazariy fikrlari izcil bayon qilingan. Bu debochalar forsiy debochanavislikning yuksak namunasi sifatida qimmatlidir.

Kalit so'zlar: *devon, debocha, qo'lyozma, "Tuhfat us-sig'ar", "Vasat ul-hayot", "G'urrat ul-kamol", ijodkor evolyutsiyasi, adabiy-estetik qarashlar.*

Kirish

Forsiy adabiyotining yirik vakili Yaminiddin Abulhasan Xusrav Dehlaviy nafaqat shoir, balki xamsanavis, tarixnavis, adabiyotshunos, bastakor sifatida o'z zamonasida va keyingi davrlarda katta shuhrat qozongan ijodkor edi. Amir Xusrav mumtoz Sharq she'riyatining deyarli hamma janrlarida ijod qilib, ulkan adabiy meros qoldirgan. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, "Fozillar Amir Xusrav devonini jam qila olgan emaslar. Sulton Boysunqur Bahodirxon Amir Xusrav she'rlarini jamlashda ko'p sa'y-harakatlar qildi va o'sha paytda 120 ming baytdan ziyod she'ri

¹ Karimova Farida Isakovna – Namangan davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori.

E-mail: faridakhank@mail.ru

ORCID ID: 0000-0000-0000-0009

Iqtibos uchun: Karimova, F. I. "Xusrav Dehlaviy debochalari: an'ana va o'ziga xoslik". *Oltin bitiglar* 2: 68 – 88.

to'plandi. Keyinchalik Xusrav g'azallaridan devoniga kirmagan yana ikki ming bayt topdilar. Tahqiq qilib ko'rdilarki, Amir Xusravning barcha she'rlarini to'plash amrimaholdir" [Самарқандий 1981, 88]. U shoirning lirik merosi hajmi xususidagi fikrlarini davom etib, Amir Xusrav risolalarining birida she'rlarining 500 ming baytdan kamroq, 400 ming baytdan ortiqroq ekanligini ta'kidlaganligini aytadi. Umuman, ko'pchilik manbalarda e'tirof etilishicha, shoirlardan hech biri o'zidan keyin Amir Xusravchalik she'r yozib qoldirmagan.

Hirot adabiy muhitida Xusrav Dehlaviy asarlari, xususan, lirik merosi juda mashhur bo'lgan. Uning "Xamsa"si sevib o'qilgan va qasida, g'azal hamda masnaviylari adabiy munozaralarga sabab bo'lgan. Xususan, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"ning sakkizinchi majlisiga ilova tarzida berilgan Xusrav Dehlaviy bayti xususidagi bahs fikrimiz dalilidir [Навоий 1997, 206 – 208]. Shuningdek, shoir asarda Mavlono Zohidiy, Mavlono Abdulqahhor, Zova Qozisi, Mirxond kabi adiblarning Xusrav Dehlaviy ijodiga ergashganliklari, uning qasida, g'azal va masnaviylariga tatabbu' yozganliklari haqida ma'lumot beradi [Навоий 1997, 23, 37, 58, 91]. Husayn Boyqaro ham Xusrav Dehlaviyning adabiy merosi bilan qiziqqan va uning g'azallarini zavq bilan o'qigan, 18 ming baytdan iborat she'rlarini yig'dirib devon tuzdirgan. Jumladan, Alisher Navoiy ham bir qit'asida Amir Xusravni g'azalchilikdagi ustozlaridan biri sifatida shunday ta'riflaydi:

G'azalda uch kishi tavrdir ul nav'

Kim, andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.

Biri mo'jiz bayonliq sohiri Hind

Ki, ishq ahlini o'rtar so'zu holi... [Навоий 1990, 516].

Navoiy shoirning ishqni kuylashdagi mahoratiga, tilining shirinligiga, g'azallaridagi chuqur lirizmga yuksak baho bergan edi. Boshqacha aytganda, Navoiy g'azaliyotining bu darajadagi rivojida Amir Xusravning alohida o'rni bor.

Xusrav Dehlaviy umri davomida yozgan she'rlarini umr fasllariga moslab besh devonga tartiblagan:

1. "Tuhfat us-sig'ar" ("Yoshlik tuhfasi"). Bu devon Amir Xusravning 19 yoshgacha bo'lgan davrda yozgan lirik she'rlarini o'z ichiga oladi. Uni shoirning do'sti Tojiddin Zohid 1271–1272-yillari tadvin etgan.

2. "Vasat ul-hayot" ("Hayot o'rtasi"). Shoirning 20 yoshdan 34 yoshgacha bo'lgan davrda bitgan she'rlari mazkur devondan o'rin olgan va u 1284-yili to'plangan.

3. "G'urrat ul-kamol" ("Kamolotning boshlanishi"). Bu

shoirning eng katta devoni. Mazkur uchinchi devonga 34 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan davrdagi she'rlar kiritilgan. Devon 1294-yilda tartiblangan.

4. "Baqiya un-naqiya" ("Saralarning sarasi")da shoirning 40 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan davrda yozgan she'rlari jamlangan. Devon 1317-yili tuzilgan.

5. "Nihoyat ul-kamol" ("Kamolot cho'qqisi") devoni Amir Xusravning 64 yoshdan umri oxirigacha bitilgan lirik she'rlarini o'z ichiga oladi. Devon shoir vafotidan ikki oy oldin to'plangan.

Amir Xusravning 32645 baytdan iborat she'riy merosi, asosan, mana shu besh devonga jamlangan. Devonlar janr jihatidan rang-barang. 2000dan ortiq g'azal, 300ga yaqin qasida, 20ga yaqin masnaviy, 1200dan ortiq ruboiy, 500ga yaqin qit'a va boshqa janrlardagi she'rlar mazkur devonlarning asosini tashkil etadi. Shoir o'z devonlari bilan Sharqda mutaaddid, ya'ni ko'psonli devonlar tuzish an'anasini boshlab bergan. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy bu an'anani davom ettirib, devonlarini shu tartibda tuzdilar.

Xusrav Dehlaviy devonlari manbalari va ulardagi debochalar matni

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida shoir devonlarining 50dan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud. Ularning noyob nusxalaridan biri XIV asrda ko'chirilgan bo'lsa, ikkinchisi mashhur shoir Hofiz Sheroziy tomonidan kitobat qilingan. Ba'zilar yuksak san'atkorlik bilan ko'chirilgan va ziynatlangan. Shulardan biri – 178-raqam ostida saqlanayotgan va shartli "Kulliyot" deb nomlanadigan nodir nusxa XIV asrda zamonasining yetuk xattotlari tomonidan yirik suls xatida ko'chirilgan [Дехлавий. №178].

Sharq qo'zyozmalari katalogining II jildida mazkur qo'lyozmani tavsif etgan olimlar quyidagi ma'lumotni keltiradilar: "Asarning boshlanishida katta so'zboshi (1a-60b) bo'lib, oralarida arab tilida yozilgan sitatlar va she'riy parchalar keltirilgan. Bu Amir Xusravning hayoti va ijodi haqida o'zi tomonidan yozilgan alohida nasriy asar ham bo'lishi mumkin" [CBP 1954,113]. Lekin shoirning o'zi "G'urrat ul-kamol" devoniga yozilgan bu so'zboshini debocha deb e'tirof etadi [CBP 1954,113]. Boshqa devon debochalariga qaraganda, mazkur debocha shoirning adabiy-estetik qarashlarini keng ifoda etishi bilan diqqatga sazovor. Lekin debochaning boshlanish qismi mazkur nusxada saqlanmagan. Bu haqda Q.Munirov shunday

yozadi: "Nusxaning avvali va oxiri suqutli bo'lib, uni 9661-raqamli qo'lyozma bilan solishtirib ko'rganimizda, asar avvalidan 1 (bir – F.K.) varaq tushib qolganligi aniqlandi" [CBP 1954, 113]. Shuningdek, u hajmi va qo'yilgan masalalar doirasi jihatidan ham avvalgi devon debochalaridan farqlanadi. Shu bois qo'lyozmani tavsiflagan olimlar alohida asar bo'lishi mumkinligini taxmin qiladilar.

Mazkur fondda 9661-raqam ostida shoirning ikkinchi kulliyoti saqlanadi [Дехлавий, 9661]. Bu kulliyotga Amir Xusravning "Tuhfat us-sig'ar" (1b–4b), "Vasat ul-hayot" (40b–45b), "G'urrat ul-kamol" (106b–147b) devonlariga yozilgan debochalari, g'azal, qasida va ruboiylari (1b–640b) kiritilgan. Mazkur nusxa hoshiyasiga uning "Xamsa"si yozilgan. Bu kulliyotning 106b-varag'idan 235b-varaqqacha bo'lgan qismida "G'urrat ul-kamol" devoni joylashgan. Tadqiqotlar jarayonida 178-raqamli qo'lyozmadagi debochaning boshlanish qismi shu nusxada saqlanganligi aniqlandi. Sh. Shomuhamedov va B.Musayev shoirning har besh devoniga debocha yozganligi haqida ma'lumot bergan bo'lsalar-da, Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Baqiya un-naqiya" va "Nihoyat ul-kamol" devonlarining debochali nusxalari uchramadi. Lekin matnshunos olim M. Imomnazarov "Nihoyat ul-kamol" devoni "chog'roq debocha bilan boshlanishi, undan, asosan, Alloh qudratinig vasfi va Nizomiddin Avliyo madhi joy olgan"ligi xususida xabar beradi [Имомназаров 2022, 249].

Mazkur qo'lyozmaning 1b–4b-varaqlarida "Tuhfat us-sig'ar" devoni debochasi joylashgan. Xusrav Dehlaviy debochani hamd-u sano bilan boshlaydi. Avvali-yu oxiri, ibtidosi-yu intihosi bo'lmagan Zotga hamd-u sano aytish asnosida "maxluqot va masnu'otni chiroyli yaratish bilan adam (yo'qlik) olamidan vujud (borliq) olamiga" olib kelganligini, ular orasida insonni ulug' va baland rutbada yaratganligini ta'kidlaydi, borliqning yaratilishidagi yuksak mutanosiblikni vasf etadi: "Osmon daftari-yu va zamin jaridalarini (varaqlarini) nur va zulmat bayozlari (oq-u qora ranglar) bilan mundarij (izma-iz) qildiki, uning mohiyati va sifatini vasf qilishda qalam tili ojizlik qiladi. So'ngra oqil insonlar zimmasiga uning haqiqatini kashf qilishni yukladi va doimo abadiy (Lo mavt) sir-asrorlarini uning xil'ati (to'ni) qildi, malak va malakut (farishtalar olami)ni uning (insonning) ulug'vorligi oldida past darajada qilib qo'ydi. Qanday go'zal Hakim zotki, o'z hukmi bilan necha minglab harflar (ismlar)ni loydan yaratilgan inson zotiga bildirib qo'ydi va amri bilan falaklardagi barcha sir-sinoatlarni unga oshkor qildi" [Дехлавий, 9661, 1b]. Shoir Allohning borliqni yaratishdan

maqsadi inson ekanligi, shu maqsadda, avvalo, dur-u gavhar kabi yorqin Payg'ambarimiz nurini yaratganligini, undan barcha mahluqotlar, dunyo va oxirat vujudga kelganligini madh etadi: "Ahmad" ismining yozilishida hech bir nuqtasi bo'lmasa-da, "Agar sen bo'lmaganingda olamlarni yaratmas erdim" (Lav laka lama xolaqtul-aflok – Hadisi qudsiy) sharafigan sipehr doirasida (koinot olamida) bir nuqta durdek yorishgan. Ba'zi hukamolar nazdida esa, dastlab garchi uning vujudi hali paydo bo'lmasa-da, Muhammadiy (s.a.v.) vujudining nuqtasi (duri, gavhari,) yaratilmishdir. Yo'qlik (adam) olamidan paydo bo'lgan mazkur durni mavjudot olamini (butun yaratilmishlar) makoni bo'lgan koinot – olamining markaziga mador – o'q, asos, manba qilib qo'ydi, bu bebaho durning amali to yo'qlik olami (qiyomat) sari yuz tutguncha davom etajakdir" [Дехлавий, №9661, 1b – 2a].

Hamd-u sano va na'tdan so'ng shoir "o'zimning nazm va nasrdagi so'zlarim vasfini sof ta'bim xayolidan o'tkazdim" va "ta'bim tufayli yuzaga kelgan namuna she'rlarimni hakimlar taxayyulotiga (hukmiga) havola qilsam, degan bir istak tuydim" [Дехлавий, №9661, 2a], – deb yozadi.

Debochada shoir tabiatdagi to'rt unsur (tuproq, suv, havo, olov)ga mos ravishda inson tab'i ham to'rt xilligi xususida mushohada yuritadi. Ijod tabiatini to'rt unsurga qiyoslagan shoir go'zal tashbehlar orqali to'rt devonidagi g'azallari va ularning o'ziga xos jihatlar haqida xabar beradi. Shoirning fikricha, g'azaliyotning to'rt martabasi bor: "...avvalgi martabasi tuproqqa o'xshab kasif (past) va nozikdir. Badiiylilik va go'zallikning ne'mati (timsoli) bo'lmish g'azallar bu davrda quruq va sovuq takallufotlarning kashfi sifatida past darajaga mayl qiladi. Ushbu avvalgi devonim – "Tuhfat us-sig'ar"dagi dahr osmonining boshqa bolalari bilan tuproq o'ynashga rag'bati bo'lgan bolalik davrim mahsullari bo'lgan ayrim g'azallarim bunga dalildir" [Дехлавий, №9661, 2a].

Ikkinchi martabadagi g'azallarni shoir shunday e'tirof etadi: "Ikkinchi martabadagi g'azallar suvga o'xshab latifdir. "Vasat ul-hayot"ning o'rtasi issiq va ho'ldir, go'yo tab' otashidan o'tgan suv kabidir. Uning holati xuddi suvning havo holatiga yetishiga ... o'xshaydi [Дехлавий, № 9661, 2b].

Shoir uchinchi martabadagi g'azallari "G'urrat ul-kamol" devonidan o'rin olganligini ta'kidlaydi: "Uchinchi martaba – shamolga o'xshash g'azallar bo'lib, ular issiq suv va namlik xususiyatiga egadir. Va bu g'azallar latifroq va ravonroqdir, hech qachon uning bu holatlariga xalal yetmaydi. Shuningdek, ushbu

g'azallar issiq shamolga ham o'xshaydiki, ular latif suvga o'xshaydigan g'azallardan ham ravonroqdir. Ular oliy darajada bo'lib, o'zining otashin ta'bidan juda ko'p quvvat topgandir. Bu devonim "G'urrat ul-kamol" dirki, undagi g'azallar ushbu martabaga mosdir" [Дехлавий, № 9661, 2b].

To'rtinchi devon – "Baqiya va naqiya"dagi g'azallar to'rtinchi martabaga xos va xuddi otash kabidir: "...harorat – otashning xosiyatidir. Xuddi otash yumshoq ko'ngillar uchun paxtaga tushgan cho'g' kabidir: yumshoq ko'ngillar xuddi paxtaga olov tushganidek yemiriladi, temir ko'ngillarni esa bir oz yumshatadi. Va agar ishq o'rnashib olgan ko'ngil bo'lsa, uni yaxshilab kuydiradi va uni kulga aylantiradi. "Baqiya un-naqiya"ning g'azallari agarda hayotim shu'lasidan biror bir ravshanlik qolsa va ta'bim otashi vafo qilsa va mash'ala kabi yonib tursa, umidim shuki, ushbu kuydiruvchi g'azallardan-da baland haroratga ega asarlarni yuzaga keltirajakmanki, xuddi uning yondiruvchi shu'lasini oyning xirmanidan ham o'tib, Atorudning xo'shachiniga yetgay" [Дехлавий, №9661, 2b].

Xusrav juda yoshligidan she'r yozishni mashq qila boshlagan. Bu haqda uning o'zi "G'urrat ul-kamol" devonida "...tish tushadigan bolalik chog'larimda she'r aytardim va og'zimdan gavhar tomardi" [Дехлавий, №178, 3a], deb e'tirof etadi. "Tuhfat us-sig'ar" debochasida yoshlik chog'larida maktabda qanday tahsil olganligini bayon qiladi: "Xullasi kalom, otam (meni) o'qish uchun maktabga yubordi va men qofiyani takrorlardim. Ustod Sa'diddin Muham-mad xattot Qoziy a. r. urfi bo'yicha husnixatdan saboq berardi. Men husnixat bilan quyidagi baytni yozdim:

*Har chand davvoli zulfi pechon bar po'shti poy fo'rud ovarad,
Az pechoki zulf va savdoi'yi xol ro'y bar nametoftam.*

(Zulfig buramasi oyog'ing tubigacha sollanib turar ekan, Zulfigning buramasi-yu, xoling savdosidan yuzimni burolmayman).

Natijada bolalik chog'larimda kattalar taajjubda qoladigan she'r va g'azal ijod qilardim..." [Дехлавий, № 9661, 3b].

Kunlardan bir kun shahar hokimining o'rinbosari Xoja Asil xattot Sa'diddin Muhammadni o'z uyiga chaqirtiradi. Sa'diddin bilan Xusrav ham birga boradi. Xoja Asilnikida mehmonlar orasida Xoja Izaddin ham o'tirar edi. Shoirning e'tirof etishicha, Xoja Izaddin bilan ustozining oshnoligi bor edi. Sa'diddin shogirdi Amir Xusravni Xojaga tanishtirib, she'riyatga oshiqqligini va yaxshi she'r o'qishligini aytadi: "Gohida tong paytlari ustozimni qal'a boshlig'i Xoja Asil

noma yozdirish uchun chaqirtirar edi. Men ham qo'limda qalamdon va siyoh bilan ularga ergashardim. Qutvolning xonasida Xoja Izaddin safina (qalamdon, siyoh va boshqa moslamalar turadigan idish, organayzer) yonida o'tirardi. Ustozim ul buzurgvor zotga dedi: – Bu kichkina yigitcha mening shogirdimdir. Kichiklikdan nazm – she'riyatga behad jidd-u jahd bilan kirishgandir. Uning she'r o'qishi, xuddi eshkak eshishi bilan bir xil tezdir. Qayiqni uning qo'liga topshirish kerak, dengizlardan qanday kechib o'tishini kuzataylik”) [Дехлавий, № 9661, 3b].

Xoja uning qo'liga devon tutqazib, she'rlardan o'qishni buyuradi. Xusrav musiqaga moyil mayin va sehrli ohangda g'azal-larni o'qirkan, majlis ahlining olqishiga sazovor bo'ladi.

(Tarjimasi: “Shunda ular kengashib, “toki mening tab'imni qaysi darajada ekanligini xuddi oynadek ravshan ochiq-oydin bilish uchun imtihon qilish kerak” degan xulosaga kelishdi. Xoja Izaddin bir-biriga nomunosib bo'lgan to'rtta so'zni aytdi: mo'y (soch), bayza (urug'), tir (o'q) va xarbo'za (qovun). Majlisga yig'ilganganlar huzurida ushbu bayt o'qildi:

Har mo'yi ki dar zulfi xami on sanam ast.
Sad bayzai anbarin dar on mo'yi sanam ast.
Chun tir bar on rost dilash ro, zero,
Chun xarbo'za dandonash daruni shikam ast”.

Ikki zulfin har **mo'yida** bu xush sanam
Yuzlab anbar **urug'ini** qilmishdir zam.
O'qday to'g'ri deya bilma dilin, chunki
Qovun kabi tishi uning ichida jam

[Shomuhamedov tarjimasi, 1984, 118; Дехлавий, № 9661, 3b].

Yosh Xusrav Xojaning savollariga javob berib, ismi Xusrav, otasining ismi Lochin turk xutbachi ekanligini aytadi. Ko'rinadiki, juma va hayit namozlaridagi xutbaga mamlakat podshohining nomi ham qo'shib o'qilgan va shoirning otasi bu vazifani ham bajargan. Odatda, mamlakat podshohining nomi xutbaga qo'shib, uning hukmronligi e'lon qilingan. Majlis ahllaridan Sulton Shamsiy Xusravning shoirlik iste'dodi va quvvayi hofizasidan qattiq ta'sirlanib shunday deydi: “Xitob xutbasi sultonni madh etish bilan bo'ladiki, she'r xitobni ifodalovchi san'atdir. Xutba o'qishdan boshqa chora yo'qdir, sen bu yo'lda bir xil suratda sobitqadam bo'l. ...shoirlikni mahkam ushla. Dirhamga unchalik ham ko'ngil qo'yma. Ushbu so'zlarimni xuddi dirham kabi ko'nglingga naqsh qilib olginki, shoyad bir kun kelib senga “so'z mulking” sohibi sifatida xutba

o'qishsin. Bu shuhrat boshqa shoirlarda bo'lmagay" [Дехлавий, №9661, 3b]. Bu yosh Xusrav Dehlaviyning shoirlik iqtidori va iste'dodiga berilgan yuksak baho va kelajagidan bashorat edi. Badihatan aytilgan bu ruboiy orqali yosh shoir ustozlar e'tiboriga tushadi.

Shundan so'ng tildagi nozikliklarni xuddi soch tolalari kabi so'z zulfiga terganligi hamda behisob ma'nolarni yig'ishga va nozik iboralarni to'plashga muvaffaq bo'lganligi, ya'ni mazmun va shakl uyg'unligidagi go'zal she'rlar bitganligi haqida xabar beradi. Ammo balog'at yoshiga yetmaganligi uchun mazkur she'rlarni yaxshilab sayqallash lozimligini ta'kidlaydi. Shoirning aytishicha, bu vazifani do'sti Tojiddin Zohid bajargan: "...she'rlar turrasi (kokili)ga sayqal berishda tabiatan daqiqnazar Zohid birodarim mashshota misol ul parishon holatdagi soch turmaklarini bir joyga jamlab, sayqal qalami bilan oro berdi [Дехлавий, № 9661, 4a].

Manbalarda Dehlaviyning birinchi devoni uning do'sti Tojiddin Zohid tomonidan tuzilganligi va devonga shoirning 16 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan davrda yozgan she'rlari kiritilganligi haqida ma'lumot beriladi [Дехлавий, №9661, 4a]. Debochada esa shoir 16 yoshdan 19 yoshgacha yozgan she'rlarini do'sti "birovning ko'zi tushmasin uchun" bir chekkaga olib qo'yganligini, lekin "bu safina (qayiq)ni uni suvga oqizish maqsadida tuzganman deya" ulardan o'zi bir majmua – devon tuzganligini ta'kidlaydi. Bundan birinchi devon Tojiddin Zohid emas, balki shoirning o'zi tomonidan tuzilgan, degan xulosa kelib chiqadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, shoir "G'urrat ul-kamol" debochasida "kotibi ruq'atullohi birodari Alouddin Alishoh" she'rlarini to'plab devon tuzishni va "komil debocha" bilan bezashni taklif qilganligi, shundan so'ng "Tuhfat us-sig'ar" va "Vasat ul-hayot" devonlarini tartiblagani haqida xabar beradi.

"Tuhfat us-sig'ar" debochasida shoir to'plamdagi she'rlarni tahrirdan o'tkazgani, har bir g'azalining boshiga baytlar bitgani, devondagi g'azallarga xos bu xususiyat o'z uslubining xarakterli jihatlaridan ekanini ta'kidlaydi: "Har bir she'rning boshiga xuddi bulbul sifat bosh bayt bitdimki, chunonchi devonning matla'sidan to maqta'sigacha shunday takrorlanadi. Agar jumlalarda shunday o'ziga xoslik ko'zga tashlanmasa, bilingki, mazkur she'r ushbu safina – to'plamdan emas. Agarda safinada ushbu holat suv zanjiri (irmog'i) kabi davom etmasa, bilingki, bu naqshu nigor kotibning qalamiga mansubdir.

Varaqlarim nomini "Tuhfat us-sig'ar" deb qo'yib,

Uni jamlashda bir nechta qog'ozni qoralama qildim"

[Дехлавий, №9661, 4a].

Xusrav Dehlaviy adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan "E'jozi Xusraviy" asarida so'z san'atidagi to'qqiz uslub haqida mulohaza yuritadi va o'z uslubini o'ninchi uslub, deb e'tirof etadi [Низомова 2006, 14]. Haqiqatan ham, Dehlaviy uslubi she'r va ilm ahlini hayratga solgan. Ya'ni g'azallaridagi obrazlarning murakkabligi va badiiy barkamolligi, badiiy ifodalarning serjiloligi, fikrlarni pardali ifodalashga intilishning kuchliligi, go'zal she'riy san'atlar bilan ziynatlanganligi shoir she'rlarining mo'jizaviy qudratini ta'min etgan.

Mazkur qo'lyozmaning 40b–45b-varaqlarida shoirning ikkinchi devoni – "Vasat ul-hayot" debochasi o'rin olgan. An'anaga muvofiq, debocha Yaratuvchi hamdi bilan boshlanadi. Avvalgi debochada Allohning yaratuvchilik qudrati, barcha mavjudotlar ichida insonning darajasini baland va ulug'vor qilib qilib qo'yganligi xususida fikr yuritgan bo'lsa, "Vasat ul-hayot" debochasida esa insonni so'z ne'mati bilan siylaganligini zanjirli jumlar va go'zal tashbehtar bilan vasf etarkan, devondagi she'rlarning tabiatiga ham ishora qiladi: "Jon o'rtasidan chiqadigan haqiqiy hamdlar va dil o'rtasidan yorib chiqadigan sanolar ul Hakim va Hokim zotgakim, hikmat qalami bilan oliyqadr kalimalar va ne'matlarini hayot o'rtasi sahifalariga daqiq siyohlar bilan she'rlar bitdi. Go'zal san'atkorlik bilan sare' bahridan latif qaymoqlar – fikrlar suvning ustiga toshib chiqsin deya katta ummon paydo qildi" [Дехлавий, №9661, 40b].

"Tuhfat us-sig'ar" debochasida Nuri Muhammadiy butun olamning va barcha mavjudotlarning paydo bo'lishi uchun asos sifatida yaratilganligini ta'kidlagan bo'lsa, "Vasat ul-hayot" debochasida jamiki yaratilqlar ana shu nurdan yaralganligini e'tirof etish bilan birgalikda, Alloh barchaning ishlarida xayr bo'lishi uchun Rasulini vosita qilganligini bayon qiladi: "Xususan, Mustafo nuri bilan toki zalolat bodiyasida adashganlar o'z yo'lini topib olsinlar, deya to'g'ri yo'lni ko'rsatib qo'ydi" [Дехлавий №9661, 40b].

Hamd-u sano va na'tdan so'ng ijod jarayoni haqida xabar berib, "O'zining bezakli so'zlarini (she'rlarini)" "kamol arboblari-ning quloqlariga va kalom ahlining majlisiga" yetkazish uchun nazmga kirishganligini bayon qiladi: "Va husnkor g'azallar sehridan ta'sirlanib, bedorlar uchun so'z bulog'ini ochdim. Shuningdek, toshsiz tegirmon bo'lgan falakning puxta va nopuxta daqiqalari mening tabiatimda vaznga tushdi (she'rga aylandi)" [Дехлавий, №9661, 41a].

Xusrav Dehlaviy shu davrdagi ijodi haqida to'xtalib, g'azallar bilan birga ruboiy, qasida janrlarida ko'proq she'rlar yozganligi, ustod shoirlar izidan borib, chuqur mazmundor va go'zal badiiyatga yo'g'rilgan ajoyib she'rlar ijod qilganligi, natijada "kamolot sohiblarining rutbasiga yuz burgan"ligi, ya'ni qalami charxlanib borayotganligini e'tirof etadi. Shu kezlarda "ilm-u fazilat, xayolot olamining yagonasi va zamonasining peshvosi" Sadr ul-sharia Ma'shariddin Ariziyning "foydali saboqlariga musharraf bo'lish uchun" ularning huzurida quyidagi baytini o'qiganligi va tahsin-u olqishlarga sazovor bo'lganligini bayon qiladi:

Dar xanda chu chashmi masti tu noz kunad,
Az ro'yi tu gul pixtai og'oz kunad [Дехлавий, №9661, 41a].

Tarjimasi:

Kulganda sening mast ko'zlaringga o'xshab noz qilar,
Sening yuzingga gulbarglarni (to'kish bilan) og'oz qilar.

Shundan so'ng "so'z"i, ya'ni she'rlari bilan xalq orasida shuhrat qozonishni xohlagan shoir "hayotining tez va shitob oquvchi tabiiy seli suvdan ham ravon oqayotgan"ligi, dil tubidan qaynab chiqayotgan hissiyotlarini tinimsiz qog'oz sahifalariga to'kish orqali go'zal badiiy yuksak asarlar yuzaga kelayotganligi, shu bois "barcha yosh suxandonlar (so'zamollar) so'z so'zlashdan qo'llarini tortayotgan"ligini faxriya usulida ta'kidlar ekan, o'zining ijodiy evolyutsiyasi haqida xabar beradi. Shoirning badiiy ijod jarayonlari xususidagi qarashlari ham nihoyatda teran: "Shubhasiz, latif insholarning vasfini tasniflashning eng oliy yo'li yigitlik davridadir. Va shuningdek, zarif tasniflarning oliylari ham hayotning o'rta yasharlik davrlariga to'g'ri keladi" [Дехлавий, №9661, 41b]. Ya'ni latif she'rlarning dunyoga kelishi yigitlik davriga to'g'ri kelsa-da, o'rta yasharlik davrining ham o'z fazilatleri bor. Chunki insonning fikrlari, tasavvur va tushunchalari shu davrda tiniqlashadi. Shuningdek, shoirning badiiy mahorati ham ayni shu o'rta yoshda sayqal topadi.

Shoir fikrlarini obrazli tarzda davom etib yozadi: "So'z shakardirki, uning ulug'vorligidan sut tishlari uni chaynay olmaydi. Ammo yoshlar uning javohirdek ipga tizilgan shakarlarini chaynay olishlari kerak va bu ne'matni hazm qilishda ko'p harakat zarur bo'ladi. Ular uchun ushbu hunarda har dam bitta mushkulot yotadi, buning uchun ularning tishlari mustahkam bo'lishi kerak" [Дехлавий, №9661, 41b]. So'z, ya'ni she'rni shakarga tashbeh qilgan Dehlaviy yosh shoirlar so'zning "javohirdek ipga tizilgan

shakarlarini chaynay olishlari kerak”ligini, bu yo’lda katta mehnat qilishlari va ijodiy tajriba orttirishlari zarurligini uqtiradi. Shu o’rinda shoir “Bu alvon dasturxonning boshida umr 32ga yetmasdan bu lazzatlardan kom ololmadim”, – deyish bilan o’zining ko’pchilikni hayratga solgan g’azallari o’rta yoshlik davrida yaratilganligini e’tirof etadi.

Dehlaviyning fikricha, so’z (she’r) shoirning nomini boqiy qoldiradi. Shoir nomining zamonlar sahifasiga yozilmog’i uchun she’r puxta bo’lmog’i kerak. Lekin “go’daklik”dagi (yoshlikdagi) she’rlarning hammasi ham puxta bo’lavermaydi. Agar shoirning so’zi xom bo’lsa, puxta sanalmasa, ko’pchilikka manzur bo’lmaydi. Bunday so’zlar “sakkiz oylik go’dak kabidirki, unga tug’ilmoq hamon-u o’lmoq hamon (ularning umri qisqadir)”. Agar yaxshi she’r dunyoga kelsa, u gavhardir va gavharga qo’shiladi. Lekin “arpa paydo bo’lsa, konga qo’shib singib ketadi”. Yana go’daklik (yoshlik) davrida yoziladigan she’rlarning bir qusuri bor, ya’ni “nazm ifodasi”ning cho’zilishi bilan mazmunga putur yetadi va she’rning ta’sirchanligi kamayadi. Shundan so’ng shoir qiyoslash maqsadida keksalik davridagi ijod jarayonlari xususida fikr yuritadi. Inson hayotiga keksalik davri kirib kelganda, xayol duoda bo’ladi, inson vujudi kamolotdan to’xtab, umrning xazon fasli boshlanadi, mazmun va shakl uyg’unligi hamda badiiy barkamolligi jihatidan yuksak asarlar yaratish imkoniyati cheklanadi: “...har qanday oyina ham xayol oyinasini go’zal tasavvurlarga boy qila olmaydi. Til tig’ini ustiga tab’ xullasidan to’liq javohirlar olib, harfga kiygiza olmaydi, katta ta’sirchan iboralar chashmasini ham balog’atga yetkaza olmaydi. Basorat diydasi go’zal ma’no va suratni uyqusida ko’rolmaydi” [Дехлавий, № 9661, 42a].

Dehlaviy e’tiroficha, ma’nodan nishon bo’lmagan nazm joni yo’q suratga o’xshaydi. Ma’noga mos va xos shakl ham mukammal bo’lishi lozim. Shuningdek, ma’noni ifodalovchi so’z ham *xuddi* “fatvo barchaga umumiy – barchaga barobardir” qabilida ko’pchilikka tushunarli so’zlardan va barcha ilmlarda qo’llanuvchi xos iboralardan bo’lishi lozim.

Shoir ikkinchi devonini tuzish maqsadidan kelib chiqqan holda yoshlik va keksalik davrlarida yaratiladigan she’rlarning umumiy qiyosiy tavsifini berar ekan, go’zal she’rlar yozish uchun o’rta yasharlik yoshlik va keksalik davri orasidagi eng yaxshi vaqt ekanligini ta’kidlaydi. Chunki “Unda xatolar ustidan g’oliblik ko’p bo’ladi”. Shu bois “o’rtachalikni mavjudotning aqli deyishadi”, ya’ni aql ayni o’rta yasharlikda o’z cho’qqisiga erishadi. Buni

shoir payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.)ga 40 yoshda vahiy kelganligi haqidagi fikr bilan dalillaydi. Shu o'rinda shoir g'azallaridagi bir usul haqida so'z yuritadi. Shoir she'rda bir-biri bilan zanjirsimon bog'langan nozik va chuqur ma'nolarni san'atkorlik bilan ifodalashga e'tibor qaratishi lozim: "...bu shakldagi maxsus usul "mantiqiy nutq" deyiladi. Men undan biror ma'no chiqarsam, boshqalar ayni shu ma'noning yana nozik tomonlarini qilni ikkiga ajratgandek ochadilar, shu taxlitda so'zning nozikliklari namoyon bo'la boshlaydi" [Дехлавий, №9661, 43a]. Shoirning shu usul asosida yozilgan "obihayotdan ham tezkor va ravon g'azallar"i oshiqdar dardiga malham bo'lib, el orasida katta shuhrat qozondi.

Xusrav Dehlaviyning iste'dodi bu davrda shu darajada kamol topdiki, uning ma'shuqa go'zalligi, noz-u istig'nolari va oshiqning, dard-u iztirobga to'la his-tuyg'ularga tutashgan kechinmalari shoir badiiy vositalar bilan ziynat topib yuzlab otashin g'azallar, tarji'bandlar hamda boshqa nav' she'rlar yig'ildi. Shoir ularni to'plab devon tuzish istagi bo'lmaganligini ta'kidlaydi, buning boisi – barcha she'rlarni tahrir qilib, ulardagi qusurlarni bartaraf etish uchun "yaxshi saliq" zarur edi. Shoirning nazdida, shoh qasri uchun yig'ilgan la'l-u gavharlar (she'rlar)ning oyoq ostida qolishi to'g'ri emas. Shu bois yigirma to'rt yillik mashaqqatlar samarasi bo'lgan ikkinchi devonini tartiblab "Vasat ul-hayot" deb ataydi: "Bularning barchasi hayotning latif qaymoqlaridan olingan latifliklar bo'lganligi va yigitlik jununliklaridan misollar, o'rta yasharlikdagi komronliklarning katta yo'li bo'lganligi uchun bu faraxnomam shodlikka sabab bo'ldi. Bu so'zlar (she'rlar)ni hayotim o'rtasida aytganim uchun uni shodonlik bilan "Vasat ul-hayot" deb atadim" [Дехлавий, №9661, 43b]. Debochada ta'kidlanishicha, "Tuhfat us-sig'ar" devonidagi kabi mazkur devonda ham har bir she'r boshiga she'riyat sifati haqida sarlavha qo'yilgan.

Alisher Navoiy "Favoyid ul-kibar"devonidagi mashhur qit'asida Xusrav Dehlaviy oshiqona g'azallari bilan ishq ahli qalbini o'rtagan hind sehgari, deb e'tirof etgan edi [Навоий 1990, 516]. Bunday e'tiroflarni Navoiyning boshqa asarlarida ham uchratamiz. Shu jumladan, debochada "...barcha misralarda oshiqona ruh ufurib turadi" deya, she'rlarining umumiy mavzu doirasini hamda o'z uslubining muhim qirrasini belgilab beradi.

"Tuhfat us-sig'ar" devonidagi she'rlar boshqacha uslubda bo'lgani kabi "Vasat ul-hayot"dagi she'rlar ham ayricha uslubda yozilgan. "Bundan maqsad devondagi she'rlarni oson yodlab olishdir". Demak, shoir g'azallarini oson yodlashdan tashqari,

ularning uslubiga qarab qaysi devonga mansubligini aniqlash ham mumkin.

Gʻazallarda taxallus qoʻllash anʼanasi

Mumtoz sheʼriyatda, asosan, gʻazallarda taxallus qoʻllash anʼanasi odat boʻlgan. „..taxallus lugʻatta xalos boʻlmoqtur, ...taxallus deb shoir oʻzining nomin yoki laqabin kiritgan baytni ayturlar, va ani shoir baytga kiritgan nom yo laqabning oʻziga nisbatan ham qoʻllarlar” [Хусайний 1981, 253]. Ijodkorlar tugʻilgan yoki yashash joyi, kasbi, yashash tarzi, qismati, turli sifat va xususiyatlarga nisbatan taxallus tanlaganlar. Taxallus qoʻllashning ahamiyati shundaki, devon yoki boshqa manbalardagi sheʼrlarning kimga taalluqli ekanligi anglashilgan. I. Braginskiyning taʼkidlashicha, dastlab taxallusning albatta oxirgi baytda kelishi shart boʻlmagan, X–XI asrlardan boshlab taxallusni soʻnggi baytda berish odat tusiga kirgan [Брагинский 1972, 169 – 170].

Dehlaviy debochada taxallus qoʻllash xususida toʻxtab, oʻzidan oldin oʻtgan shoirlar odatlari boʻyicha sheʼrning oxirgi baytida taxallus yoki mamlakat shohi, zamonasining peshvolari yoki davrining sarvarlari nomlari keltirilishini taʼkidlaydi. Shuningdek, xitob yo madh etiladigan kimsaning nomi keltiriladigan bayt taxallus qoʻllangan baytdan keyin keladi va bu uslubga oʻziga xoslik bagʻishlaydi: *“Agarda baytda xitob yo madh etiladigan kimsaning nomi keltiriladigan boʻlsa, mazkur bayt taxallus keltirilgan baytdan keyin keltiriladi. Va bunday uslub bagʻoyat ajoyib va gʻaroyibki, bu zaif banda ham mazkur usulni oʻziga odat qilib oldi hamda oʻzining barcha sheʼrlaridagi taxalluslarni bezadi”* [Дехлавий, № 9661, 44^a].

Xusrav Dehlaviyning “Tuhfat us-sigʻar” devonidagi gʻazalarning matniy tadqiqi ustida izlanishlar olib borgan matnshunos B. Musayev 99 gʻazalda maqtaʼda, 8ta gʻazalda esa maqtaʼdan oldingi baytda taxallus qoʻllanganligini qayd etadi [Мыцаев 2020, 61]. Bundan koʻrinadiki, mazkur uslub shoir ijodining keyingi bosqichlarida rivoj topgan. Dehlaviyning fikricha, bu holat shoir gʻazaliyoti uchun xarakterli boʻlib, shoirning oʻzi buni uslubini belgilovchi jihatlaridan biri ekanligini eʼtirof etadi. Shu oʻrinda shoir uslub haqida toʻxtalar ekan, u ijodkor olamiga kirish eshigidir, deydi. Uslub oʻz-oʻzidan shakllanmaydi, balki shoirning oʻz ustida jiddiy ishlashi, zahmatli mehnati bilan bogʻliq: “Boshqalar unda qanday uslub boʻlsa shunga ergashishadi va shu uslub soʻzamollik maydoniga kiruvchi bir eshik boʻlib, uni hosil qiluvchi narsa jidd-u jahddir. Zero, biror devon yaratishga yoki kitob taʼlif qilishga har kimning ham tabʼi noziklikda

o'z didi, qarashi va uslubi bo'lmaydi" [Дехлавий, № 9661, 44b].

Dehlaviy uslubining shakllanishida zamonasining mashhur shoirlari, xususan, Afzaliddin Badil Xoqoniyning o'rni alohida. Shoir o'zidan oldin o'tgan ustoz shoirlarning g'azalchilik sohasidagi tajribalarini chuqur o'rganganligi, shu asnoda "yuz minglab la'l-u marjonlarni ipga tizganligi", ya'ni yuzlab g'azal va boshqa janrdagi she'rlar yozganligini bayon qilar ekan, zamonasining ulkan so'z san'atkori Afzaliddin Badil Xoqoniy ijodi xususida fikr yuritadi. Nazm borasida yuksak iste'dodga ega bo'lganligi bois "uning mulkiga daxl qiluvchilar", ya'ni uning she'rlariga tatabbu' qiluvchilar kam topiladi. Lekin Dehlaviy katta jur'at bilan shoirning g'azal va tarje'bandlariga tatabbu'lar bitadi. Ayniqsa, uning qofiya borasidagi topilmalari shoirni hayratga soladi. Shu o'rinda shoir ustod Xoqoniy ijodidan ko'p saboqlar olganligini e'tirof etarkan, o'z uslubida ustod uslubiga xos qirralar mavjudligiga e'tibor qaratadi: "she'rning nomini she'r oxiridagi bir baytga qo'shib yuboraman, toki u she'r mazkur nomda o'qilsin".

Dehlaviyning fikricha, she'r shoir nomini boqiy qoldiruvchi bir vositadir. Shoirning o'zi bu hayotdan ko'z yumsa-da, uning ko'ngli, ya'ni dilidan qaynab chiqqan so'zlari – she'rlari hech qachon o'lmaydi:

Nekutar chize andar she'r nom ast,
Ki monad zinda z-in naqshi siyohiy.
Tani Xusrav bamirad in yaqiyn ast,
Dili Xusrav namirad hech gohiy [Дехлавий, № 9661, 44b].

(Mazmuni: She'r bilan qoladigan eng yaxshi narsa, bu – nomdirki, ushbu qora siyoh bilan tirik qoladi. Xusravning tani o'lishi – bu aniq, Xusravning dili hech qachon o'lmaydi).

Shoirning she'r yozishdan maqsadi ham yaxshi nom qozonmoqdir, buning uchun chuqur ma'nolar silsilasiga ega bo'lgan va go'zal bezaklar bilan ziynatlangan asarlar yaratmoq kerak. Shundagina "Hayot bulog'i bo'lgan she'r tufayli abadiy hayotga erishiladi". She'r (badiiy asar) orqali nafaqat shoir, balki asar qahramonlarining nomi ham boqiy qoladi. Bunga Firdavsiy "Shohnoma"sidagi Zahhok, Rustam, Nizomiy "Panj ganj"idagi Iskandar-u Bahromlar nomlarining boqiyliigi dalildir.

Debochani yakunlar ekan, shoir zamonasidagi illatlardan ko'ngli ozor chekayotganligini ta'kidlab o'tadi. Birinchisi, nodon kimsalarning so'z san'atining mohiyatini anglamasligi, ikkinchisi, "...tili to'g'ri bo'lmagan odamning noni butun, "shin" harfini "sin" deyuvchilarning maqomi baland, oshig'i olchi" ekanligidir. Debocha

an'anaviy tarzda saxv-u xatolar uchun uzrxohlik bilan yakun topadi. Umuman, "Vasat ul-hayot" debochasida devonning yaratilish tarixi, undagi she'rlarning o'ziga xos xususiyatlarini bayon qilish asnosida o'zining adabiy-estetik qarashlarini ifoda etadi.

"G'urrat ul-kamol" devoni

Xusrav Dehlaviyning uchinchi devoni – "G'urrat ul-kamol" devonining 1a-60-b varaqlarida katta hajmda debocha berilgan. Shoir debochaning yozilish sababini shunday izohlaydi: Shundan so'ng so'z rutbalarini tartibga keltirdim, natijada dono do'stlarga kerakli narsa hosil bo'ldi. Bu debochani bezab tayyorladim va bu kitob kitobatida yashirin va maxfiy bo'lgan kayfiyat va kifoyatini sharh qildim" [Дехлавий №178, 31a]. Bundan ko'rinadiki, Dehlaviy devonning o'ziga xos xususiyatlarini bayon qiladi va uni o'qiguvchilarga bir ochqich sifatida taqdim qiladi. Xusrav Dehlaviyning bu debochasi Sharq debochanavislik san'atining yuksak namunalaridan biridir. U o'ziga xos mukammal asar bo'lib, an'anaviy o'zbek debochalaridan farq qiladi. Biroq an'anaviy o'zbek debochanavisligining ildizlari borib, boshqa manbalar bilan birga, unga ham tutashadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy o'z debocha yaratish san'atini vujudga keltirishda Xusrav Dehlaviy debochasidan ilhomlanganligi shubhasizdir.

Debochada ilohiylik va dunyoviylik, olam va odam muammolari, so'z, til va nutq tavsifi, nasr va nazmning qiyosiy tavsifi, she'r va ilmning o'zaro munosabatlari, o'ziga xos ustunlik hamda afzallik xususiyatlari bayoni, arabiy va forsiy she'riyat qiyosi, hind tiliga munosabat, she'rda madh va hajvning o'rni, badiiy usul va san'atlar tahlili keng o'rin tutadi.

Debocha hamd-u sano bilan boshlanadi, so'ng Muhammad payg'ambar va xalifalar madhi beriladi. Shoir hamd-u na'tdan so'ng o'zining adabiy-estetik qarashlarini keng bayon qiladi. Ya'ni so'z va she'r, nazm va nasr, til va uslub, san'atlar haqida atroflicha fikr yuritadi. Shuningdek, ustoz va shogirdlik munosabati, o'z ustozlariga muhabbati, asarlarining yaratilish tarixi, devon mundarijasi kabi masalalar ham debochada o'z ifodasini topgan.

Debochada jamiki san'atlarning ibtidosi va gultoji odam va olam masalasi yoritilar ekan, u islomiy-diniy asoslarda bayon qilinadi. Xusrav Dehlaviyning fikricha, Yaratuvchi zot – "Oftobi tobon"ga o'z nurlarining porlab turishi uchun, ya'ni tajalliysi uchun, avvalo, olamni va olam aro insonni yaratdi. Shoir inson o'zining yuksak ma'naviyati, ong-u tafakkuri va bilimi tufayli

hayvonot dunyosidan farqli ekanligiga diqqatni qaratadi. Nutq va notiqlik jamiki jonzoqlar ichida faqat insonga berilgan nodir mo'jiza ekanligini alohida ardoq bilan tavsiflaydi. Xusrav hayvon bilan bir necha so'znigina takrorlashga muvaffaq bo'lgan to'tiqushni, to'tiqush bilan til va nutqdan mosuvo gungni qiyoslaydi. Bu bilan til va nutqning tengsiz qimmatini sharaflaydi. Uningcha, to'ti hayvonot olamiga mansub g'ayri notiq bir qushdir. Ammo u bir necha so'zni bilganligi jihatidan bir qadar izzat topgan. Shuning uchun olam fusaholarining jumla arbobi-albobi va fuzalolari so'zni to'tiga nisbat berishadi. Uni mudom boshlari ustida, izzat qafasida asrab-avaylab parvarish qilishadi. Ammo so'z mo'jizasidan mahrum gung inson to'tiga nisbatan tahqiromuz bir ahvolda. Gung odam, donishmandlar davrasida o'tirsa ham, bahra ololmaydi. Bundaylar bamisoli daryo bo'yida o'tirgan, lekin og'zi suvga yetmagan va ko'rinishi odamiyatdan bir surat, xolos. Bunday kishilarning hissiz tosh dilida nutqdan asar bo'lmaydi. Odamlar uning odamiylik suratiga e'tibor bermaydilar, uni o'txo'r, somonxo'r bir eshakdek, deb biladilar:

*Тўтий, ки баҳраманди сухан башар бувад
Мардумки лаззати суханҳо нест хар бувад*

[Деҳлавий №178, 7a].

Tarjimasi:

To'ti so'zlashdan bahramand bo'ldi, odam bo'ldi,
Odam so'zining lazzatini yo'qotdi, eshak bo'ldi.

Dehlaviy nazdida, inson lafzi ma'nodorligi va mazmundorligi bilan har qanday sayroqi qushning tilidan afzaldir.

Debochada mutafakkirning adabiyot nazariyasi haqidagi fikr-mulohazalari, nazm va nasrning qiyosiy tahlili hamda ta'rif-u tavsifi keng o'rin egallaydi. Xusrav nazm va nasrga baho berishda xolis estetik munosabat bildiradi, ularni bir xil maqomda baholaydi. Nazm va nasrga quyidagicha o'ta ixcham va mumtoz ta'rif beriladi hamda nazmning o'ziga xosligi va qimmatli badiiy mohiyati sharhlanadi: "Nazm deb mavzun so'zlarga va nasr deb nomavzun so'zlarga aytiladi. Agar nazmni sindirsalar, nasr bo'ladi va to uni to'g'rilamagunlaricha nazm bo'lmaydi. Nazm hikmat mezonidagi bir zar va har baytdagi bir xazinadir. Va bu buyuk san'at binosidan oliy bir bahrda mavzun turg'usidir. Agar uning ruknlarida biror harf ziyoda bo'lib qolsa, og'irlashadi va sinadi [Деҳлавий. №178, 12a].

Adabiyot nazariyasi haqida fikr yuritar ekan, Xusrav Dehlaviy oddiy bir shoir sifatida emas, balki kuchli nazariyotchi adabiyotshunos olim darajasida fikrlaydi. U nazm haqidagi qarashlarida oddiy emas, balki yuksakshe'riyatnamunalarini nazarda

tutadi. Jumladan, *“She’riyatda qilni qirq yoruvchi donishmandlar she’r tolalarini shunday mahkam to’qiydilarki, unga ortiqcha biror tola sig’maydi* [Дехлавий №178, 12a]. Ko’rinib turibdiki, bunda teran va tig’iz badiiy mazmun bilan yo’g’rilgan nazm namunalari nazarda tutilgan.

Mutafakkir oliy maqomdagi nazm oldida nasr oddiy bir narsa ekanligini ta’kidlab, badiiy nasr bilan oddiy nasrni farqlamaydigan, adabiyotning obro’siga putur yetkazuvchi ayrim adiblarni o’zaro tanqid qilib o’tadi, ularni burnini teshib kaltak o’tkazib bog’langan, ipi uzilgan tuyaga o’xshatadi.

Debochada she’r va ilm qiyosi alohida o’ringa ega. Shoirning nazdida, haqiqat sirlarini ilm orqali anglash mumkin. Ammo ilmdan barcha odamlar barobar bahra ololmaydilar. Faqat savodli, ma’rifatli, xos kishilargina ilm mo’jizasidan bahramanddirlar. Ilm maslagidan bexabar kishilar fiqhi shariatdan ma’lumoti yo’q, ilohiy va tabiiy jihatdan biror chaman ko’rmagan, illatdan biror shifo topmagan, hukamolar ishoratidan biror qonun sharhini hal qilmagan va biror foyda topmaganliklari uchun nochor dillarini she’r inshosi bilan shod qiladilar. Xusrav e’tiroficha, ilmga nisbatan she’r ommabop va hammabopdir. She’riyatga oshnolik eng zaruriy insoniy fazilatlardan biridir. Aksincha, she’rga begonalik insoniy fazilat sanalmaydi. She’r va ilmning mavqeyi, jamiyatda tutgan nufuzini qiyosiy tavsiflagan shoir she’rning ezgu xususiyatlarini kamsitmagan holda, ilmning unga nisbatan yuqori maqomda turishini ta’kidlaydi.

Debochada arab tili va fors tili, arab she’riyati va fors she’riyati muqoyasasi yuzasidan jiddiy bahs boradi. Muallifning fikricha, arab iboratining forsiyga nisbatan fazilati til jihatidan boshqa barcha tillarga nisbatan go’zalligidir va bu fazilat shar’iydir. Ammo she’rdagi ma’nolar, nozik san’atlar, vaznlar va mezonlar jihatidan forsiy she’rlarning fazilatlari xususida to’xtaladi: Uch jihatdan forsiy she’rlar arabiy she’rlarga nisbatan avloroqdir. Avvalo, fors she’rining mezoni vazndir, ularning (arablarning – F.K.) o’lchovlari biz bilan hamtarozu bo’la olmas, chunki ularning she’rlarida ruknlar sirg’aluvchandir [Дехлавий №178, 20a].

Arabiy-forsiy til va she’rning qiyosiy tahliliga asos qilib keltirilgan ikkinchi hujjat ham diqqatga sazovordir. U shunday bayon etiladi: Agarchi arab tili o’zining ulug’ligi jihatidan har bir kalimaga sig’mas esa-da, ammo shu tilda so’zlaguvchi shunday lafz quvvatiga egaki, ta’riflab bo’lmas. Chunki ming lafzning bir ma’nosi va bir lafzning o’n ma’nosi bordir. Har bir so’zni o’z joyida ishlatishni biladi.

Ammo forsiyda bir ma'nodan ortiq bo'lgan ma'noli lafzlar kamdir. Shunday qilib, bu yo'lda forslarga qanday qiyin va mushkulligini, arablarga esa qanday oson va yengilligini insofyuzasidan qiyoslamoq kerak [Дехлавий №178, 20a]. Demak, bunda Xusrav Dehlaviy so'z boyligi va ko'p ma'noli so'zlarning ko'pligi nuqtayi nazaridan arab tili imkoniyatlarining fors tiliga nisbatan kengligini, arab shoirlari bu jihatdan ayricha ijodiy imkoniyatga egaliklarini e'tirof etmoqda.

Ma'lumki, she'riyatda qofiya va radif asosiy shakliy-badiiy xususiyatlardandir. Ushbu xususiyat arabiy-forsiy she'riyat qiyosida ham muhim o'rin tutadi. Bu ikki tildagi adabiyotning qiyosiy tahliliga mazkur xususiyatni Xusrav Dehlaviy uchinchi hujjat sifatida keltiradi. Uning tahliliga ko'ra, "Va on she'r radif nadorad. Va she'ri forsiy muqaffo va murdafaft va radif piroyai she'r ast, ki chun dar muvaqqafi qofiya bar oyad. Va piroyai she'ri arabiy agar qofiya ast, on dar porsiy mavjud ast. Ammo rubudiy, ki she'ri porsiy dorad va shoir radif dar kuluhoi qofiya bar basta ast" [Дехлавий. №178, 21a]. *(Tarjimasi: Forsiy she'rlar qofiya va radiflidir, radif she'ning ziynatidir va u qofiya uyg'unligini bezaydi. Arab she'ring bezagi agar qofiya hisoblansa, bu fors she'rida ham mavjuddir. Ammo, fors she'rida bo'lgan har bir jozibani shoir she'r radifi, qofiyaning har tomoniga e'tibor berishdan hosil qilgan. Arablarni u jihatdan inkor qilib bo'lmaydi, chunki ular bundan xolidirlar).*

Shunisi diqqatga sazovorki, Xusrav Dehlaviy qiyosiy tahlil jarayonida biryoqlamalikka va forsiyparastlikka berilib ketmaydi. Xolis ilmiy nuqtayi nazarda turadi. Arab adabiyotining o'ziga xos ijodiy imkoniyatlarini ham tantilik bilan e'tirof etadi: Avval vazn kengligi, ikkinchi lafz kengligi, uchinchi tarki radif (ya'ni radif quyushqonida qisilib qolmaslik – F.K.) kengligi. Shu bilan birga, ularning har birining ma'nosi yetukroq bo'lishi. Shunday bo'lsa-da, u bizning (forsiy nazm – F.K.) ma'noga nisbatan ustun bo'lolmaydi [Дехлавий №178, 22a]. Shu o'rinda Xusrav ham muqaddas Qur'oni karimning arab tilida nozil bo'lgani, arab she'rinig Qur'on bilan shahodatli ekanligini e'tirof etib, arab tili – tillarning eng go'zalidir, deydi.

Tahlil etilgan xususiyatlardan ma'lum bo'ladiki, Xusrav Dehlaviy Sharqning buyuk mumtoz shoirigina emas, balki yirik tilshunos, adabiyotshunos, elshunos – nazariyotchi olim hamdir. "G'urratul-kamol" debochasida, "Tuhfat us-sig'ar" va "Vasat ul-hayot" debochalaridan farqli o'laroq, tarjimayi hol va hasbi holga tegishli ma'lumotlar juda kam. Unda ilmiy-nazariy tahlil va umumlashmalar, mutafakkirona kuzatishlar yetakchilik qiladi. Debochadagi shoirning

keng doirada bayon qilingan adabiy-nazariy qarashlari keyinchalik adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan "E'jozi Xusraviy" asarining yaratilishiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

Umuman, Xusrav Dehlaviy debochasining o'ziga xos xususiyatlaridan *biri* – bayondagi jimjimadorlik, obrazlilik bo'lib, har bir fikrni turli xil o'xshatishlar, taqqoslashlar orqali ifodalashga intilish xarakterlidir. *Ikkinchidan*, debochalarda qo'yilgan har bir masala, ayniqsa, shoirning she'r, til, uslub va san'atlar haqidagi qarashlari juda keng va batafsil bayon etiladi. *Uchinchidan* esa, nazm va nasr qorishiq holda beriladi. Shoirning fikricha, "Nazmni ataylab nasrga qo'shadilar, zero nasrga omuxta bo'lgan har bir nazm nasrga oroyish beradi va nasr go'zalligini oshiradi" [Деҳлавий. №178, 9a]. Umuman, "G'urrat ul-kamol" debochasi katta adabiy-estetik ahamiyatga ega bo'lib, uni ilmiy va badiiy xarakterdagi katta bir asar deyish mumkin.

Xulosa

Xusrav Dehlaviy hayoti va ijodini o'rganishda bu debochalarning ahamiyati kattadir. "Tuhfat us-sig'ar", "Vasat ul-hayot" debochalarida shoir adabiy-estetik qarashlari bilan birga hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar ham e'tibor qaratilgan. G'urrat ul-kamol" debochasi hajman katta bo'lib, unda shoirning badiiy ijod masalalari haqidagi adabiy-nazariy qarashlari keng reja asosida bayon qilingan. Shoir debochalari forsiy debochanavislikning yuksak bosqichi sifatida qimmatlidir.

Fors adabiyoti tarixida yaratilgan o'nlab debochalar mualliflarning hayoti va ijodi, ular yashagan davr tarixini to'laroq o'rganishda va yoritishda adabiy manbalardan biri sifatida muhimdir. Ayniqsa, ular yashagan davr adabiy muhiti, ijodkor evolyutsiyasi va adabiy-estetik qarashlarini qiyosiy o'rganish adabiyot tarixini qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitadi. Shuningdek, Sharq adabiyotidagi debochanavislik an'anasining yuzaga kelishi va rivoji masalasini o'rganishda ahamiyatlidir.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1997. *Мажолис ун-нафоис*. МАТ. 20 жилдлик, 13-жилд. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 1990. *Фавойид ул-кибар*. МАТ. 20 жилдлик, 6-жилд. Тошкент: Фан.
- Атоуллоҳ Ҳусайний. 1981. *Бадойиъу-с-санойиъ*. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Брагинский, И. С. 1972. *Из истории таджикской-персидской литератур*. Избранные работы. Москва: Наука.

- Давлатшоҳ Самарқандий. 1981. *Тазкират уш-шуаро*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Имомназаров, М. 2022. *Мусулмон минтақа маданияти ривожига "мажоз тариқи" босқичи*. 1-китоб. Амир Хусрав Деҳлавий. Тошкент: Mumtoz so'z.
- Навоий асарлари луғати*. 1972. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Низомова, Ш. 2006. *Хусрав Деҳлавий ижодида рубоий жанри*: Филол. фан. номз. дисс. Тошкент.
- Мусаев, Б. 1954. *Амир Хусрав Деҳлавийнинг "Тухфат ус-сиғар" девони ғазалларининг текстологик тадқиқоти*. Тошкент.
- СВР, II т. 1954. Тошкент: Фан.
- Хусрав Деҳлавий. *Куллиёт*. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661.
- Хусрав Деҳлавий. *Гуррат ул-камол*. Девон. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 178.
- Шомуҳамедов, Ш. 1984. *Одамийлик иншоиси*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

Khusraw Dehlavi's Prefaces: Tradition and Originality

Farida Karimova¹

Abstract

The article analyzes the prefaces of the divans that contain the lyrical heritage of Khusraw Dehlavi. The poet collected his lyrical heritage into five divans and wrote prefaces to them. The manuscripts of Khusraw Dehlavi's divans «Kulliyot» No. 9661 and «Gurrat ul-kamol» No. 178 are stored on the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. These manuscripts contain the poet's divans – «Tuhfat us-sig'ar», «Vasat ul-hayot» and «Gurrat ul-kamol» and the prefaces written to them.

These prefaces are of great importance in studying the life and work of Khusraw Dehlavi. In the prefaces "Tuhfat us-sigar", "Vasat ul-hayot", a large place is devoted to the presentation of information about the poet's life and work, along with his literary and aesthetic views. The preface "Gurrat ul-kamol" is quite large, in which the poet's literary and theoretical views on issues of artistic creation are presented on a broad

¹ Farida I. Karimova – Associate Professor, Doctor of Philology, Namangan State University.

E-mail: faridakhank@mail.ru

ORCID ID: 0000-0000-0000-0009

For citation: Karimova, F. I. 2025. "Khusraw Dehlavi's Prefaces: Tradition and Originality". *Golden Scripts* 2: 68 – 88.

basis. The poet's prefaces are valuable as a high stage of Persian preface writing. They are important as one of the most reliable literary sources for a comprehensive study of the life and work of authors, the history of the era in which they lived, and for comprehensive coverage of the literary environment of the era, the evolution of the creator, and his literary and aesthetic views.

Key words: *divan, preface, manuscript, «Tuhfat us-sigar», «Vasat ul-hayot», «Ghurrat ul-kamol», creative evolution, literary and aesthetic views.*

References

- Alisher Navoiy. 1997. *Majolis un-nafois*. MAT. 20 jildlik, 13-jild. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1990. *Favoyid ul-kibar*. MAT. 20 jildlik, 6-jild. Toshkent: Fan.
- Atoullloh Husayniy. 1981. *Badoyi'u-s-sanoyi'*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Braginskiy, I. S. 1972. *Iz istorii tadzhikskoy-persidskoy literatur*. Избранные работы. Moskva: Nauka.
- Davlatshoh Samarqandiy. 1981. *Tazkirat ush-shuaro*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Imomnazarov, M. 2022. *Musulmon mintaq madaniyati rivojida "majoz tariqi" bosqichi*. 1-kitob. Amir Xusrav Dehlaviy. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Navoiy asarlari lug'ati*. 1972. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Nizomova, Sh. 2006. *Xusrav Dehlaviy ijodida ruboiy janri*: Filol. fan. nomz. diss. Toshkent.
- Musaev, B. 1954. *Amir Xusrav Dehlaviyning "Tuhfat us-sig'ar" devoni g'azallarining tekstologik tadqiqoti*. Toshkent.
- SVR, II t. 1954. Toshkent: Fan.
- Xusrav Dehlaviy. *Kulliyot*. O'zR FASHI, qo'lyozma, inv. № 9661.
- Xusrav Dehlaviy. *G'urrat ul-kamol*. Devon. O'zR FASHI, qo'lyozma, inv. № 178.
- Shomuhamedov, Sh. 1984. *Odamiylik inshosi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

TILSHUNOSLIK
LINGUISTICS

Tilimiz “o‘zbekcha” nomini o‘tmishining qay bosqichida ola boshlagan edi?

G‘aybullab Boboyorov¹

Abstrakt

Ko‘pchilik turkiy tillar singari o‘zbek tili ham ming yillar bo‘yi “turk tili”, “turkcha” kabi atamalar bilan yuritilib keldi. Sharqiy Turkistonda eski turkcha negizida yuzaga kelgan “xoqoniya turkchasi” Turon – Turkiston yurtining o‘zagi – Amudaryo-Sirdaryo oralig‘i va unga tutash o‘lkalarda Qoraxoniylar (960 – 1212) boshqaruvi chog‘ida kengaya boshladi. Ushbu sulola qo‘l ostidagi O‘zgand (Farg‘ona vodiysi), Sirdaryoning o‘rta oqimi – Toshkent va Yassi (Turkiston)da, Zarafshon vohasidagi Samarqand va Buxoroda yoyilib, Chig‘atoy ulusi (1224-1340), Temuriylar (1370 – 1407) chog‘ida qo‘llanilish ko‘lami yanada oshgan tilga aylangach, “turkcha”, “chig‘atoy turkchasi” atamalari ostida dovuq qozondi. Chig‘atoy turkchasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri izdoshi bo‘lgan o‘zbekcha XX yuzyillikning ilk o‘nyilliklarigacha ko‘proq ushbu atamalar ostida bilindi. Shu bilan birga, “o‘zbek” etnik atamasi Amudaryo – Sirdaryo oralig‘ida XVI yuzyillikning boshidayoq tarqala boshlagan kezlardayoq bu til ayrim o‘rinlarda “o‘zbekcha”, “o‘zbek turkchasi” deb yuritila boshlagani ko‘zga tashlanadi.

Ochqich so‘zlar: *turkcha, xoqoniya turkchasi, Sharqiy Turkiston, Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i, chig‘atoy turkchasi, o‘zbekcha, “Shajarayi turk”.*

Kirish

O‘rta asrlar, ayniqsa, XV – XVII yuzyilliklarga tegishli forsiy va turkiy tilli yozma manbalarda “o‘zbek” atamasi birmuncha keng uchrab, bu atama ostida ko‘proq turkiy aholining siyosiy-harbiy toifasi tushunilgan. Shu bilan birga, yillar o‘tgan sari bu atamaning ma‘nosi birmuncha kengayib, etniklik kasb eta boshlagani ko‘zga tashlanadi. Boshlang‘ichda XIV – XV yuzyilliklar orasida ko‘proq

¹*Boboyorov G‘aybullab Bolliyevich* – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi.

E-mail: gaybullab@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3456-3410

Iqtibos uchun: Boboyorov, G. B. 2025. “Tilimiz “o‘zbekcha” nomini o‘tmishining qay bosqichida ola boshlagan edi?” *Oltin bitiglar* 2: 89 – 102.

Volgabo'yi, Orol dengizi qirg'oqlari hamda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlaridagi ko'chmanchi turkiy el-uluslar "o'zbek" atamasi ostida tanilgan bo'lsa, XVI yuzyillikning boshlaridan XX yuzyillikning ilk o'nyilliklarigacha bo'lgan deyarli to'rt yuz yilni qamrab olgan vaqt kesimida bu atama Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga qo'shni o'lkalar turg'unlarining yalpi nomiga aylana boshlaydi. Biroq ushbu to'rt yuz yil ichida "o'zbek" atamasi Turon – Turkiston ellarining ulkan bir bo'lagini anglatuvchi atamaga aylana borgan bo'lsa-da, yerli turg'unlar tilining "turkcha", "turkiy" deb atalishi XX yuzyillikning ilk o'nyilliklarigacha saqlanib qoldi. Buni bundan yuz yilcha oldin yozilgan asarlarning so'nggi betida "*... shu yilda, shu oyda turkiy tilda bitildi*" degan so'zlarning keng uchrashi ko'rsatib turibdi.

"Turkcha", "turkiy", "chig'atoy turkchasi"

XX yuzyillikning boshlariga tegishli yuzlab yozma manbalarda, gazeta va jurnallarda, maqola va kitoblarda, yalpi olganda, ish yuritish va yozishmalarda Turkiston o'lkasi turg'unlarining ko'pchiligi so'zlashadigan til "turkcha", "turkiy", "chig'atoy turkchasi" deb atalgani, shu bilan birga, turkiy tillarning boshqa tarmoqlari uchun yangi iboralar ishlatila boshlagani ko'zga tashlanadi. Turkiston matbuotida "usmonli turkchasi", "ozarbayjon turkchasi", "qrim turkchasi", tatarcha, "qozoqcha", "o'zbekcha" kabi iboralar tez-tez uchray boshlashi ko'proq o'sha kezlarga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Turkiston oydinlari – ko'pchilik jadidlar orasida o'lka turg'unlarini bitta nom – "turk" atamasi bilan atash, ular so'zlashadigan tillarni ham yalpi olib "turkiy" deb yuritishni qo'llab-quvvatlovchilar va ulardan farqli o'laroq o'lkadagi el-uluslarni ularning etnik nomidan kelib chiqib, "o'zbekcha", "qozoqcha", "qirg'izcha", "turkmancha", "qoraqalpoqcha" deb atashni yoqlovchilar XX yuzyillikning boshlarida ancha ko'payib qolgan edi.

Bu qarama-qarshilik Turkistonni bo'laklarga ajratish va har elatga ayri-ayri siyosiy hudud chizib berishni o'ylab kelayotgan Moskva kommunistlariga qo'l keldi. O'shanda "Bo'lib tashla va hukmronlik qil" siyosatining bosh g'oyasiga moydek yoqib tushgan bu yondashuv "Turkiston" so'zini yer yuzidan yo'qotib yuborish, yerli xalq ongidan "turk" yoki "turkiy" degan atamani butunlay o'chirib yuborish, shu orqali qardosh el-uluslarni bir-biriga yot qilib qo'yishning tamal toshi qo'yilgan edi. Turkistonlik ayrim oydinlar esa ularning bu niyatini bilib-bilmasdan "tegirmoniga suv quyish" da yetakchi bo'ldilar. Shu yo'sinda ming yillar bo'yi bitta tilda o'qib, yozib, ish yuritib kelgan turkistonliklar yalpi yozma tilining

ildiziga bolta urildi. Asrlar osha oqib turgan ulkan irmoq qurishga yuz tutdi, buning natijasida bugungi kunga kelib, o'nlab yuzyilliklar bo'yi bir-birini hech qiynalmasdan tushunib kelgan qardosh ellar yon qo'shnisining, qon-qardoshining yozganlarini anglamaydigan holga kelib, o'zaro so'zlashuvda esa butunlay yot tillarni ishlatishga majburiyatida qoldilar.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Turkiston el-uluslarining tili bundan bir yarim ming yil oldin – Turk xoqonligi boshqaruvi chog'i (VI – VIII yuzy.)da qo'llanilib, "turk tili", "turkcha" atamaları ostida yalpi turk ellari uchun yozma til vazifasini bajarib kelgan bo'lib, oradan bir necha yuzyilliklar o'tib, tarmoqlana boshlagan edi. Ayniqsa, bu ajralish Qoraxoniylar (960 – 1212), Saljuqiylar (1040 – 1194) Turkistonning o'zak yerlari – Sharqiy Turkiston, Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga qo'shni o'lkalar "xoqoniya turkchasi"da ish yuritgan bo'lsalar, Qrimdan Oltoygacha cho'zilgan keng dala-qirlarda yashagan turkiylar "qipchoq turkchasi"da, ko'proq Kichik Osiyo, Yaqin Sharq va Kungay Kavkaz (Ozarbayjon)da tarqalgan turkiylar esa "o'g'uz turkchasi" yoki "turkmoncha"ni o'zlarining yozma tiliga aylantirdilar. Shunga qaramay, bu uchala tarmoqda yozuvchilarning bir-birlarini o'qib-tushunishlari qiyin bo'lmadi. Ayniqsa, xoqoniya turkiysi – Turkiston turkchasi, ya'ni "chig'atoy turkchasi" bilan ko'p tomonlama yaqin bo'lgan Dashti Qipchoqdagi el-uluslar qo'llanadigan "qipchoq turkchasi"da yozilgan asarlarni tushunishda hech bir qiyinchilikka duch kelinmaydi. Qrim, Shimoliy Kavkaz, Volga-Uralbo'yi, Kunbotar Sibir va Oltoy o'lkalarini o'z ichiga olgan Dashti Qipchoqda o'rta asrlarga kelgach, chig'atoy turkchasining ish yuritish va yozishmalar olib borish tiliga aylangani kuzatiladi.

Shu yo'sinda Alisher Navoiy urg'u berganidek, "bir qavm, yuz, yo'qsa ming" qavm bo'lishiga qaramay, barcha turk ellari bitta "turk ulusi" tushunchasi ostida yashashda davom etdi, bu tilda – chig'atoy turkchasida yaratilgan asarlar Xito (Sharqiy Turkiston)-dan Xurosongacha, undan oshib, Iroq-u Ajamdagi "turkmonga"cha tushunarli bo'lib qoldi. Shuningdek, o'g'uz turkchasining injaliklarini tushunib, ayrim to'rtliklarida unga yuzlangan Navoiy shu yo'l bilan turkistonliklarning uzoq kunbotardagi qardoshlari tilidan yiroq bo'lishlarining oldini olgan bo'lsa, so'nggi o'rta asrlarga kelib Qo'qon, Xiva kabi adabiy o'rtam – muhitdagilar Fuzuliy g'azallariga yuzlanar ekan, nafaqat qardoshlar tilidagi injaliklarni angladilar, balki minglab chaqirim uzoqliklar keltirib chiqaradigan tildagi anglashmovchiliklar tobora ildiz otishining oldini oldilar.

Buyuk tilshunos Mahmud Koshg'ariy ming yil oldin urg'u berib *"turklar aslida yigirma qabiladir ... har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug'lari bor"* deb yozgan [Koshg'ariy 1960, 64], ming yillar oldin ham turkiy el-uluslar o'nlab farqli lahjalarda so'zlashgan bo'lsalar-da, birlikni, birdamlikni saqlashdagi bosh omil "yagona yozma til" ekanini tushunib yetgan edilar. Turkiy bilgalar barcha turk ellari uchun xizmat qiladigan tilni saqlab qolishga urg'u berganliklari, ularning barchasi uchun tushunarli tilda yozishga intilganliklari ko'zga tashlanadi. Buning yorqin o'rnagi Alisher Navoiy ijodida – yaratuvchanligida kuzatiladi.

O'zbek so'zining qo'llanish tarixi

Kezi kelganda aytib o'tish kerak, bir turkum oydinlarimiz-u elimizning ayrim vakillari orasida "bundan yuz yil ilgari tilimiz o'zbek tili deb yuritilmagan, bu til uchun turkcha, turkiy, chig'atoy turkiysi degan iboralar qo'llanilgan" degan qarashlar yetakchilik qiladi. Bir qarashda bu yondashuv to'g'ridek ko'rinadi, biroq yozma manbalarni sinchiklab tekshirib chiqsak, ayrim o'rinlarda tilimizni "o'zbekcha" deb atash, yo bo'lmasa, turkiy tillar to'g'risida so'z borganda chig'atoy turkchasini o'zbeklar bilan bog'lab tushuntirishlar ham bo'lganiga duch kelamiz.

Ayrim o'rnaklar keltiradigan bo'lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1530) "Boburnomasi"da va Abulg'ozi Bahodirxon (1603 – 1663) "Shajarayi turk"ida ayrim bilgalar uchrab, ularni turlicha ochiqlash mumkin. Bobur *"Jonibek do'ldoy edi, Sulton Malik Koshg'ariyning inisi edi ... Andin g'arib nimalar xili rivoyat qilurlar. Ul jumladin biri budurkim, Samarqand hokimi ekan fursatlar o'zbakdin elchi kelur, o'zbak ulusida bu elchi zo'rg'a mashhur ekandur. O'zbak zo'r kishini bo'ka der emish. Jonibek derkim: bo'kamusen, bo'ka bo'lsang, kel kurashaling. Bu elchi har necha muzoyaqa qilur, qo'yimas, kurashurlar, Jonibek yiqar"* deb yozgan bo'lib [Bobur 1960, 76], ushbu bilgadan anglashilicha, Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi o'zbeklar kuchli, epchil kishilarni "bo'ka" deb atagan. Bugungi mo'g'ul tilida kurashchi, polvon degan ma'noda "bo'ka", "bo'h" ko'rinishlarida saqlanib qolgan bu so'z mo'g'ul tiliga eski turkchadan o'zlashganini ayrim mo'g'ul tilchilari aytib o'tishgan [Sanjeev, Orlovskaya, Shevernina 2015, 104]. Eski turk bitiktoshlari – O'rxun-Enasoy yozuvlaridan biri Taryat bitiktoshida "bo'ka" so'zi uchrab [Mert 2009, 193], bu atamaga yuksak unvonlardan biri bo'lgan deb qaraladi. XI yuzyillikda yozilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida esa "bo'gä" so'zi "qahramon, bahodir, kuchli" degan

anglamda qo'llanilgani ham bu qarashni kuchaytiradi [DTS 1969, 116].

"O'zbek" atamasining siyosiy-harbiy toifani anglatadigan nomdan bora-bora el-ulus, xalq otiga aylanib borish jarayonlarini to'liqroq tushunish uchun biroz quyida "Shajarayi turk"da uchraydigan bilgiler bilan tanishib chiqamiz. Undan oldin esa Abulg'ozī bu kitobni qay o'rtam – muhitda, qaysi tilda yozgani bilan bog'liq ushbu bilgilarni keltirib o'tsak: *"Kitob aytg'an musanniflar, bititurg'an kotiblar ikkisi ham tojik. Ne mo'g'ul tilin bilurlar va ne turk tilin. Mo'g'ulning ba'zi kishilarining otlarini bir tojikka agar o'n kun o'rgatib o'ltsang tili o'rgulmas. Ul nechuk bitisin bu faqir turkiy va forsiyning tilini va lug'atlarini va istilohlarini bilmaklikda xudoyi taolo ul miqdor nasib berib turur. Bu vaqtda turk va tojikda kerak kim faqirg'a bergancha bergan kishi bo'lmag'ay. Taqi bir nimarsa sabab bo'lib Qalmaqq'a borib, anda bir yil turdum. Mo'g'ulning tilini va rasmini va istilohlarini yaxshi o'rgandum. Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsun, teb turkiy tili birlan aytdum. Turkiyni ham andaq aytubman kim besh yashar o'g'lon tushunur. Bir kalima chig'atoy turkisindin va forsidin va arabiydin qo'shmayman ravshan bo'lsun, teb. Agar ajalning undovchisi unday kelmasa, ushbu kitobni forsiy tili birlan murassa' ayتماق ko'nglumda bor"* [Abulg'oziy 1992, 31].

Ko'rinadiki, muallif o'z asarini turkiy tilda, turkiyda bo'lgandayam "arabcha yoki forscha, hattoki chig'atoy turkchasi"dan biror so'z qo'shmay, "besh yoshli bola" ham tushunadigan tilda yozganiga urg'u bergan. Biroq asar bilan tanishib chiqar ekansiz, yuzlab arabcha va forscha so'zlarga duch kelasiz. Bizningcha, Abulg'ozī qo'ldan kelguncha turkiy so'zlarni ishlatishni ko'zda tutgan, biroq bugungi kunda bo'lganidek, o'sha kezlarda ham ushbu tillardan o'zlashgan so'zlar shunchalik ko'p bo'lganki, muallif boshlang'ichda o'z oldiga shunday maqsad qo'ygan bo'lsada, yuzda-yuz turkiy so'zlar ishlatib kitob yozishda qiynalgan, chamasi, ora-sira o'zga tillardagi so'zlarni ham ishlatgan ko'rinadi. Boshqa tomondan esa ko'p yillardan beri "Shajarayi turk" ustida izlanishlar olib borayotgan sharqshunos Nuryog'di Toshev aniqlaganidek, asarda arabcha va forscha so'zlarning ko'payishi Abulg'ozī asaridan keyinchalik nusxa ko'chirgan kotiblar bilan bog'liqdir.

Endi, "Shajarayi turk"da "o'zbeklar" bilan bog'lab keltirilgan so'z va atamalardan o'rnaklar keltirib o'tamiz:

1) **"O'zbekning masali turur:** *"It semirsa egasin qopar", tegan"* [Abulg'oziy 1992, 15].

Bugungi kunda o'zbek tilida shunga yaqin "*Eshak semirsa egasini tepar*" ko'rinishida saqlanib qolgan bu maqol – otalar so'zi eski turkiy an'ana – o'xshatma (tashbeh)larda ko'pincha hayvonlarni o'rnak qilib keltirish an'anasining o'sha kezlarda ham keng yoyilganini ko'rsatadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, o'rta asrlarda Dashti Qipchoqda – Volgabo'yi hamda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yashagan ko'chmanchi turkiylarning tili bo'yicha kengroq tushunchalarga ega bo'lish uchun shunga o'xshash maqollarning qozoq, qoraqalpoq, no'g'oy, boshqird va tatarlar orasida ham qay ko'rinishda saqlanganini ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Abulg'oz "o'zbek masali" deb keltirgan ushbu maqoldagi "ega" so'zi eski turkchada "idi" ko'rinishida qo'llanilib, qipchoq turkcha-sida "iye", "iya", xoqoniya (qarluq) turkchasida esa "ega"ga aylangan. Qizig'i shundaki, Dashti qipchoqlik ko'chmanchi o'zbeklarning so'zlashuv tili qipchoqcha deb bilinadi. Shunga qaramay, "Shajarayi turk"da bu so'z "ega" ko'rinishida – chig'atoycha (qarluqcha)ga uyg'un ko'rinishda berilgani diqqatni o'ziga tortadi.

2) "*Andin so'ng har kim to'ra bo'lsa, anga Aydiqut (Idiqut) tedilar. ... Qut, ya'ni barcha xalq jonini yuborgan kishi turur, temak bo'lur. Bu vaqtda o'zbek erklik kishi dey turur, ikkisining ma'nosi bir bo'lur*" [Abulg'oziy 1992, 31–32].

"Qut" so'zi turkchada "jon" anglamida kelishiga urg'u bergan Abulg'oz "Idiqut" atamasini "*jonini yuborgan kishi*" deb ochiqlab, "bu vaqtda", ya'ni u yashagan chog'lar – XVII yuzyillikda o'zbeklar bu atamani "erklik kishi" ko'rinishida ishlatishlariga urg'u beradi. Ilk bor Turk xoqonligi chog'idagi O'rxun bitiktoshlarida uchragan "idiqut" atamasi basmil va uyg'ur elatlari boshqaruvchilari tomonidan qo'llanilgan unvon bo'lib [Abdurahmonov, Rustamov 1982, 127], o'rta asrlarda Sharqiy Turkistonning kunchiqar tomonlarini boshqargan Uyg'ur Idiqutligi (IX – XIV yuzy.) unvonlar tizimida bu atama eng yuksak unvonlardan biri edi. Eski turkcha idiqut "idi" (ega) va qut (qut-baraka, erk) so'zlaridan yasilib, so'zlik angلامي "qut egasi"dir. Abulg'oz bu atamani o'zbeklar "erklik kishi dey turur" deb yozar ekan, uning turkiy ellarning uzoq va yaqin o'tmishini yaxshi bilgani anglashiladi. Shu bilan birga, u asarining ancha keyingi betlarida "idiqut" atamasiga yana bir bor to'xtalgan bo'lib, bu so'zni mo'g'ulcha deb qarab, angلامي "davlatli" ekaniga urg'u beradi: "*Elchi Chingizxonning o'rdusig'a vosil bo'lg'andin so'ng Chingizxon Durboy teganni elchi qilib uyg'urning podshohi Idiqutga yubordi. Idiqut ko'p peshkashlar birlan kelib xonni ko'rub boqindi, ersa Chingizxon ham Idiqutga sonsiz inoyatlar va iltifotlar*

qilib ko'p izzat va hurmatlar qildi. Andin so'ng Idiquit arz qildi kim, podshoh jahonistonning karamindin umidvorman kim podshohning beshlanchi o'g'li bo'lg'ayman. Ammo Chingizxon aning so'zindin fahm kildi kim, xondin qiz tilay turur. Xon ham bir qizni anga berdi. Ma'lum bo'lsun kim, Idiquitning ma'nosi mo'g'ul tilinda davlatlik temak bo'lur" [Abulg'oziy 1992, 56].

Bundan ko'rinadiki, Abulg'oziy o'rni kelganda "idiquit" atamasini turkiycha, boshqa bir o'rinda esa mo'g'ulcha deb keltirgan. Har ikkala tilning bir-biridan ayri ekanini yaxshi bilgan, o'zi yashagan o'rtam tilini "turkcha" deb bilgan, yuqorida keltirib o'tilganidek, *"Mo'g'ulning tilini va rasmini va istilohlarinn yaxshi o'rgandum. Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsun, teb turkiy tili birlan aytidum. Turkiyni ham andaq aytubman kim besh yashar o'g'lon tushunur"* deb ochiq-lama berib o'tgan Abulg'oziy turklar bilan mo'g'ullarni ildizi bir el deb bilgani va ayrim o'rinlarda qaysidir so'zlarni shu negizda tushuntirgani kuzatiladi.

Shu bilan birga, Turon – Turkistonda Chingiziylar boshqaruvi o'rnatilgach, ular bilan birgalikda el-ulus boshqaruvida qatnashgan ko'plab turkiy urug'lar yuzyillar bo'yi mo'g'ullar bilan aralashib, ulardan ko'plab mo'g'ulcha so'zlarni o'zlashtirdilar. Abulg'oziy keltirib o'tgan: *"Juyrat elindin Chamuqa chechan tegan bor erdi. Chechanning ma'nosi arab oqil der va tojik boxirad der va **mo'g'ul va o'zbek chechan der**. Aqlli temak bo'lur. Bu vaqtda ham so'zni yaxshi so'zlagan kishiga chechan derlar. Aqlli temak bo'lur. Aqlli bo'lmasa so'zni nechuk yaxshi bilub so'zlar"* mazmunidagi bilgilardan ham ko'rinib turibdiki, mo'g'ulcha "chechan" so'zi allaqachon turkiylar tiliga o'zlashib ulgurgan edi [Abulg'oziy 1992, 50]. O'zbek tilining ochiq-lamali so'zligida *"chechan – chaqqon, uddaburon, usta, mohir"* deb keltiriladi [O'TIL 2008, 478]. Shuningdek, bugungi kunimizda "so'zga chechan" so'z birikmasida ko'proq saqlanib qolganidek, qozoqchada "sheshen", qirg'izchada "chechen" ko'rinishlarida eski anglamini ancha yaxshi qo'rigani ko'zga tashlanadi [Yudaxin 1986, 361].

Shu o'rinda Abulg'oziy ayrim so'z va atamalarga to'xtalar ekan, ularning arabcha, forsha, turkcha va mo'g'ulchalarini keltirib o'tganiga ko'zimiz tushadi. O'rnak keltiradigan bo'lsak: *"Yodgor yigit bo'ldi. Andin to'rt o'g'il bo'ldi. Avval Berka, ikkinchi Abulak, uchunchi Amnak, to'rtunchi Abak. Amnakning ma'nosi bu turur kim ul vaqtda mo'g'ul tili ko'p unut bo'lub ketmay erdi. Lafzi jon arab tili turur. Tojik xush der. **O'zbek tin der**. Mo'g'ul amin der"* [Abulg'oziy 1992, 116]. Qizig'i shundaki, muallif turkiycha so'zlarni boshqa tillar

bilan solishtirayotganda, o'sha so'zning egalarini ko'p o'rinlarda "o'zbek", ayrim o'rinlarda esa "turk" deb keltirgani ko'zga tashlanadi. Buni "Shajarayi turk"dagi quyidagi bilgilar ko'rsatib turibdi: *"Barcha mo'g'ulning piri erdi. Oti Meglik, laqabi ijaka. Mo'g'ul otasini ijaka der. Ani siylab barcha xalq ijaka derlar erdi. Turk xalqi aziz kishilarni ota der. Masalan: Hakim ota va Sayid ota tegandek"* [Abulg'oziy 1992, 50]. Bugungi kunda ham tegramizdagi ellarda, ayniqsa, o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va qirg'izlarda o'zining ulug' ishlari bilan el ardog'ida bo'lgan kishilar bilan bog'liq ziyorat yerlariga nisbatan "ota" so'zi qo'shilib ishlatilishi keng yoyilgan. Buni yurtimiz va qo'shnilarimizning barcha qishloq yoki shaharlarida kuzatamiz. O'rnak uchun: Zangi-ota, Qo'yliq-ota, Parpi-ota (Toshkent v.), Beket-ata (Qozog'iston), Cho'pon-ata (Qirg'iziston) va boshqalar

"Xotun" so'zining eski turklarda qo'llanilishi

Bilamizki, "xotun" so'zi eski turklarda xoqon yoki xonning bosh xotini – malika uchun ishlatilgan bo'lib, keyinchalik bu atama turk xoqonlarining qo'l ostidagi qaram boshqaruvchilarga uzatilgan qizlari uchun ham qo'llanila boshlagan edi. Turk xoqonligi boshqaruvi chog'ida ilk bor yozma manbalarda uchray boshlagan ushbu atama keyinchalik Uyg'ur xoqonligi, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshoh-Anushteginiylar va yana o'nlab turkiy siyosiy uyushmalar boshqaruvida qo'llanilgan bo'lib, ular orasida "Turkon-xotun" yoki "Terken-xotun"lar eng dovuqlilari edi. Saljuqiylar va Xorazmshoh-Anushteginiylar saroyidagi Turkon-xotunlar buning yorqin o'rnagidir. "Shajarayi turk"da "xotun" atamasi quyidagicha ko'rinishda mo'g'ulcha deb keltirilgan: *"Chingizxonning onasining oti O'lun erdi, Eka laqab qo'yub erdilar. Birisi O'lun eka, taqi biri O'lun Qo'chin eka. Mo'g'ul tili turur, ulug' tegan bo'lur. Qo'chin xitoy tili turur, ma'nosi ul kim mo'g'ul xotun der. Tojik bonu der. O'zbek boybicha der. Evning va molning egasi temak bo'lur"* [Abulg'oziy 1992, 49 – 50].

Shunday bo'lsa-da, "xotun" atamasi mo'g'ullar tomonidan turkchadan o'zlashtirilgani aniq. Buni xitoy, sug'diy, fors va arab tilidagi yozma manbalardan boshqa VII – VIII yuzyilliklarga tegishli O'rxun bitiktoshlari, Sug'd o'lkasida bostirilgan Turk xoqonligi tangalaridagi bilgilar qo'llab-quvvatlaydi [Babayarov, Kubatin 2011, 251–256]. Qizig'i shundaki, o'rta asrlarda o'zbek va qozoq xonliklari boshqaruvi chog'ida bu atama birmuncha unutilgan bo'lib, "xotin" barcha xotin-qizlar uchun ishlatila boshlagani, malika anglamida esa yangi atama - "boybicha" qo'llanilganini yuqorida keltirilgan

"O'zbek boybicha der" degan bilgi ham ko'rsatib turibdi. Bilamizki, ilk va rivojlangan o'rta asrlar – VI – XIII yuzyilliklarga tegishli turkiy yozma manbalarda "boybicha" so'zi uchramaydi.

Shayboniylar, Ashtarxoniylar kabi ko'chmanchi negizli o'zbek xonliklari chog'ida keng tarqalgan "boybicha", "boybeka" va shunga yaqin atamalar Oltin O'rda va uning izdoshlari bo'lmish Abulxayrxon o'rdasi (O'zbek ulusi – 1428-1468) va undan keyingi No'g'oy O'rda, Qozon, Astraxan, Qozoq xonliklari boshqaruvida qatnashgan turkiy malikalar uchun qo'llanilgan. Ko'proq Dashti Qipchoq siyosiy-madaniy o'rtamiga tegishli bo'lgan bunday atamalar Usmonli va Ozarbayjon turklari tomonidan ishlatilib-ishlatilmagani unchalik aniq emas. Dashti qipchoqlik el-uluslar bilan yurtimizga kirib kelgan bunday atamalarining bugungi kunda ham chekka qishloqlarimizda "boybicha", "baybicha" ko'rinishlarida saqlanib qolgani diqqatni o'ziga tortadi [O'zbek xalq shevalari lug'ati 1971, 363]. Shuningdek, ushbu atamalarining o'zagi bo'lmish "boy" (boy kishi) so'zi uzoq kunbotardagi qardoshlarimiz – o'g'uz turklarining bugungi izdoshlari Onado'li va Ozarbayjon turklar so'zlashuvida deyarli uchramasa-da, Turkiston turklari – o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar tilida ancha keng yoyilgan bo'lib, ushbu eldoshlarda bu so'z bilan yasalgan kishi ismlari ko'pdir: Boybo'ri – Bo'riboy, Boykenja – Kenjaboy, Boytemir – Temirboy va b. Demak, bu an'anaga ham Dashti Qipchoq va unga qo'shni o'lkalardagi turkiy ellar orasida o'rta asrlarda kelib chiqqan deb qarash mumkin. Shu o'rinda Xorazm o'lkasining turkiychasi uzoq yillar bo'yi Dashti Qipchoqda adabiy til o'laroq qo'llanilib, bu til Turkistonning o'zagi – Amudaryo – Sirdaryo oralig'ida yashagan ellar bilan dashtliklar orasida ko'prik vazifasini o'taganini ko'zda tutish kerak bo'ladi.

Negizi eski turkchaga borib taqaladigan so'zlar

Kezi kelganda, negizi eski turkchaga borib taqaladigan, biroq boshlang'ichda qo'llanilish tegrasi ancha tor bo'lgan ayrim so'z qo'shimchalarining so'nggi o'rta asrlarga kelgach, ancha keng ko'lamda ishlatila boshlaganini aytib o'tish kerak. Buning o'rnaklarini Abulg'ozil tilga olgan quyidagi bilgilardan ham ko'rsa bo'ladi: *"Ul Amnakning kofi arab anga kofi tasg'ir der. Ul kichkina ma'nosina bo'lur. O'zbek anig'ina der. Goh yerdagina der, nechuk kim kichik otni otg'ina va kichik kishini kishigina der. Aning ma'nosi xong'ina temak bo'lur"* [Abulg'oziy 1992, 116]. O'zbek xonlaridan Yodgorxonning 4 ta o'g'lidani birining nomi Amnak ekani, bu atamaning negizida o'zbekcha "tin" (jon) anglamidagi mo'g'ulcha "amin" so'zi yotishiga

urg'u bergan Abulg'ozini ushbu ismda kichraytirish nisbati (-k) qo'llanilganini yozib, uning o'zbekchasi "g'ina" ekaniga urg'u berishi diqqatni o'ziga tortadi.

Bugungi kunda turkiy tillar orasida o'zbekchada keng tarqalgan, qozoq, tatar va yon qo'shni qardoshlarimiz tilida ham u yoki bu ko'rinishda uchraydigan, Onado'li va Ozarbayjon turkchalarida esa qo'llanilmaydigan bu nisbatning negizi bundan 1,5 ming yillar nariga borib taqaladi. Shu o'rinda chet ellik turkologlar ushbu kichraytirish qo'shimchasi boshqa turkiy ellarga qaraganda bugungi o'zbek va tatar tillarida keng qo'llanilishiga urg'u berishini aytib o'tish kerak. O'rxun bitiktoshlarida "azqınyıa budun" (ozgina xalq) ko'rinishida tilga olingan "-qınyıa" kichraytirish qo'shimchasining [Ayudurahmonov, Rustamov 1982, 72] izdoshi bo'lmish "-gina" /"-g'ina"ni Abulg'ozini o'zbeklar bilan bog'lab tushuntirishi uning tarixchigina emas, kuchli tilchi bo'lganini ham ko'rsatib turibdi.

Qizig'i shundaki, "Shajarayi turk"da "o'zbek"larga tegishli so'z o'laroq keltirib o'tilgan deyarli barcha so'z va atamalar bugungi kunda o'zbek adabiy tili va uning shevalarida ilgari qanday bo'lsa, shunday yoki birmuncha o'zgargan ko'rinishda uchrashiga duch kelinadi. Quyida bu bilan bog'liq bir necha o'rnaklar keltiramiz:

1) *"Aning o'g'li Yorg'utoy va laqabi Qiriltuq. Aning ma'nosi kunchli Sarin temak bo'lur. O'zbek osh yeganda tamaqinda turg'an kishini "qirildi" ter. Kunilab ko'p yedi taqi tamoqinda turdi tegani bo'lur. Qiriltuq tegani qirilg'uchi tegani turur"* [Abulg'oziy 1992, 45].

2) *"Abulxayrxoni mazkurning ikkilanchi o'g'lining oti Xoja Muhammad. Ammo o'zbek ani Xo'jug'am tentak derlar. Aning o'g'li Jonibek. Ul ham beaql kishi erdi"* [Abulg'oziy 1992, 113].

Ushbu bilgilardagi "qiriltuq" so'ziga berilgan ochiqklamaga kelsak, uning birmuncha boshqacharoq ko'rinishi bugungi o'zbek tilida "tomoq qirmoq", "tomog'i qirilmoq" angamlarida uchraydi. Eski turkiy so'zliklarda – "Devonu lug'ati-t-turk" va boshqa qo'lyozmalarda deyarli uchramaydigan "tentak" so'zi esa bugungi o'zbek tilida saqlanib qolgani ko'zga tashlanadi. Yuqorida boshqa so'zlar o'rnagida aytib o'tilganidek, Onado'li va Ozarbayjon turkchalarida uchramaydigan bu so'z qozoq, qoraqalpoq tillarida ancha keng tarqalgani ko'zga tashlanadi [Yudaxin 1985, 224]. Chamasi, bu so'z ham Dashti Qipchoq va Turkiston etnomadaniy o'rtamida yuzaga chiqqan so'z bo'lsa kerak.

Abulg'ozini birgina so'z va atamalar emas, balki Dashti qip-

choqlik o'zbeklarga tegishli ayrim etnografik bilgilarni ham keltirib o'tgani, ular bugungi kunda ko'plab turkiy ellarda, shu jumladan, o'zbeklarda yaxshi saqlangani ko'zni quvontiradi. O'rnak keltirsak: *"Taqi arz qildilar kim andag' eshitibmiz, o'zbek rasminda ev yurt kenja o'g'ulniki bo'lur ermish. Ota boshliq barcha aqalar kenja o'g'ulni siylarlar ermish, teb"* [Abulg'ozzi 126]. Turk xoqonligi chog'idan yaxshi bilangan bu yo'riq ayniqsa qishloqlarimizda keng saqlangan bo'lib, oila – uy-ichida bolalarning soni qancha ko'p bo'lishiga qaramasdan, kekxa ota-onalarga qarash kenja o'g'ilning yelkasidagi burch ekanini barcha tomonidan qadriyat deb bilinadi.

Shuningdek, Abulg'ozzi *"Ota boshliq barcha aqalar kenja o'g'ulni siylar ermish"* deb yozgan an'ana bugungi kunda ham biror o'zgarishga uchramasdan qo'llanilib kelayotgani quvonarlidir. Ming yillar bo'yi dala-qirlarda yashagan ellar, ayniqsa, turk va mo'g'ullar "to'ra-tuzuk"lari, ya'ni "qonun"iga xos bo'lgan bu an'ana Chingiziylar chog'ida yanada keng quloch yoygani Abulg'ozzi keltirgan quyidagi bilgilardan ham anglashiladi: *"Kenja o'g'lini mo'g'ul rasminda barcha o'g'lonlardin ortuq izzat va hurmat qilurlar"* [Abulg'ozziy 1992, 46].

Shunisi qiziqarliki, "kenja o'g'il" yo'sini Chingiziylardan 500 yilcha ilgari o'tgan Turk xoqonligi jamiyati bilan bog'liq bo'lib, Abulg'ozzi keltirgan quyidagi bilgida bu an'ana mo'g'ullarga tegishli deb ko'rsatilgani ko'zga tashlanadi: *"Kenjani mo'g'ul o'tjikin der. O'tjikinining ma'nosi o't egasi temak bo'lur. Aning uchun o'zga o'g'lonlarni evlanturub, uzata-uzata evda yakka kenja qolur. Taqi otasining o'choqining egasi bo'lur"* [Abulg'ozziy 1992, 46].

O'sha kezlarda qanday bo'lsa, shundayligicha yashab kelayotgan bu tizimni ilk bor Turk xoqonligi chog'ida uchratar ekanmiz, mo'g'ulchada "o'tjikin" ko'rinishini olgan bu atama eski turkchada "o't-tegin" – "o'choq egasi" bo'lgani va mo'g'ul tiliga "o'tjikin" ko'rinishida o'zlashgani ilgari suriladi. Chindanda, mo'g'ulchadagi "o'tjikin", to'g'rirog'i, "o'tchigin" biror ma'no – anglam bermay, uning ilk ko'rinishi bo'lmish eski turkcha "*o't-tegin" so'zi "o't – olov, o't, o'choq" + "tegin" – shahzoda ("tegi" – tagi, nasli) so'zlaridan yasalgan degan qarashlar bor. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, turk va mo'g'ul tillarida ayrim o'rinlarda "t" undoshi so'z boshi va so'z o'rtasida kelganda "ch" undoshiga aylanadi. Shu yo'sinda "o't-tegin" atamasi "o'tchigin", "o't-jikin" ko'rinishlarini olgan.

Xulosa

Qisqasi, ming yillar bo'yi "turkcha", "turkiy" deb yuritilib kelgan tilimiz o'rta asrlarga – XV – XVII asrlarga kelib ushbu atamalar bilan uyqash (sinonim) o'laroq "o'zbekcha" deb ham atala boshlaydi. Unchalik keng emas, ayrim o'rinlardagina qo'llanila boshlagan bu atama yuzyillar o'tgan sari tobora kengayib bordi va XX yuzyillik boshlarida Turkiston ellarining ulkan bir bo'lagi so'zlashadigan tilning yalpi otiga aylandi.

Bu masalani yanada oydinlashtirish uchun boshqa yozma manbalarga ham sinchiklab qarab chiqish kerakligiga urg'u bergan holda, shuni aytib o'tish kerakki, ming yildan ortiq vaqt kesimida turkiy ellar uchun yozma adabiy til bo'lib kelgan "xoqoniya turkchasi" va uning izdoshi bo'lmish "chig'atoy turkchasi"ning davomi bo'lgan bu til ko'proq Qoraxoniylar va Temuriylar o'rtamida, ya'ni Turon – Turkistonning o'zagida o'sib-ulg'aygan bo'lib, Dashti Qipchoq turkiylari tilining o'zgachaliklarini ham o'ziga singdirgan til o'laroq bo'y ko'rsatdi. Bunda o'sha kezlarda o'lkada o'z boshqaruvini o'rnatgan Shayboniylar (1500-1601), Ashtarxoniylar (1601-1757) va boshqa o'zbek xonliklari yuz bergan etnik jarayonlarning ham o'ziga xos ulushi bor.

Adabiyotlar

- Абдурахмонов, Ғ., Рустамов, А. 1982. *Қадимги туркий тил*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Абулғозий, 1992. *Шажарайи турк*. Тошкент: Чўлпон.
- Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 1960. *Бобирнома*. Тошкент: ЎЗР ФА нашриёти.
- Бабаяров, Ғ., Кубатин, А. 2011. "Древнетюркские монеты Согда с титулом "Хатун". *Ўзбекистон тарихи ва маданияти*: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 251 – 256. Ташкент: Tafakkur.
- Древнетюркский словарь*. 1969. Под ред. В. М. Наделяева, Д. М. Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. Л.: Наука.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1960. *Туркий сўзлар девони (Девону-луғотит-турк)*. 1960. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 1 том. Тошкент: Фан.
- Санжеев, Г.Д., Орловская, М.Н., Шевернина, З.В. 2015. *Этимологический словарь монгольских языков: в 3 т.* Институт востоковедения РАН. Гл. ред. Г.Д. Санжеев, ред. Л.Р. Концевич, В.И. Рассадин, Я.Д. Леман. Москва: ИВ РАН.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ч ҳарфи*. 2008. А. Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Ўзбек халқ шевалари луғати*. 1971. Масъул муҳаррир Ш.Шоабдурахмонов. Тошкент: Фан.

- Юдахин, К.К. 1985. *Кыргызско-русский словарь*. Составил К.К. Юдахин. Москва: Изд-во “Советская энциклопедия”.
- Boboyor, G'. 2024. “*Turkiy til*”, “*chig‘atoy turkchasi*” yoki “*o‘zbek tili*” – *Tilimiz “o‘zbekcha” nomini qachon olgan?* / <https://oyina.uz/uz/article/3139>
- Mert, O. 2009. *Ötüken Uygur Dönemi Yazıtlarından Tes – Tariat – Şine Us*. Ankara.

At which Stage in its History did our Language Begin to be Called “Uzbek”?

Gaybulla Babayarov¹

Abstract

Like many Turkic languages, the Uzbek language was referred to for centuries by terms such as “Turkic language” or simply “Turkic.” The “Khāqāni Turkic,” which emerged on the basis of Old Turkic in Eastern Turkestan, began to expand during the reign of the Qarakhanid dynasty (960–1212) in the core regions of Turan–Turkestan – the area between the Amu Darya and Syr Darya rivers and adjacent lands. Under this dynasty, the language spread to places such as Uzgend (in the Fergana Valley), the middle reaches of the Syr Darya including Tashkent and Yassi (Turkistan), and to Samarkand and Bukhara in the Zarafshan Valley. It further expanded during the Chagatai Ulus (1224–1340) and the Timurid period (1370–1407), gaining widespread use under the names “Turkic” and “Chagatai Turkic.” Uzbek language, which is a direct descendant of Chagatai Turkic, continued to be known primarily by these terms up until the early decades of the 20th century. However, from as early as the beginning of the 16th century, when the ethnonym “Uzbek” began to spread across the Amu Darya–Syr Darya region, the language also started to be referred to in some contexts as “Uzbek” or “Uzbek Turkic.”

Key words: *Turkic, Khāqāni Turkic, Eastern Turkestan, Amu Darya – Syr Darya region, Chagatai Turkic, Uzbek, Shajara-yi Turk.*

References

- Abdurahmonov, G', Rustamov, A. 1982. *Qadimgi turkiy til*. Toshkent: O'qituvchi.
- Abulg'oziy, 1992. *Shajarayi turk*. Toshkent: Cho'lpon.

¹Gaybulla B. Babayarov – Doctor of History, professor, Academy of Sciences of Uzbekistan National Center of Archaeology.

E-mail: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3456-3410

For citation: Babayarov, G. B. 2025. “At which stage in its history did our language begin to be called “Uzbek”?” *Golden Scripts* 2: 89 – 102.

- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 1960. *Bobirnoma*. Toshkent: O'zR FA nashriyoti.
- Babayarov, G., Kubatin, A. 2011. "Drevnetyurkskie moneti Sogda s titulom "Xatun". *O'zbekiston tarixi va madaniyati*: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 251 – 256. Tashkent: Tafakkur.
- Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Pod red. V. M. Nadelyaeva, D. M. Nasilova, E. R. Tenisheva, A. M. Sherbaka. L.: Nauka.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1960. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu-lug'ot it-turk)*. 1960. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 1 tom. Toshkent: Fan.
- Sanjeev, G.D., Orlovskaya, M.N., Shevernina, Z.V. 2015. *Etimologicheskii slovar mongolskix yazikov: v 3 t*. Institut vostokovedeniya RAN. Gl. red. G.D. Sanjeev, red. L.R. Konsevich, V.I. Rassadin, Ya.D. Leman. Moskva: IV RAN.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. Ch harfi*. 2008. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Mas'ul muharrir Sh. Shoabdurahmonov. Toshkent: Fan.
- Yudaxin, K.K. 1985. *Kirgizsko-russkiy slovar*. Sostavil K.K. Yudaxin. Moskva: Izd-vo "Sovetskaya ensiklopediya".
- Boboyor, G'. 2024. "Turkiy til", "chig'atoy turkchasi" yoki "o'zbek tili" – Tilimiz "o'zbekcha" nomini qachon olgan? / <https://oyina.uz/uz/article/3139>
- Mert, O. 2009. *Ötüken Uygur Dönemi Yazıtlarından Tes – Tariat – Şine Us*. Ankara.

Xorazm dialektal zonasida o'zbek shevalari leksik xususiyatlarining turkman tili (shevasi)ga ta'siri

Elyor Alimardanov¹

Abstrakt

Turkiy lingvistik makonning tarkibiy qismi bo'lgan o'zbek tili massiviga kiruvchi Xorazm dialektal zonasida o'zbek tilining o'g'uz, qipchoq shevalari, shuningdek, qoraqalpoq, turkman, qozoq tillarida so'zlashuvchi aholi areallari mavjud. Shunga ko'ra, zonada shevalararo (ichki) va tillararo (tashqi) oraliq shevalar yuzaga kelgan. Dialektal zonaning areal lingvistik tasnifida turkman shevalari tashqi oraliq shevalarning turkman-o'zbek oraliq shevalariga mansub bo'lib, o'z ichida ikkiga bo'linadi: To'rtko'l tip shevalari (TTSH), Urganch tip shevalari (UTSH). To'rtko'l tip turkman shevalariga To'rtko'l tumanining Oqqamish, Oqboshli, Kaltaminor, Otayurt, Paxtachi, Paxtaobod, Atauba qishloqlari, Tuproqqal'a tumanining Sarimoy, Nukus maskani qishloqlari, Ellikqal'a tumani Tozabog', Beruniy tumani Mahtumquli qishlog'i, Amudaryo tumani Amir Temur qishlog'i kirs, Urganch tip turkman shevalariga Urganch tumani Turkmanlar qishlog'i, Qo'shko'pir tumani Shix qishlog'i, Shovot tumani Bo'ston qishlog'i, Yangiariq tumani Vakillar qishlog'i, Bog'ot tumani Qalajiqqal'a qishloqlari mansubdir. TTSHga o'zbek tilining ta'siri bo'lsa-da, lekin unda ko'p hollarda turkmancha til xususiyatlari amal qiladi, lekin UTSH ba'zi o'rinlardagina turkmancha unsurlarini saqlab qolgan bo'lib, aksar o'rinlarda atrof o'zbek shevalaridagi kabi til xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

Mazkur dialektal zonada fokus nuqtasi sifatida Urganch-Xiva shevalari atrof til va shevalarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu ta'sir tilning har uchala fonetika, leksika va grammatika sathlarida ham ro'y beradi.

Ushbu maqolada dialektal zonadagi o'zbek shevalarining turkman shevalariga leksik ta'siri xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Xorazm dialektal zonasi, fokus nuqta, o'zbek tili, turkman tili, leksik ta'sir.*

¹ Elyor Alimardanov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: elyoralimardanov11@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-5889-6371

Iqtibos uchun: Alimardanov, E. 2025. "Xorazm dialektal zonasida o'zbek shevalari leksik xususiyatlarining turkman tili (shevasi)ga ta'siri". *Oltin bitiglar* 2: 103 – 117.

Kirish

Xorazm vohasidagi o'zbek va turkman tillari leksikasining o'zaro aloqasi M.Saparov tomonidan o'rganilgan. U ishda, asosan, ko'proq umumiy – o'xshash jihatlariga e'tibor qaratib, o'zbek va turkman tillari leksik fondini qatlamlarga ajratib tadqiq qiladi. Xorazm dialektal zonasidagi o'zbek va turkman tillari haqida gap ketganda, ularning kelib chiqishi, yuqorida aytilganidek, o'g'uz komponentiga borib taqalishini unutmaslik kerakki, ikki til vakillari nutqida o'xshash jihatlar talaygina. Bu holat, ayniqsa, leksik sathda yorqinroq namoyon bo'ladi.

Dialektal zonadagi o'zbek va turkman shevalari leksik fondida umumiy bo'lgan so'zlar ko'p bo'lsa-da, ammo fonetik jihatdan farqli ko'rinishlarga ega. Masalan, Urganch-Xiva: *ajax, ax, jaxši, ulli, kičči, gäl, get, saşşal, şulaş* turkman shevalari: *ajaq, aq, jayşi, uli, kiči, gel, git, saqşal, şulaş* kabi. Bu holatlar ko'pincha tovush mosligi (*ş ~ q, ı ~ i, ä ~ e, e ~ i*) bilan bog'liq (buni fonetika qismda ham ko'rgan edik). So'zlarning ikki xil variantda talaffuz qilinishi, ya'ni parallel ravishda qo'llanishi yoshlar nutqida keng uchraydi. Ammo To'rtko'l tumani Bezirgan qishlog'i shevasida o'zbek shevalarining bu kabi ta'siri passivdir.

Turkmanistonning shimolida, Amudaryo bo'ylarida qadimgi o'troq o'zbek xalqi bilan yonma-yon yashayotgan turkmanlar ... asosan, dehqonchilik, bog'dorchilik, ipakchilik bilan shug'ullanadilar. Shuning uchun ham ularning tillarida xalq xo'jaligining mazkur tarmoqlariga oid so'zlar ko'p bo'lib, bu so'zlar hozirgi zamon turkman tili va uning boshqa markaziy dialektlari bilan qiyoslanganda katta farqlar seziladi [Canapov 1988, 23]. Jumladan, UTSH, Otaoba, Oqqamish (igderlar), Tozabog' (duyeji, go'klan) qishloqlarida yashovchi turkman shevalari leksikasi ko'p jihatdan Urganch-Xiva shevalari bilan bir xildir. Masalan, Urganch-Xiva shevalari: *ö:rä, pıjaz, badrıñ, şoçşar, mejnät, namuna, xatın, partav, bojdaş, jalşov, ti:n, iştan, pardaz, ovşat*; Otaoba, Oqqamish (igderlar), Tozabog' (duyeji, go'klan): *ö:rö, pijaz, badıreñ, qoçqar / şoçşar, mejnät / mejnet, namu:na, xa:tın, partav / partov, bojdaq, jalqov, tijn, iştan:n, perdo:z / parda:z, avqa:t*;

A.Arazov To'rtko'l turkman shevalariga o'zlashgan bir qancha so'zlarni qoraqalpoq tilining ta'siri sifatida qayd etadi [Аразов 2007, 15-16.]. Lekin A.Arazovning bu boradagi fikrlari shubhalidir. *Аман азанда сизе барйадыгой. Гөзел алан сумкасы дым зор екен. Адам көп боланы үчин кейнине гайтарыпдырлар оны. Мен ене гелерин бирак ишими битирмесең өзүңнен гөр!* Olim keltirgan

namunalardagi tagiga chizilgan so'zlarning To'rtko'l turkmanlari shevasida qo'llanilishi qoraqalpoq tilining ta'siri ekanligini aytadi. Bizningcha, *азанда, дым* so'zlarining qo'llanilishi Xorazm dialektal zonasidagi mavjud turkiy til va shevalarning barchasiga xosdir. Bu bir ijtimoiy muhitda yashagan nafaqat o'zbek, turkman, balki qoraqalpoq, qozoq tillari uchun ham umumxususiyatdir.

Turkman tilini markaziy va boshqa shevalardan ajratib turuvchi bu so'zlar, dialektal zonaning fokus nuqtasi hisoblangan Urganch-Xiva shevalarining ta'siridir. To'rtko'l tumanida kam sonli qoraqalpoq millati vakillari istiqomat qiladi (buni tumanda birgina qoraqalpoq tilida ta'lim beradigan maktabning mavjudligi ham isbotlaydi). Shu tufayli qoraqalpoq tilining mazkur hudud shevalariga ta'siri u qadar ko'p emas.

Janubiy qoraqalpoq tumanlari hududida o'g'uzlar bilan qipchoq o'zbeklari ham istiqomat qiladi. Shunga ko'ra, *зоў (yoj), кейнине, бурак (aslida бырак)* so'z va qo'shimchalarini qipchoq o'zbeklarining ta'siri sifatida qarash mumkin.

Shuningdek, A.Arazov To'rtko'l, Ellikqal'a, Beruniy, Amudaryo tumanlarida o'zbek hamda turkmanlar ko'pchilikni tashkil etib, ushbu hududdagi qoraqalpoq shevalariga o'zbek va turkman tillarining kuchli ta'siri borligini e'tirof etadi [Аразов 2007, 18].

Turkman shevalariga o'zbek tilining leksik ta'siri

Turkman shevalariga o'zbek tilining leksik ta'siri ikki tomonlama ham adabiy til, ham yondosh shevalar kontakti natijasida amalga oshadi. Davlat boshqaruvi, fan, san'at va madaniyatga daxldor so'zlar o'zbek adabiy tilidagi kabi o'zgarishga duchordir. Masalan, turkman tilida *etrab* so'zi tuman ma'nosidadir, ammo aksar hollarda *etrab* emas, tuman so'zi qo'llaniladi, *Dö:rtköl etrabı ~ Dö:rtköl tümäni* kabi. Yoki *γaraşsız Özbekistan* emas, *mustaqil O'zbekiston*.

M.Saparov turkman shevalariga o'zbek tilidan o'zlashgan quyidagi so'zlarni keltiradi: *a:zīqlandīruv, jalqov, maqtav qayaz, avqatlanmaq, örnök, öçürgüç, pajtava, tanapīs, taşva:qya, maytamaq, xa:rmaq, erimmek* [Сапаров 1988, 34-35]. Bu so'zlar turkman adabiy tili va markaziy shevalarida farqli ko'rinishlarga ega. Masalan, turkman adabiy tili: *gurplandırmak, ýalta, hormat xaty, naharlanmak, görelde, buzgunç, dolak, arakesme, pyşdyl, öwmek, ýadamak, ýaltanmak*.

Dialektal zonaning turkman shevalarida o'zbek adabiy tilidagi *ota, ona* so'zlari Urganch-Xiva shevalarida qo'llaniladigan *äkä, apa*

hamda turkman tiliga xos *qaqa* (*ata, dā:de*), *eže* kabi soʻzlar bilan parallel qoʻllanadi. Dialektal zona turkmanlarining faqat arabachi (Beruniy tumani Maxtumquli qishlogʻi) shevasida ota maʼnosida *ā:ke* qoʻllanadi, *qa:qa* esa, ota (Toʻrtkoʻl, Tuproqalʼa), kam boʻlsa-da yovmut urugʻlarida, shuningdek, *dā:de* soʻzi ham ota (Toʻrtkoʻl, Tuproqalʼa), yovmut (Amudaryo), yemrali, qoratoshli, goʻklan (Beruniy) urugʻ vakillarida ishlatiladi [Аразкулыев 1987, 12 – 14]. Kuzatishlarimizdan maʼlum boʻldiki, Toʻrtkoʻl tumani Ilich qishlogʻi va Beruniy tumani Maxtumquli qishloqlarida yashovchi arabachi urugʻi vakillari *ākā*, *apa* kabi qarindoshlik soʻzlarini qoʻllaydilar. S.Arazkuliyeu, shuningdek, *apa* soʻzini arabachi, igdir, duyeji, goʻklan kabi shevalarda qoʻllanishini qayd qiladi [Аразкулыев 1987, 15 – 16].

Turkman shevalarida togʻa maʼnosida *da:ji* soʻzi qoʻllaniladi. Ammo oʻzbek tilining qipchoq shevalari taʼsiri natijasida aksar hollarda igdir, duyeji, goʻklan shevalarida *taya* soʻzi qoʻllaniladi.

Turkman tili hamda shevalarida aka-uka, opa-singilning bolalari *čiqan* deyilsa, igdir, duyeji, goʻklan shevalarida *xalabečže* / *xalavečže*, *emmevečže*, *bō:le* kabi aytiladi va koʻp hollarda *bō:le* soʻzi boshqalariga nisbatan faol, opa-singilning bolalariga nisbatan ishlatiladi.

Unashtirilgan qiz turkman adabiy tili va markaziy shevalarida *a:dayli* (atalgan) koʻrinishida qoʻllaniladi. Ammo dialektal zonadagi turkman shevalarida *a:dayli* bilan birga *patijali* leksemasi ham qoʻllanadi. *a:dayli* soʻzi ota urugʻi vakillari nutqida qoʻllanilsa, *patijali* esa, igdir, duyeji, goʻklan shevalarida qoʻllaniladi. Ayni koʻrinish (*patijali*) shakli Urganch-Xiva shevalaridan oʻtgan.

Shuningdek, qarindoshlikni ifodalovchi shunday soʻzlar borki, kichik fonetik farqlarga ega boʻlsa-da, ammo maʼno jihatidan umumiydir. Masalan: *ķi:z* ~ *ķi:z*, *gāli:n* ~ *gelin*, *ķajnata* ~ *ķa:jnata*, *ķajnana* ~ *ķa:jnene*, *ķajnaya* ~ *ķa:jnata*, *ķuda* ~ *ķuda*, *a:dayli* ~ *patijali*. Birinchi shakllarning qoʻllanilishi koʻproq igdir, duyeji, goʻklan shevalariga xos boʻlib, ikkinchi shakllarning qoʻllanilishi ota urugʻlarida uchraydi.

1-jadval

Oʻzbek adabiy tili	Urganch-Xiva	Bezirgan, Kaltaminor (otalar)	Otaoba, Oqqamish (igderlar)	Tozabogʻ (duyejilar)	Turkman adabiy tili
<i>bobo</i>	<i>ata / buva</i>	<i>ava / ba:va</i>	<i>ba:vo</i>	<i>ba:vo / buvo</i>	<i>ata / baba</i>
<i>buvi</i>	<i>ānā / mama</i>	<i>ene / ma:ma</i>	<i>ma:ma</i>	<i>ma:ma</i>	<i>ene / ma:-ma</i>
<i>aka</i>	<i>aya</i>	<i>dā:de</i>	<i>aqya</i>	<i>a:ya</i>	<i>dogan</i>

<i>uka</i>	<i>iní</i>	<i>iní</i>	<i>uja</i>	<i>uja / iní</i>	<i>dogan</i>
<i>kelinoyi / yanga</i>	<i>gälinbiji / biji / jänñä</i>	<i>gelleže</i>	<i>jeññe / jänñä</i>	<i>jeññe / jänñä</i>	<i>gelneje</i>
<i>amaki-vachcha</i>	<i>ayajala</i>	<i>emeki</i>	<i>emekbečže</i>	<i>emeki</i>	<i>iki dogan oglan</i>
<i>jiyan</i>	<i>žijän</i>	<i>jegen / žijän</i>	<i>žijän</i>	<i>žijän</i>	<i>ýegen</i>

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, mahalliy turkman shevalariga o'zbek (o'g'uz) shevalaridan *aqya / a:ya, ini, žijän* so'zlari o'zlashgan. Shuningdek, dialektal zonaning turkman shevalariga o'zbek tilining o'g'uz shevalari bilan birga qipchoq shevalarining ham ta'siri bor. Masalan, *ba:vo / buvo, ma:ma, uja, jeññe / jänñä, emeki / ämäki* so'zlari qipchoq shevalarining ta'siri tufayli o'zlashgan.

Dialektal zonaning aksar o'g'uz shevalarida ota tomondan boboga, ya'ni otaning otasiga nisbatan *ata*, ona tomondan boboga, ya'ni onaning otasiga *bava / buva* leksemasi qo'llaniladi. *Baba* leksemasi dialektal zonaning Xo'jayli, Qipchoq, Mang'it, Beruniy, Qo'ng'irot, Qonliko'l tumanlarida, *buva* leksemasi esa Gurlan, Yangibozor, Sho'raxon, Saribiy hududlariga tarqalgan [Ибрагимов 2000, 206]. Demak, mahalliy turkman shevalariga o'zbek (qipchoq) shevalaridan *ba:vo / buva* leksemasi ham ota tomondan, ham ona tomondan boboni ifodalaydi hamda *ba:vo / buva* so'zi otaning akasi, ya'ni amaki ma'nosida ham qo'llaniladi. Shuningdek, ushbu leksema dialektal zonaning qoraqalpoq shevalarida *буѣа / бува / баѣа* ko'rinishlarida keng qo'llaniladi: *Буѣамыз Хийваның ханына батыр болыпты. Буваң мудам келәтин еди ғо. Рәйкә баѣа шу ханның ѣазийри* [Доспанов 1977, 136]. Buni qoraqalpoq shevalariga o'zbek tilining ta'siri deyish mumkin.

Änä / mama leksemalari umumiy *buvi* ma'nosini ifodalasa ham ota va ona tomonidan nomlanishiga ko'ra farq qiladi. Bu holat turkman adabiy tili va markaziy shevalari (*ene / mama*) hamda dialektal zonaning o'g'uz shevali areali, o'zbek-turkman, turkman-o'zbekoraliq shevalari (*änä / mama*) uchun xosdir. Shuningdek, bu kabi holat turkiy tillardan qirg'iz tilida ham uchraydi [Исmoilов 1966, 78]. Dialektal zonadagi qipchoq shevali arealning Gurlan, Amudaryo-Beruniy tip shevalari va Yangibozor ichki oraliq shevalarida *ienä*, Xo'jayli shevalari, tashqi oraliq shevalar arealining Ko'hna Urganch-Ko'kchaga-Oltmish (o'zbek-turkman), Qo'ng'irot tip shevalarida *ienä*, o'g'uz shevali arealda *änä* leksemalari ota tomondan buvi ma'nosini ifoda etadi. *Mama* leksemasi dialektal zonaning barcha arellarida ona tomondan buvi ma'nosida qo'llaniladi. Turkman-o'zbek oraliq arealining Otaoba, Oqqamish, Tozabog' qishloqlarida ota va ona

tomondan umumiy buvi ma'nosida *mama* leksemasining qo'llanishi ham qipchoq shevalarining ta'siridir.

O'zbek tilining leksik ta'sirining mavzuiy tasnifi

Dialektal zonaning turkman shevalariga o'zbek tilining leksik ta'sirini quyidagicha mavzuiy guruhlariga bo'lish mumkin.

Uy-joy buyumlariga oid so'zlar: *ba:dja* – “sopol tovoq”. Dialektal zonadagi o'zbek shevalarida *badja* (*бадђа*) ko'rinishida uchraydi [Абдуллаев 1961, 25]. Ushbu so'z turkman adabiy tili va markaziy shevalarida qo'llanilmaydi, lekin o'g'uz turkum tillari, jumladan, turk tilida *bodjo* (*бодђо*), ozarbayjon tilida *badja* (*бадђа*) ko'rinishlarida uchraydi [Мадраҳимов 1999, 49]. Masalan: *Bar, bir ba:dja čal äkel, ičäli* (*Bor, bir tovoq chalob olib kel, ichaylik*);

tijr / ti:r – “kepchik”. Dialektal zonaning o'g'uz shevali arealining Urganch, Xiva, Xonqa, Shovot tumani hududlarida faol qo'llanuvchi bu leksema mahalliy turkman shevalariga o'tgan;

küpi – “kubi”. Ushbu leksema Xiva shevasida *küpi*, Urganch, Xonqa shevalarida *küvi*, Gurlan va Yangibozor shevalarida *kübi* ko'rinishlarida uchraydi;

sila:pča – “qo'l yuvdirish uchun ishlatiladigan tog'ora, chilopchin”. Gurlan, Mang'it, Yangibozor shevalarida *silapča*, Urganch, Xiva, Hazorasp shevalarida *salapča* shaklida qo'llaniladi. Masalan: *Sila:pča:nī getíríp, ellernä suv sal* (*Chilopchinni olib kelib, qo'llarga suv quy*);

leva:p kä:se / gö:knä:r kä:se – “kosa”. Dialektal zonada *ka:sa* (va uning fonetik variantlari *ka:se, kä:se*) leksemasi piyola ma'nosida, *läva:pı ka:sa* esa kosa ma'nosini bildiradi va bu so'z turkman shevalari fonetikasiga moslashgan holda o'zlashtirilgan;

lä:li / lä:lı – “tunuka tovoq, tarelka”;

sijxaq – “qirg'ich”. Dialektal zona o'zbek shevalarida *sijhäk* ko'rinishida uchraydi. Qizig'i, turkman adabiy tilida o'zbek adabiy tiliga o'xshash (qirg'ich) *gyrgyç* shaklida qo'llaniladi;

qumyan / quman – “qumg'on”. Dialektal zonaning markaziy shevalarida *quman* shaklida uchraydi. Ko'rinadiki, ushbu so'z turkman shevalari fonetikasiga moslashgan holda o'zlashtirilgan. Shuningdek, bu so'z Stavropol turkman shevalarida ham uchraydi [Аразкулыев, Атаныязов, Бердиев, Сапарова 1977, 65]. Masalan: *Ana-ku, qumyan ältinqä* (*Ana-ku, qumg'on oldingda*);

a:dayarva – “bolalarni yurishga o'rgatadigan uch g'ildirakli arava”. O'g'uz shevali areallarda *adaq arva*, qipchoq shevali areallarda *adayarba / adayarva* ko'rinishlarida uchraydi;

sozon / sozan – “juvoldiz”. Ushbu leksema turkman adabiy tilida *temen* so'zi bilan ifodalanadi [Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi (II tom) 2015, 362]. Qoraqalpoq adabiy tilida *sozan* bigiz, Qo'ng'iro't tumani va Kegayli tumani Qatag'on qishlog'i qoraqalpoq shevalarida hamda Xo'jayli o'zbek shevalarida *juvoldiz* ma'nosida qo'llaniladi [Насыров, Доспанов 1983, 267; Ишаев 1977, 154]. Shuningdek, bu so'z o'zbek shevalarida ba'zan *nina* ma'nosida ham keladi: *Tomirimga tomchilab Zardob sizar so'zondan, Vaqt otini qamchilab O'tar shomda, azonda* (Hol Muhammad Hasan, Qaytish) [Musayeva 2022, 284].

Markaziy turkman shevalari va adabiy tilda uchramaydigan ushbu hudud turkman shevalariga xos bo'lgan bu so'zning qo'llanilishini Urganch-Xiva shevalarining ta'siri natijasida yuzaga kelgan deb bo'lmaydi. Sababi, dialektal zonaning o'g'uz shevali arealida *juvoldiz* ma'nosida *tämän* yoki *tämän innä* so'zlari qo'llaniladi [Абдуллаев 1961, 25; Мадраҳимов 1999, 162; Мадраҳимов 1973, 176]. Shunga ko'ra, bu so'zning qo'llanishi atrof qipchoq shevalarining ta'siri deyish mumkin. Shuning bilan birga, *žuva:ldiz* so'zi ham mahalliy turkman shevalarida qo'llaniladi.

Ko'rpa-to'shak va gilamchilikka oid so'zlar: *körpe / körpä* – *ko'rpa*. Bu leksema markaziy turkman shevalari va adabiy tilda *yorgan* ko'rinishda uchraydi;

körpeče / körpäčä – “ko'rpacha”. Masalan: *Iča:ndan körpäčä alıp çıq* (*Ichkaridan ko'rpacha olib chiq*). Turkman adabiy tili va markaziy shevalarida *düşekçe* shaklida uchraydi;

kigiz / kijz – “kigiz”. *Kigize tüşe öziñ* (*Kigizni o'zing to'shamoq*). Turkman adabiy tili va markaziy shevalarida *keçe* shaklida uchraydi;

tekelevent / tekenebent / tākänäbänt – “katta kigiz”. Masalan: *Bir tekelevent keçe gerek dijdı* (*Bir katta kigiz kechga kerak deydi*). Dialektal zonaning aksar areallarida *tākänämät*, Hazorasp shevalarida *tākjänävänt*, Amudaryo tumani Qilichboy qishlog'ida *tākjämänt*, Mang'it, Xo'jayli shevalarida *tākjämät / tākjämät* ko'rinishlarida uchraydigan bu leksema chiroyli guldor kigiz ma'nosini ifodalaydi. Bu so'z turkman shevalariga fonetik jihatdan moslashgan holda guldor va chiroyli kigizni emas, umuman, katta hajmdagi kigiz ma'nosi bilan kirgan;

gülvent – “mayda-mayda munchoqlardan chiroyli qilib yasalgan ayollar bo'yniga taqadigan bezak”.

Oziq-ovqatga doir so'zlar: *atala* – “atala”. Masalan: *Atala-da pişîremi* (*Atala ham pishiraymi*)? Turkman adabiy tili va markaziy shevalarida taomning bu turi *bulamak* leksemasi bilan ifodalanadi

[Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi (I tom) 2016, 174–175]. *Bulamaş* / *bulamış* leksemasi dialektal zonaning o'zbek shevalarida ham qo'llaniladi [Абдуллаев 1961, 29–112; Мадрахимов 1973, 121];

qujman / *yujman* – “quymoq”. Masalan: *yujman píširemís* (*quymoq pishiramiz*). Turkman adabiy tilida *çapady* so'zi bilan ifodalanadi; Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi (I tom) 2016, 174–175];

qurmuş / *yurmuş* – “somsaning bir turi”;

petírek / *petijrek* / *pätírák* – “piyoz solingan zog'ora non”.

Mahalliy o'zbek shevalarida *pätírák* / *pätrák* ko'rinishlarida uchradi;

kíčílí – “kichirining bir turi”. Masalan: *yış günü kíčílí kem dā:l* (*Qish kunlari kichira kam emas*);

qajış / *γajış* – “xamir ovqatning bir turi”;

sömölek – “sumalak”;

nışa:la – “nisholda”. Mahalliy o'zbek shevalarida *neşalla* ko'rinishida uchraydi [Абдуллаев 1961, 29 – 112];

şírní – “shinni”. O'zbek shevalarida *şínní*, turkman adabiy tili va markaziy shevalarida *toşap* shaklida qo'llaniladi.

Shuningdek, boshqa hudud turkman shevalaridan farqli dialektal zonadagi turkman shevalarida yog' turlari alohida nomlanadi. Masalan: *a:q ja:γ*, *za:vut ja:γ* leksemalari paxta yog'ni ifodalasa, *červí* / *čärví* *jaγ* so'zi dumba yog'ni, *žuva:z ja:γ* esa, juvazda chiqarilgan har qanday yog'ni bildiradi. Bu leksemalar ham o'zbek tilining ta'siri natijasida o'zlashgan.

Ish qurollari va ularning qismlariga doir so'zlar: *mala pajča* – “mola”. Dialektal zonadagi o'zbek shevalarida *mala*, shuningdek, turkman adabiy tili va markaziy shevalarida ham *mala* ko'rinishlari qo'llaniladi. Demak, bu so'zning qo'llanilishi mazkur oraliq arealining o'ziga xos xususiyatidir;

denda:na – “dandana”. O'g'uz shevali arealda *dändäna*, qipchoq shevali arealda *dandana*, turkman adabiy tili va markaziy shevalarida *dyrmyk* shakllarida uchraydi;

yumra – “belkurak dastasiga mahkamlanadigan tunuka shayba”. Dialektal zonaning o'zbek shevalarida *qumra* / *qumra* ko'rinishlarida qo'llaniladi;

kečgírt – “o'roqsimon pichoq”. O'g'uz shevali arealda *käškät*, qipchoq shevali arealda *käčkärt* / *käškärt*, o'zbek-turkman oraliq (Toshhovuz) shevalarida *käčkärt* shakllarida uchraydi.

Poliz ekinlari va mevalar: gürvek / *kürvek* – qovunning turi, erta pishar, to'rtli, yumaloq, shirin qovun. Mahalliy o'zbek shevalarida

gürvāk / gürbāk / kürvāk shaklida qo'llaniladi;

hītaj – qovunning turi, mag'zi qizil, shakli cho'ziqroq, rangi ko'kish qovun. O'zbek shevalarida *xīta:ji / xītajı* ko'rinishlarida uchraydi;

šapbazi – qovunning turi, rangi sarg'ish-ko'k, kuzgi-qishki qovun bo'lib, bahorgacha saqlanadi. O'zbek shevalarida *šabbazi, güla:vi* ko'rinishlarida uchraydi;

a:lahekek – qovunning turi, tusi ko'kimtir, mag'zi oq, eti sersuv bo'ladi, yozda pishadi. Ushbu leksema Bezirgan, Kaltaminor, Sarimoy kabi qishloq shevalarida *pa:jendeki* ko'rinishida uchraydi. O'zbek shevalarida *aläkkä* shaklida qo'llanadi;

ba:díreñ / badíreñ – “bodring”. Bu leksema turkman adabiy tili va markaziy shevalarda *hyýar*, shuningdek, qoraqalpoq tilida *қыяр* shakllarida qo'llanadi [Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлігі 2023, 80]. Dialektal zonaning o'zbek shevalarida *badrín / badírin* ko'rinishlarida qo'llanuvchi bu so'z o'zbek tilining ta'sirida qoraqalpoq tilining janubiy shevalarida ham faol ishlatiladi [Доспанов 1977, 118];

levlegí / lävlägi – “lavlagi”. Ushbu so'z dialektal zonaning o'zbek shevalarida *lablabı, lävlägi lövlövi*, turkman adabiy tili va markaziy shevalarida *şugundyr* holatida qo'llanadi;

šívít – “shivit”. Dialektal zonaning o'zbek shevalarida *šívít / šü:t* ko'rinishlarida qo'llanadi.

Sohalarga (arava va aravachilikka) oid leksika: *arvejer / arväjär* – “aravaning egari”. Aslida bu leksema ikki so'zning qo'shiluvidan hosil bo'lgan va talaffuzda soddalashib bir so'z shakliga kelib qolgan: *arva äjări > arva äjär > arväjär*. O'zbek shevalaridan turkman shevalariga o'tishda bu shevalar fonetik xususiyatlariga moslashgan. Shuningdek, Toshhovuz tumani Hallang qishlog'i shevasida *arbíjār* ko'rinishida ham uchraydi [Йўлдошев 2002, 140];

bosoya / bosaya – “ikki yog'ochni bir-biriga mahkamlaydigan ikkita ko'ndalang yog'och (narvon va aravalarda ishlatiladi)”. Arealdagi o'zbek shevalarida *bosaya* shaklida qo'llaniladi;

menžíre / menžírä – “arava ustiga (yon taxtalarni tutib turish uchun) biriktirilgan to'rtta kichik ustun”. Mahalliy o'zbek shevalarining aksarida *mänžírä*, Toshhovuz shahrida *pänžírä* ko'rinishida uchraydi;

zäñqí – “aravada aravakash o'tiradigan taxta”. O'zbek shevalaridan turkman shevalariga bu omonim so'zning ushbu ma'nosi bilan birga “narvon” ma'nosi ham o'tgan. Dialektal zonaning markaziy shevalarida *zäñí / zäñqí*, To'rtko'l-Ellikqal'a shevalarida

zāññí, shunindek, To'rtko'l tumani Qirqqiz qishlog'ida *zāngí*, Amudaryo-Beruniy, Toshhovuz shevalarida *zāñgí*, Ilonli shevalarida *zānní* shakllarida qo'llaniladi;

arqalıq / *arqalıx* – “tirqish”. Dialektal zonaning o'g'uz shevali arealida *arqalıx*, qipchoq shevali arealida *arqallıq* ko'rinishida uchraydi;

ä:k – “aravani hosil qilgan yog'ochlar (ular 9ta bo'lib, yelim bilan bir-birlariga jipslashtiriladi)”. Shuningdek, *ä:k* so'zining “ohak” ma'nosida ham qo'llanishi o'zbek shevalarining ta'siri. Ohak so'zi fors-tojikcha so'z bo'lsa-da, mahalliy turkman shevalariga Xorazm shevalariga moslashtirilgan fonetik ko'rinishi *ä:k* holatida o'tgan. Turkman adabiy tili va markaziy shevalarida ushbu so'z *hek* shaklida qo'llaniladi. Demak, mahalliy turkman shevalarida ohak ma'nosini ifodalashda yondosh o'zbek shevalarida ishlatiladigan shakldan foydalaniladi;

zo:rva:γı – “xomitning quyi qismini ikki tomonidan biriktirib turadigan qayish”. O'zbek shevalarida *zärvaγ* shaklida uchraydigan bu leksema turkman shevalariga fonetik jihatdan moslashtirilgan;

pijrvök – “arava gupchagi chiqib ketmasligi uchun o'q ichiga suqib qo'yiladigan yog'och”. Arealdagi o'zbek shevalarida *pärrävık* / *pírävık* holatlarida qo'llaniladi;

götörgí – “aravaning to'pi bilan o'qini arava ko'kragiga jipslashtirib turadigan uzun yog'och”. O'g'uz shevali arealda *götärgí*, qipchoq shevali arealda *kötärgí* ko'rinishlarida uchraydi;

keje – “kegay”. Bu so'z dialektal zonaning o'zbek shevalarida *kíjā* ko'rinishida qo'llaniladi va turkman shevalariga fonetik jihatdan moslashgan holda o'tgan;

mergenek / *märgänäk* – “gupchakning teshigiga o'rnatiladigan temir – podshipnik”. O'g'uz shevali arealda *märyanäk*, qipchoq shevali arealda *märgänäk*, shuningdek, Toshhovuz tumani Hallang qishlog'ida *margänäk* ko'rinishlarida uchraydi. Demak, turkman shevalariga bu so'z qipchoq shevalarining ta'siri natijasida o'zlashgan;

zemijnayač – “bo'yinturuqda pastga osilgan ikki yog'och”. O'g'uz shevali arealda *zämi:n*, qipchoq shevali arealda *zaminayač* ko'rinishlarida qo'llaniladi. Bu so'z ham qipchoq shevalaridan o'zlashgan;

ovžın / *čovzın* – “tasma, bo'yinchani arava yog'ochiga biriktiradigan qayish”. O'g'uz shevali arealda *šo:zın*, qipchoq shevali arealda *čavzın* shakllarida uchraydi.

Xulosa

Dialektal zonaning turkman shevalariga o'zbek tilining leksik ta'sirini quyidagicha mavzuiy guruhlariga bo'lish mumkin:

1) uy-joy buyumlariga oid so'zlar: *ba:dija* – “sopol tovoq”, *tijr / ti:r* – “kepchik”, *küpi* – “kubi”, *sila:pča* – “qo'l yuvish uchun ishlatiladigan lagan, chilopchin”, *leva:p kā:se / gö:knā:r kā:se* – “kosa”, *yumyan / ħumyan* – “qumg'on”;

2) ko'rpa-to'shak va gilamchilikka oid so'zlardan *körpe / körpä* (ko'rpa), *körpeče / körpäčä* (ko'rpacha), *kigiz / kijz* (kigiz), *tekelevent / tekenebent / täkänäbänt* (katta kigiz);

3) oziq-ovqatga doir so'zlardan *atala* (atala), *ħujman / ħujman* (quymoq), *ħurmuš / ħurmuš* (somsaning bir turi), *petírek / petijrek / pätíräk* (piyoz solingan zog'ora non), *kičílí* (kichirining bir turi), *ħajış / ħajış* (xamir ovqatning bir turi), *sömölek* (sumalak), *nıša:la* (nisholda);

4) ish qurollari va ularning qismlariga doir so'zlardan *mala pajča* (mola), *denda:na* (dandana), *yumra* (belkurak dastasiga mahkamlanadigan tunuka shayba), *kečgírt* (o'roqsimon pichoq);

5) poliz ekinlari va mevalardan *gürvek / kürvek*, *ħitaj*, *šapbazi*, *a:lahekek* (qovunning turlari), *ba:díreñ / badíreñ* (bodring), *levlegi / lävlägi* (lavlagi), *šívít* (shivit);

6) sohalarga (arava va aravachilikka) oid leksik birliklardan *arvejer / arväjär* (aravaning egari), *bosoya / bosaya* (ikki yog'ochni bir-biriga mahkamlaydigan ikkita ko'ndalang yog'och, narvon va aravalarda ishlatiladi), *menžíre / menžírä* (arava ustiga (yon taxtalarni tutib turish uchun) biriktirilgan to'rtta kichik ustun), *zäññí* (aravada aravakash o'tiradigan taxta), *arqalıq / arqalıq* (tirqish), *ä:k* (aravani hosil qilgan yog'ochlar), *zo:rva:yı* (xomitning quyi qismini ikki tomonidan biriktirib turadigan qayish), *píjrövük* (arava gupchagi chiqib ketmasligi uchun o'q ichiga suqib qo'yiladigan yog'och), *götörgí* (aravaning to'pi bilan o'qini arava ko'krigiga jipslashtirib turadigan uzun yog'och), *keje* (kegay), *mergenek / märgänäk* (gupchakning teshigiga o'rnatiladigan temir – podshipnik), *zemijnayač* (bo'yinturuqdagi pastga osilgan ikki yog'och), *ovžın / čovzın* (tasma, bo'yinchani arava yog'ochiga biriktiradigan qayish) kabilar turkman shevalariga o'tgan.

Xorazm shevalari leksikasining turkman tili (shevalari)ga o'zlashishi tabiiy bo'lib, ushbu zonada bu ikki xalq vakillari turmush tarzining umumiyligi tufaylidir.

Xorazm dialektal zonasidagi turkman tili(shevasi)ga o'zlashgan so'zlar turkman tili fonetik xususiyatlariga moslashtirilgan.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Ф. 1961. *Хоразм шевалари*. Тошкент: Фан.
- Аразкулыев, С. 1987. *Гарагалпагыстан түркмен геплешиклеринде гарындашлик терминлери*. Ашгабат: Ылым.
- Аразкулыев, С. 1961. *Гарагалпагыстан АССР-ның Дөртгүл районындакы түркмен геплешиклери*. Ашгабат: А.М.Горький адындагы Түркмен дөвлет университети.
- Аразкулыев, С., Атаныязов, С., Бердиев, Р., Сапарова, Г. 1977. *Түркмен дилиниң гысгача диалектологик сөзлүги*. Ашгабат: Ылым.
- Аразов, А. 2007. *Қарақалпақстан түркменлериниң сөйлеу тили менен қарақалпақ тилиниң өз ара тәсири ҳәм интерференция кубылылысы*: Филол.фан. номз. ... дисс. Нукус.
- Доспанов, О. 1977. *Қарақалпақ тили қубла диалектиниң лексикасы*. Нөкис: Қарақалпақстан.
- Ибрагимов, Ю. 2000. *Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи*: Филол.фан. д-ри...дисс. Тошкент.
- Исмоилов, И.А. 1966. *Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари*. Тошкент: Фан.
- Ишаев, А. 1977. *Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари*. Тошкент: Фан.
- Мадраҳимов, О. 1999. *Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати*. Урганч: Хоразм.
- Мадраҳимов, О. 1973. *Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси*. Тошкент: Фан.
- Musayeva, F. 2022. *O'zbek xalq so'zlari*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish.
- Насыров, Д. С., Доспанов, О. Д. 1983. *Қарақалпақ тилиниң диалектологиялық сөзлиги*. Нөкис: Қарақалпақстан.
- Қарақалпақ тилиниң түсіндірме сөзлиги*. 2023. Нөкис: Қарақалпақстан. Т. 5.
- Сапаров, М. 1988. *Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро муносабатлари*. Тошкент: Фан.
- Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi* (I tom). 2016. Aşgabat: Ýlym.
- Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi* (II tom). 2015. Aşgabat: Ýlym.
- Йўлдошев, Р. 2002. *Тошҳовуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари*: Филол.фан. номз...дисс. Тошкент.
- <https://enedilim.com>
- <https://tusindirmesozlik.uz>

Ishda qo'llaniladigan transkripsion belgilar.

- a** – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli.
- ä** – old qator, quyi-keng, lablanmagan unli.
- ā** – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unli.
- e** – old qator, o'rta-keng, lablanmagan unli.
- i** – old qator, yuqori-tor, lablanmagan (me'yordagi qisqa) unli.
- í** – old qator, yuqori-tor, lablanmagan, o'ta qisqa unli.
- ĩ** – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan (me'yordagi qisqa) unli.
- ı** – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan, o'ta qisqa unli.

u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan unli.

ü – old qator, yuqori-tor, lablangan unli.

o – orqa qator, o'rta-keng, lablangan unli.

ö – old qator, o'rta-keng, lablangan unli.

æ – old qator, o'rta-keng, lablanmagan.

b – lab-lab, portlovchi, jarangli tovush.

p – lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh.

m – lab-lab, portlovchi, jarangli, sonor undosh.

v – lab-lab, sirg'aluvchi, jarangli tovush.

t – til oldi, portlovchi, jarangsiz tovush.

d – til oldi, portlovchi, jarangli tovush.

s – til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz tovush.

θ – tishlararo (interdental), qorishiq, jarangsiz, apikal tovush.

Turkman adabiy tili va shevalarida qo'llaniladi, *θōδ* (so'z), *θuv* (suv), *derθ* (dars).

z – til oldi, sirg'aluvchi, jarangli tovush.

δ – tishlararo (interdental), qorishiq, jarangli, apikal tovush.

Turkman adabiy tili va shevalarida qo'llaniladi, *δa:t* (narsa), *ö:dim* (o'zim).

š – til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz tovush.

č – til oldi, portlovchi, jarangsiz tovush.

ž – til oldi, portlovchi, jarangli tovush.

r – til oldi, sirg'aluvchi, jarangli, sonor tovush.

l – til oldi, sirg'aluvchi, jarangli, sonor tovush.

n – til oldi, portlovchi, jarangli, sonor undosh.

j – til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli, sonor tovush.

ŋ – til orqa, portlovchi, jarangli, sonor tovush.

k – til orqa, portlovchi, jarangsiz tovush.

q – til orqa, portlovchi, jarangsiz tovush, o'zbek adabiy tili va qipchoq shevalaridagi **q** va **k** oralig'ida yuzaga keladi. Asosan, dialektal zonada o'zbek tilining o'g'uz lahjasi va turkman shevalarida uchraydi.

g – til orqa, portlovchi, jarangli tovush.

γ – chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli tovushni ifodalaydi. O'zbek adabiy tili va shevalarida qo'llanadi: *γali* (gilam), *γaltiŋ* (chuqurlik).

q – chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz tovush. O'zbek adabiy tili va shevalarida (Xorazm o'g'uz shevalaridan tashqari) va turkman adabiy tili va shevalarida uchraydi. Dialektal zonaning o'zbek o'g'uz shevalarida bu tovush qo'llanilmaydi.

x – chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz tovush.

h – sirg'aluvchi, jarangsiz, bo'g'iz undoshi.

The Influence of Lexical Features of Uzbek Dialects on the Turkmen Language (dialect) in the Khorezm Dialectal Zone

Elyor Alimardanov¹

Abstract

In the Khorezm dialectal zone, which is part of the Uzbek language massif, which is a component of the Turkic linguistic space, there are areas of the population speaking the Oghuz and Kipchak dialects of the Uzbek language, as well as the Karakalpak, Turkmen, and Kazakh languages. Accordingly, inter-dialectal (internal) and inter-lingual (external) intermediate dialects have emerged in the zone. In the areal linguistic classification of the dialectal zone, Turkmen dialects belong to the Turkmen-Uzbek intermediate dialects of the external intermediate dialects and are divided into two: Tortkul-type dialects (TTD), Urgench-type dialects (UTD). The Tortkul-type Turkmen dialects include the villages of Akkamish, Akbashli, Kaltaminar, Atayurt, Pakhtachi, Pakhtaabad, and Atauba in the Tortkul district, the villages of Sarimay and Nukus Maskani in the Tuprakkala district, Tazabagh in the Ellikkala district, the village of Mahtumkuli in the Beruniy district, and the village of Amir Temur in the Amudarya district. The Urgench-type Turkmen dialects include the villages of Turkmanlar in the Urgench district, Shikh in the Koshkopir district, Bostan in the Shavat district, Vakillar in the Yangiarik district, and Kalajikkala in the Baghat district. Although the Uzbek language has influenced TTD, in most cases Turkmen language features prevail, but UTD has preserved Turkmen elements only in some places, and in most places it reflects the same linguistic features as the surrounding Uzbek dialects.

In this dialectal zone, the Urgench-Khiva dialects, as a focal point, have an impact on the surrounding languages and dialects. This impact occurs at all three levels of the language: phonetics, lexis, and grammar.

This article discusses the lexical impact of Uzbek dialects in the dialectal zone on Turkmen dialects.

Key words: *Khorezm dialectal zone, focal point, Uzbek language, Turkmen language, lexical impact.*

¹ Elyor Alimardanov – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: elyor.alimardanov11@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-5889-6371

For citation: Alimardanov, E. 2025. "The Influence of Lexical Features of Uzbek Dialects on the Turkmen Language (dialect) in the Khorezm Dialectal Zone". *Golden Scripts* 2: 103 – 117.

References

- Abdullaev, F. 1961. *Xorazm shevalari*. Toshkent: Fan.
- Arazkuliev, S. 1987. *Garagalpagystan tyrkmen gepleshiklerinde garindashlik terminleri*. Ashgabat: Ёлым.
- Arazkuliev, S. 1961. *Garagalpagystan ASSR-nyñ Dörtgyl rayonındaky tyrkmen gepleshikleri*. Ashgabat: A.M.Gorkiy adyndagy Tyrkmen döwlet universiteti.
- Arazkuliev, S., Atanyazov, S., Berdiev, R., Saparova, G. 1977. *Tyrkmen diliniñ dysgacha dialektologik sözlügi*. Ashgabat: Ёлым.
- Arazov, A. 2007. *Qaraqalpaqstan tyrkmenleriniñ söyleo' tili menen qaraqalpaq tiliniñ öz ara täsiri häm interferensiya qubyllysy*: Filol.fan. nomz. ... diss. Nukus.
- Dospanov, O. 1977. *Qaraqalpaq tili qubla dialektiniñ leksikasy*. Nökis: Qaraqalpaqstan.
- Ibragimov, Yu. 2000. *Janubiy Orolbo'yi o'zbek shevalari tadqiqi*: Filol.fan. d-ri...diss. Toshkent.
- Ismoilov, I.A. 1966. *Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari*. Toshkent: Fan.
- Ishaev, A. 1977. *Qaraqalpog'istondagi o'zbek shevalari*. Toshkent: Fan.
- Madrahimov, O. 1999. *O'zbek tili o'g'uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug'ati*. Urganch: Xorazm.
- Madrahimov, O. 1973. *O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi*. Toshkent: Fan.
- Musayeva, F. 2022. *O'zbek xalq so'zlari*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish.
- Nasyrov, D.S., Dospanov, O.D. 1983. *Qaraqalpaq tiliniñ dialektologiyalyq sözligi*. Nökis: Qaraqalpaqstan.
- Qaraqalpaq tiliniñ tysindirme sözligi*. 2023. Nökis: Qaraqalpaqstan. T. 5.
- Saparov, M. 1988. *Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o'zaro munosabatlari*. Toshkent: Fan.
- Türkmen diliniñ düşündirişli sözlügi* (I tom). 2016. Aşgabat: Ylym.
- Türkmen diliniñ düşündirişli sözlügi* (II tom). 2015. Aşgabat: Ylym.
- Yo'ldoshev, R. 2002. *Toshhovuz viloyatidagi o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari*: Filol.fan. nomz...diss. Toshkent.
- <https://enedilim.com>
- <https://tusindirmesozlik.uz>

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalari bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo’yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma’lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 06. 2025-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 7,875.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan
o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi
tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi
lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0443 Adadi 100 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.:
+99890 900 75 77,
+99894 659 94 62